

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**AXMEDOV SAMANDAR SAYFULLO O`G`LI**

**TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA`MINLASHNING  
MOLIYAVIY STRATEGIYALARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomilasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi**

**Ilmiy rahbar  
i.f.d., professor  
M.P.Eshov**

**Toshkent – 2024**

# MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	
<b>I.BOB. TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA`MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	
1.1. Tijorat banklari barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	
1.2. Tijorat banklar barqarorligining ta'minlash muammolari.....	
1.3. Tijorat banklari barqarorligini boshqarishning innovatsion yo'llari.....	
Birinchi bob bo'yicha qisqacha xulosalar.....	
<b>II.BOB. O`ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGI HOLATI TAHLILI.....</b>	
2.1. Tijorat banklarida aktivlarni va majburiyatlarini boshqarish usullari.....	
2.2. O'zbekistonda tijorat banklari risklarini o'lhash va monitoring qilish usullari tahlili.....	
2.3. O'zbekiston tijorat banklari barqarorligi holati tahlili.....	
Ikkinchi bob bo'yicha qisqacha xulosalar.....	
<b>III.BOB. TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA`MINLASHNING MOLIYAVIY STRATEGIYALARI.....</b>	
3.1. Tijorat banklarining moliyaviy vositachiliginи faollashtirish yo'llari.....	
3.2. O'zbekiston tijorat banklarining operatsiyalari va boshqaruvini takomillashtirish ssenariyalari.....	
3.3. O'zbekiston tijorat banklari barqarorligini ta'minlashning moliyaviy strategiyalari.....	
Uchinchi bob bo'yicha qisqacha xulosalar.....	
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI.....</b>	

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.** Jahonda tijorat banklari barqarorligini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirishga oid muammolarni ilmiy asosda hal etish yuzasidan ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda, jumladan, banklarning kapitallashuv va likvidlilik darajasini oshirish, kreditlash mexanizmini takomillashtirish, har toifadagi risk darajasini pasaytirish masalalariga e'tibor kuchaytirilmoqda.Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, bank tavakkalchiliginи baholashni takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish kabi tadbirlar tijorat banklar amaliyotida samarali boshqarish tizimini qo'llashni dolzarb masala qilib qo'ymoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirish, unda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kapitallashuv va likvidlikni oshirish borasida olib borilgan islohotlar samarasida bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Ayniqsa, ko'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti va moliya bozorlarini tahlikali holatga keltirgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida respublika bank – moliya tizimida kuzatilayotgan barqaror natijaviyligi, shu jumladan, tijorat banklar tizimi kapitallashuvi va likvidligining saqlab qolinishi olib borilgan islohotlarning amaliy natijasidir.

O'zbekistonda jadal islohotlar sharoitida respublika moliya tizimini muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan tijorat banklarni samarali va barqaror faoliyat yuritishi mamlakat iqtisodiyotini yanada taraqqiy ettirish va uning pul kredit siyosatini samarali tashkil qilish zarur.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi PQ–3066 Qarorida iqtisodiyotni barcha sohalarida bo'lgani kabi tijorat banklarni boshqaruva tizimining davr talablariga mos ravishda olib borish va tijorat banklar faoliyati barqarorligini jahon standartlari talablariga to'liq javob berishini talab etadi.

Ushbu ilmiy tadqiqot "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini

kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g“risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 avgustdagি PF-5024-Farmonida va "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g“risida”gi Qonunni amalga oshirishda, Vazirlar Mahkamasining mavzuga oid Qarorlari hamda tijorat banklari faoliyatini barqarorlashtirishga tegishli normativ xujjatlarini takomillashtirish va banklar faoliyatini xalqaro reyting kompaniyalari orqali baholash mezonlariga erishishga ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mavzu 2012-2020 yillarda fan va texnologiyalar taraqqiyotining birinchi ustuvor yo‘nalishi - “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” dasturiga mos bo‘lib, fundamental tadqiqotlar Davlat ilmiy-texnika dasturlarining “F1. Bozor iqtisodiyoti, jamiyatni rivojlanishi, davlat va huquq nazariyasi” dasturi hamda amaliy tadqiqotlar Davlat ilmiy-texnika dasturlarining “ITD-2. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” dasturida qo‘zda tutilgan vazifalarni ilmiy jihatdan hal etishni ko‘zda tutadi.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Bugungi kunga qadar bank menejmenti hamda ularni takomillashtirish muammolari bilan mahalliy va MDH iqtisodchi olimlari doimo shug‘ullanganlar. Jumladan, tijorat banklari faoliyatida menejmentning tamoyillari hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari xorijlik yetakchi iqtisodchi olimlar V.M.Usoskin, Dj. Siynki, Ye.F.Jukova, U. Kox Timoti, I.V. Larionova, I.T. Balabanov, O.I. Lavrushina., P.S.Rouz, F. Kotler, Yu.N. Lapnin, E.Rid, Yu.A. Malenkovlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции.-Москва: МКЦ ДИС, 1997.-464 с.; Дж. Синки, мл. Управление финансами в коммерческих банках. пер. с англ. 4-го переработанного изд. БМА.М.: 1994, Sa1a11axy. - 820 с.; Е.Ф.Жукова. -М.: ЮНИТИ-ДАНА: Единство, 2006. - 575 с.; Тимоти У. Кох. Управление банком: пер. с англ. В 5-ти томах (книгах), 6-ти частях. Уфа: Спектр. Часть 1,2003. - 112 с.; Ларionова И.В. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. - М.: Консалтбанкир, 2003. - 272 с.; Банковское дело: учебник для студентов вузов, обучающихся по экон. спец. / Под ред. Балабанов И.Т. Банки и банковское дело. / Под ред. И.Т. Балабанова. -Санкт-Петербург: Питер, 2002. - 304 с.; Банковский менеджмент: учебник / кол.авторов; под ред. д-ра экон. наук, проф. О.И. Лаврушина. - 3 - е изд., перераб. и доп. - М.: КНОРУС, 2010. - 560 с.; Роуз П.С. Банковский менеджмент. БМА.М.:Дело-ЛТД.1995.-743 с.; Котлер.Ф. Основы маркетинга. Краткий курс.: Пер. с англ. - М.: Издательский дом «Вильямс», 2010. - 656 с.: ил.; Лапшин Ю.Н. Стратегический менеджмент: учеб.пособие. - М.: Эксмо, 2010. - 432 с.; Рид Э. Коммерческие банки. - М: Прогресс, 2006.- 261 с.; Маленков Ю.А.

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining faoliyati, ularning vazifalari va tijorat banklari rivojlanishini boshqarishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari, ushbu tizimdagi mavjud muammolar iqtisodchi olimlar B.T.Berdiyarov, V.A.Kotov, I.L.Butikov, N.X.Jumaev, O.B.Sattarov, O.Q.Abduraxmanov, R.T.Tursunov, R.R.Tojievlarning<sup>2</sup> ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Milliy bank tizimida bank marketingini hamda boshqaruv jarayonlarida moliyaviy menejmentni qo‘llashning ayrim ilmiy nazariy yo‘nalishlari esa A.Sh.Bekmurodov, B.Z.Mustafaev, B.K.Mirzamaydinov, M.Nasritdinova, M.M.Abduraxmanova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Ammo mamlakatimiz tijorat banklarining iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish jarayonlaridagi faolligi va barqarorligini boshqarishning nazariy va amaliy yo‘nalishlari kam o‘rganilgan muammo hisoblanadi. Bizning ilmiy izlanishimizda aynan ushbu muammolarni hal etish yuzasidan nazariy fikrlar, uslubiy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilindi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogliqligi.** Mazkur ilmiy ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Bank ishi va korporativ moliyalar” kafedrasi ilmiy tadqiqotlar loyihalari bilan bevosita bog‘liq.

**Tadqiqotning maqsadi:** tijorat banklari barqarorligini ta`minlashning moliyaviy strategiyalarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab

---

Стратегический менеджмент: учеб. - М.: Проспект, 2009. - 224 с.

<sup>2</sup> Бердияров Б.Т.Тижорат банклари актив операцияларининг даромадлилиги. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. - Тошкент.БМА. 2002. -21 б.; Котов В.А. Организация рынка ценных бумаг. -Т. «Молия» 2007.; Бутиков ИЛ. Рынок ценных бумаг Узбекистана: проблемы формирования и развития. Т.: «K0K8A1Л)1TШF0КМ KA8НК» 2008.; Жумаев Н.Х., Абдурахмонов О.Қ. Жаҳон молиявий-иҳтисадий инкоризи: сабаблари ва уни бартараф этиш муаммолари. - Т.: АкабепшазЫг, 2010. - 160 б.; Сатгоров О.Б. Тижорат банклари лаквчдлилигидан таъминлашни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. - Тошкент, БМА, 2008. - 21 б.; Тожиев Р.Р. Тижорат банклари ликвидилигини бошқаришнинг инновацион стратегияси.(“Агробанк”ОАТБ мисолида). Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация.-Т.: ТДИУ.2011. Бекмуродов А.Ш., Турсунов Р.Т. Халқаро бизнес. Ўқув кўлланма.- Т.: ТДИУ, 2009.-233 б.; , Мустафоев Б.З. Банк маркетинги-молия бозори шакланиши ва ривожланишининг асоси. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация.-Т.: ТДИУ.1998.; Мирзамайдинов Б.К. Банк хизматида маркетинг самарадорлиги.(Ўзбекистон Республикаси Ташки иқтисодий фаолият миллый банки мисолида). Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация.-Т.: ТДИУ.2008.; Насритдинова М. Бизнес стратегияси. Ўқув кўлланма.-Т.: Шарқ. 1996.-80 б.; Абдурахмонова М.М. Банк хизматлари бозорида маркетинг фаолиятини ривожлантириши.. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация.-Т.: ТДИУ.2010.

chiqish hisoblanadi.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

- tijorat banklar faoliyati barqarorligini samarali boshqarish mexanizmini tadbiqu etish asosida takomillashtirishni banklar xizmatlari huquqiy-meyoriy asoslari, innovatsion boshqarish usullarini qo'llagan holda rivojlantirishni qiyosiy tahlil etish;
- tijorat banklarida risklarini o'lchash va monitoring qilish, bank xizmatlari bozorida differensiatsiya va faoliyat davri diversifikatsiyasini takomillashtirish;
- bank xizmatlarini tashkil etish va uni barqarorligini ta'minlashda xorij tajribasini o'rganish hamda samarali boshqarish mexanizmining respublika banklarida balansdan tashqari faoliyatlarni kengaytirish evaziga takomillashtirish;
- Milliy bank Bosh boshqarmasining Toshkent shahridagi filiali barqarorligini ta'minlash mexanizmini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish va samaradorligini oshirish hamda strategik istiqbolini belgilash ssenariyalarini ishlab chiqish;
- tijorat banklar tizimini banklararo munosabatlar mexanizmini va ular faoliyatining ishonchliligi, barqarorligini oshirish evaziga rivojlantirish hamda takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari faoliyati olindi.

**Tadqiqotning predmeti** tijorat banklari barqarorligini ta'minlashning moliyaviy strategiyalarini takomillashtirishga oid moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari:** deduktiv va induktiv, ilmiy mushoxadalash, tahlil va sintez, statistik guruhlash, korrelyatsiya va regressiya, monografik tadqiq etish, ijtimoiy so'rov o'tkazish, taqqoslash, iqtisodiy-matematik usullar.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondoshuvga ko`ra "tijorat banklari barqarorligini ta'minlash" tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilgan;

tijorat banklari barqarorligini ta'minlashning tizimi samaradorligini baholash uslubi takomillashtirilgan;

tijorat banklari barqarorligini ta'minlashning moliyaviy strategiyalarini

takomillashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

O`zbekistonda tijorat banklari barqarorligini ta`minlashning 2030 yilgacha prognoz ssenariylar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

tijorat banklari barqarorligini ta`minlashni innovatsion boshqaruva mexanizmi va texnologiyalarini qo`llash natijasida bank barqororligini samarali boshqaruva tizimini taqomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqildi;

tijorat banklari operatsiyalari va xizmatlari boshqaruvi barqarorligini oshirishda bank biznesi risk darajasini pasaytirish, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, xalqaro muqobil reytingini ko`tarish bo`yicha muallif yaratgan ilmiy ishlanmalar amaliyotda qo`llaniladi;

tijorat banklari operatsiyalari va xizmatlari barqarorligini oshirishda uning qiyosiy samaradorligining asosiy miqdoriy mezoni sifatida o`rtacha va marginal konsepsiya usulining qo`llanishi bank biznesi va xususiy tadbirkorligida risklarni pasaytirish va samaradorlikni oshirishga yo`naltirilgan ilmiy tavsiya va amaliy takliflar yaratishga imkon yaratdi; tijorat banklari faoliyati barqarorligini ta`minlash bo`yicha taklif etilgan uslubiy ishlanmalarda bank xizmatlari hajmi, foiz stavkasi, o`rtacha va marginal xarajatlar haqida qarorlar qabul qilish, investitsiya loyihamalarini banklarning kredit mablag`lari evaziga moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratdi.

**Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi** izlanishlarda qo`llanilgan usullarning zamonaviylici va ilmiylici, berilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarning hamda yaratilgan ishlanmalarning rasmiy tashkilotlardan olingan ma`lumotlarga asoslanganligi, ularni matemaik –statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi va ularni aniqlikdan chetlanish intervali statistika qonunlarida keltirilgan ishonchlilik talabiga javob berishi aniqlanganligi va amaliyotga joriy qilish uchun taklif etilganligi, ularning dahldor tashkilotlar tomonidan tan olinganligi va amaliyotga joriy etish uchun qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati shundaki, unda tijorat banklari barqarorligini boshqarish va rivojlanish genezisini muallif tomonidan yangicha talqin etilishi, “bank tadbirkorligi” menejment

kategoriyasini joriy etishning asoslanishi, ularning missiyasi, istiqboli, maqsadi, vazifalari, strategiya va taktikalari hamda samaradorligidir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy g‘oyalar va uslublar tijorat banklari operatsiyalarini tashkil etish, boshqarish hamda rivojlantirish, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, bank faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy tavsiyalar yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot jarayonida olingan nazariy va amaliy natijalar, tahliliy ma’lumotlarni iqtisodiyot oliygohlarida “Bank ishi”, “Bank menejmenti” kabi fanlarni o‘qitish jarayonlarini uslubiy ta’minlashda qo’llash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari barqarorligini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

**Tadqiqot natijalarining aprobatasiysi.** Dissertatsiya ishining asosiy mazmuni xorijiy va milliy jurnallarda, ilmiy-amaliy seminar va konferensiyalarda taqdim qilingan va muhokama qilingan. Jumladan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta shulardan, 5 ta ilmiy maqola(respublika jurnallarida) 2 ilmiy maqola (xorijiy jurnallarda) va 2ta xalqaro anjumanda tezis, 7- ta respublika ilmiy –amaliy anjumanlarida tezislari e’lon qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 1,5 b.t. dan ortiq, 16 dan ortiq ilmiy maqola va ma’ruzalar tezislari chop etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va xajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan tashkil topgan bo‘lib, jami 131 betda bayon etilgan.

**I.BOB.      TIJORAT      BANKLARI      BARQARORLIGINI**  
**TA`MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

**1.1. 1.1. Tijorat banklari barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari**

O‘zbekiston Respublikasida barcha sohalarda bo‘lgani kabi moliya bozorida, shu jumladan, bank sektorida o‘tkazilayotgan islohotlarda tufayli sohada sezilarli siljishlar va o‘zgarishlar amalga oshirilmokda. Bu o‘zgarishlar mustaqillik yillarda jahon andozalariga mos keladigan bank tizimini bosqichma- bosqich barpo etish bilan hamohang tarzda davom ettirilmokda. “Banklarning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilgan samarali chora-tadbirlar mamlakatimiz tijorat banklariga kreditga layoqatlilik bo‘yicha taqdim etilgan xalqaro reytinglarini yaxshilashga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Xususan, «Moody’s» xalqaro reyting agentligi O‘zbekiston bank tizimi rivojlanish istiqbollariga berilgan «barqaror» darajadagi reyting bahosini yettinchi yildirki qayta tasdiqlab kelmoqda.«Standard & Poor’s» va «Fitch Ratings» reyting agentliklari ham O‘zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» sifatida baholamoqda. Hozirgi paytda respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha tijorat banklari katta uchlikni tashkil etuvchi «Moody’s», «Standard & Poor’s» va «Fitch Ratings» xalqaro reyting agentliklarining ijobiy baholariga egalar. Bu banklarda yo‘lga qo‘yilgan boshqaruv sifati va shaffofligining amaliy natijasidir”.

Bank tizimi va uning tuzilishi serqirrali va murakkab aloqalarga asoslangan tizimdir. Uning turli tamoyillarini ko‘rish, turli holatlariga qarab guruhlash mumkin. Masalan, ularni tashkiliy tuzilishiga ko‘ra intitutsional chizma ko‘rinishida ko‘rib chiqish mumkin. Bundan tashqari bank tizimini bajaradigan funksiyalari, o‘zaro aloqadorligi, mavkei, maxsus yo‘nalishi, bajaradigan operatsiyalariga va ularni tatbiq etilishiga qarab ham guruhlash mumkin.

Jumladan, ko‘pgina iqtisodiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek bank tizimi-mamlakatning yagona pul-kredit mexanizmi doirasida o‘zaro bog‘liqlikda faoliyat

yurituvchi moliya-kredit institatlari majmuasi deb yuritiladi<sup>3</sup>. Ularning fikriga ko‘ra bank tizimi-bu mamlakat xududida tarixan shakllangan va qonun bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko‘rsatish shaklidir.

Demak bank tizimi asosiy o‘rinda mamlakat kredit tizimining yetakchi va birlamchi qismi tarzida ko‘rib o‘tiladi. Yuqoridagilarga ko‘shilgan holda mamlakat bank tizimini ma’lum bir davlat xududida belgilangan qonun-qoidalar asosida faoliyat yuritayotgan va faoliyat olib borish hukuqini olgan kredit institatlari majmuasi deb aytishimiz mumkin. Kredit institatlari sifatida shakllangan bank tizimi doimiy ravishda moliyaviy barqaror va samarali tashkilot bo‘lmog‘i lozim.

Mamlakat bank tizimi xususiyatlari to‘g‘risida bir hil darajadagi fikrga kelinmagan. U haqida hozirgi kunga qadar bir nechta fikr-mulohazalarni keltirish mumkin.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi Moliya universiteti professori O.I.Lavrushinning fikriga ko‘ra banklar-iqtisodiyotning o‘ziga xos "qon tomiri" bo‘lib, ularsiz zamonaviy xo‘jalik mexanizmini tasavvur qilish mumkin emas. Bu tizimni turli xo‘jalik sub’ektlari, davlat korxonalari, chet el investorlari, aholining pul resurslari o‘zaro muomalada bo‘ladi.<sup>4</sup>

Bank sohasi bilan shug‘ullanuvchi O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Z.Abdullaeva o‘zining «Pul, kredit va banklar<sup>5</sup>» kitobida «Bank deb pul mablag‘larini yig‘uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa xar xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytildi» deb ta’kidlaydi.

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya’ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funktsiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta’minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi.

<sup>3</sup> Банки и банковское дело. Учебник для вузов.2-е изд.-СПб: Лаврушин О.И. Банковское дело. Экспресс курс: Учеб. пособие. / Под ред. О.И.Лаврушина – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Кнорус, 2009. – 352 с.

<sup>4</sup>Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009.стр-8.

<sup>5</sup> Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. Т.: Молия., 2009 й.

Moliyaviy tizim, qachonki banklar, boshqa kredit tashkilotlari va moliya bozorlari uy xo‘jaliklari va tadbirkorlik sub'ektlariga bir maromda ishlayotgan tizimning keskin sustlashishiga yo‘l qo‘ymasa, iqtisodiyotdagi ishtiroki va uning o‘sishi uchun zarur moliyaviy investitsiyalar taqdim eta olsagina barqaror hisoblanadi. Aks holda nobarqaror tizimda iqtisodiy shoklar real iqtisodiyotga noxush ta’sir ko‘rsatishi, kreditlashni izdan chiqarishi va kutilganidan ziyod xatarga olib kelishi, bandlikning qisqarishi va iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkin.

Moliyaviy nobarqarorlik sharoitida moliya tizimi iqtisodiyot uchun zarur moliyaviy xizmatlarni taqdim eta olmaydi. Masalan, yirik moliya tashkilotidagi qiyinchiliklar moliyaviy nobarqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, bitta muassasadagi muammolar banklararo operatsiyalar tufayli tizimning bir-biriga o‘zaro qattiq bog‘langan boshqa tashkilotlariga ham tarqalishi mumkin. Muassasalarning umumiy faoliyati butun moliya tizimi uchun xavfni, ya’ni tizimli xavfni yuzaga keltirishi, ishonchli bo‘lib tuyulgan alohida tashkilotni ham moliyaviy nobarqarorlikka olib kelishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlik va uni tahlil qilish markaziy banklar hamda moliya tizimini tartibga soluvchi organlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bank sektori O‘zbekiston moliya tizimining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lganligi sababli, uning barqarorligini ta’minalash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Markaziy bank bank tizimidagi o‘zgarishlarni kuzatib boradi va baholaydi, shuningdek, tizimli xavflar to‘planishini kamaytirish va bank tizimining barqarorligini ta’minalash choralarini ko‘rib boradi. Markaziy bank yiliga ikki marta Moliyaviy barqarorlik sharhini chop etadi, unda bank tizimining barqarorligi, makromoliyaviy zaiflik va xatarlar tahlil qilinadi va baholanadi. Ushbu sharhni chop etishdan ko‘zlagan asosiy maqsad – jamoatchilik xabardorligini hamda bu sohada Markaziy bankning shaffofligi va hisobdorligini oshirishdan iborat<sup>6</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida amalga oshirilgan tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011 – 2015

---

<sup>6</sup> <https://cbu.uz/oz/financial-stability/about>.

yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'naliishlari to'g'risida»gi PQ-1438-sonli va 2015 yil 6 maydagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2344-sonli Qarorlari hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlarida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning ijrosiga qaratildi.

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi.

So'ngi yillarda ham banklar tomonidan ustuvor vazifa qilib belgilangan sanoatda yuqori texnologiyali va zamonaviy bo'lgan eng muhim ob'ektlar hamda quvvatlarni ishga tushirish, mamlakatda ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash va modernizatsiyalashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirish va unda bank risklarini boshqarishni takomillashtirish masalalariga e'tibor karatishni taqozo etmokda.

Hozirgi sharoitda banklar tobora kuprok faqat sof bank operatsiyalarini bajaradigan emas, shu bilan birga moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan moliyaviy muassasalarga aylanmokda, bu bank balansida aks ettirilmaydi, lekin juda katta daromad keltiradi.

Moliyaviy vositachilar sifatida banklarning zaruriyati pul mablag'larini kreditorlardan qarz oluvchilarga va sotuvchilardan xaridorlarga o'tkazishda vositachilik kilishdir. Banklar bilan bir katorda, bozorlarda pul mablag'larni o'tkazishni boshqa moliyaviy va kredit - moliyaviy tashkilotlar: investitsion fondlar, sug'urta kompaniyalari, brokerlar, dilir firmalari va hokozolar bajarilishlari mumkin. Birok banklar, moliyaviy bozor sub'ekti sifatida boshqa sub'ektlardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadi.:

Birinchidan, banklar uchun qarz majburiyatlarining ikki tomonlama almashtirish xarakterlidir (xosdir): ular uzlarining majburiyatlarini (depozit) shakllantiradilar va jalb kilingan mablag'larni qarz majburiyatlariga, qimmatli qog'ozlarga (boshqalarning chiqargan qog'ozlariga) joylashtiradilar;

Ikkinchidan banklar uzeliga yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qa'tiy belgilangan summa bo'yicha shartsiz majburiyatlarni oladilar.

Boshqacha qilib aytganda bu jarayon banklarning "miqdorni transformatsiyalash"i deb ataladi. Demak, ayrim hollarda qarz beruvchilarga mablag' yetishmaydi. Ya'ni qarz beruvchi qisqa muddatga qarz berishni hohlaydi. Qarz oluvchi, aksincha, loyiha yoki investitsiya davri uchun fond bo'lishini orzu qiladi. Banklar ana shu muammoni hal qiladi, ular qisqa muddatli depozitlarni taklif etib uzoq muddatli qarzlarni beradi. Bu jarayon banklarning "vaqt ni transformatsiyalashi" deb ataladi.<sup>7</sup>

Uchinchidan, banklarning zarurati risklarni transformatsiyalashidadir. Chunki qarz beruvchilar past riskli aktivlarni yoqtiradi, qarz oluvchilar yuqori riskli fondlarni talab etadi. Bularni amalga oshirish uchun banklar qarz oluvchilarga shartnoma asosida foiz stavkasi joriy etadi. Bu yerda ikki toifadagi risklarni inobatga olish zarur: defolt va narx risklari. Defolt riski deb qarz oluvchilarning kredit uchun foiz stavkalarini, to'lash yoki qarzni qaytara olmasligi yoki ikkala to'lovni ham amalga oshirolmashligiga aytildi.

Rivojlangan mamlakatlarning banklari faoliyatini o'zgartirish va bank strategiyalarini joriy etish nuqtai nazaridan uchta tendensiyani boshidan kechirmoqda. Ular quyidagilar<sup>8</sup>:

- 1) qayta tartibblashtirish (deregulyatsiya) yoki erkinlashtirish;
- 2) moliyaviy innovatsiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etish;
- 3) globalizatsiya jarayonini e'tiborga olgan holda milliy banklarni jahon moliyaviy bozorlariga integratsiyalashuvini kuchaytirish.

Bu tendensiyalar bir-birini inkor qilmagan holda o'zaro aloqadordir. Banklar faoliyatini erkinlashtirish ta'sirida depozitlarga belgilanadigan foiz stavkalarida chegaralarning olib tashlanishi natijasida yangi "moliyaviy innovatsion" depozitlar uchun to'lanadigan o'zgaruvchi foiz stavkalari joriy qilinmoqda. Erkinlashtirish,

---

<sup>7</sup> Kent Mathews and John Tompson. The economics of banking.Third edition."WILY", 2014

<sup>8</sup> Kent Mathews and John Tompson. The economics of banking.Third edition."WILY", 2014

shuningdek xalqaro banklarning ichki bank xizmatlarini ko‘rsatish sohasini ham taraqqiy ettirishga olib keldi.

“Moliyaviy innovatsiyalar” tushunchasi keng qo‘llaniladigan jumla bo‘lib u bank-moliyaviy xizmatlarning ko‘lamni, hajmi va xizmat ko‘rsatish turidagi har qanday yangilikni anglatadi. Umuman olganda, moliyaviy innovatsiyalarning yaratilishiga uchta omil ta’sir ko‘rsatadi:

1. Moliyaviy tashqi omillarning beqarorligi, tez o‘zgarishi;
2. Bank va moliya tizimini tartiblashtirishdagi huquqiy va iqtisodiy normalarni takomillashtirish zarurati;
3. Moliyaviy sektordagi texnologik rivojlanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet tizimini banklar faoliyatiga keng joriy etish.

Innovatsiyalar ma’lum bir ijobiy iqtisodiy yoki strategik samaraga ega bo‘ladi. Bunda innovatsiyalardan olinadigan foyda uni yaratish va ilgari surish xarajatlaridan katta yoki kamida unga teng bo‘lishi lozim. Banklar o‘z xizmatlarini yaratish va ularni yetkazib berish uslubiyatlarini modernizatsiya qilishdan ularning operatsion xarajatlari va narxini raqobat pozitsiyasiga mos darajaga olib chiqish maqsadida manfaatdor bo‘ladi.

Innovatsiya jarayoni – yangilik g‘oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste’molchi tomonidan iste’mol qilinishigacha bo‘lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon. Bu yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud – yangilikni yaratish, uni o‘zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish .

Shunday qilib, quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

1. «Innovatsiyalar» tushunchasi bank faoliyati sohalarining barchasida kiritiladigan yangiliklarga nisbatan qo‘llanishi mumkin.
2. Innovatsiyalarga quyidagi xislatlar xosdir:
  - yangi texnologiyalardan foydalanish;
  - mahsulot yangiligi;
  - bozor talabini qondirish;

- tijorat nuqtai-nazaridan amalga oshirish.

Demak, innovatsion bank mahsuloti bu – yangi yoki modifikatsiyalangan ko‘rinishdagi mahsulotlar va ularni bozorda sotish (amalga oshirish) ko‘rinishidagi innovatsion faoliyatning yakuniy natijasidir; innovatsion faoliyat bu – yangi va modifikatsiyalangan mahsulot va/yoki ularni bozorda sotish texnologik jarayonlar yaratish jarayoni.

Innovatsion bank faoliyati bank mahsulotlari va xizmatlarining mahsulotini o‘zgartirmaydi, balki ularning mazmunini kengaytiradi, shaklini modernizatsiya qiladi, bankning mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar tizimiga sifat o‘zgarishlari kiritadi.

Bugungi kunda raqobatbardosh innovatsion bank mahsulotlari, mahsulotlar va biznes jarayonlarini loyihalash, ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni bank injiniringi nomini olgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi va ichki ehtiyojdagi mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omili bu zamонавиу — innovatsion texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi.


Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo‘llaniluvchi usul va vositalar majmui bo‘lib, o‘z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi .

Hozirgi kunda ilg‘or texnologiyalar taraqqiyoti va ishlab chiqarishning o‘sishi innovatsion faoliyatni tartibga solish masalalarini birinchi o‘ringa olib chiqmoqda. Albatta qabul qilinayotgan qonun hujjatlari innovatsion munosabatlarni tartibga solish bilan bir qatorda, ushbu munosabatlar rivoji uchun keng sharoitlar va imkoniyatlar yaratib berishi lozim.

Mamlakatimizda ham ushbu munosabatlarni ma’lum darajada tartibga soluvchi Fuqarolik kodeksi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi kabi qonun hujjatlari amal qilmoqda. Bu borada mamlakatimiz birinchi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘sishma choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining o‘ziga xos ahamiyatini alohida ta’kidlash mumkin. Bundan tashqari, Vazirlar

Mahkamasining 2009 yil 20 maydagi “Innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan bo‘lib ularda fan va ishlab chiqarishning uzviy aloqasini ta’minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini rag‘batlantirish hamda rivojlantirishning aniq mexanizmlarini yaratish, fundamental va amaliy tadqiqotlar, innovatsion ishlanmalar natijalaridan keng foydalanish, ilmiy tadqiqot tashkilotlari va mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining real sektorlari o‘rtasida kooperatsiyalar tuzish kabi muhim yo‘nalishlar ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan edi.

Ammo ta’kidlash lozimki, ushbu hujjatlar innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun yetarli darajadagi huquqiy asos bo‘la olmaydi. Shu bilan birgalikda ushbu sohadagi ayrim munosabatlar to‘lig‘icha yoki qisman tartibga solinmagan. Misol uchun iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan va o‘z mazmuniga ko‘ra keng ma’noni anglatuvchi innovatsiya tushunchasiga huquqiy jihatdan aniqlik kiritilmagan.



### **1.1.1-rasm. Banklarda moliyaviy innovatsiyalarning yaratilish jarayoni<sup>9</sup>.**

Jahonda va mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlar rivoji bank xizmatlari bozoridagi strategiyalarning o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Biznes jarayonidagi tendensiyalar, mijozlar hohish-istiklarining o‘zgarishi, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yayotgan shaxslarning yangi bank mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan talabining tijorat banklari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqdalar.

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi.

Aktivlar menejmentida banklar aktivlar tuzilishi, miqdorini kredit berish muddatlariga rezerv doirasida muvofiqlashtirishga e'tibor bergenlar. Majburiyatlar menejmentida esa banklar yangi qo'shimcha pul mablag'larini topish (jumladan, banklararo bozordan qarz olish) va aktivlar chegarasini saqlashga e'tibor qaratmog'i lozim. Tijorat banklari faoliyatidagi vujudga keladigan risklarni boshqarish borasidagi siyosati uning aktivlari va passivlarini shakllantirishda o'zaro qarama-qarshi bo'lgan likvidlilik-foydalilik hamda risklilik ko'rsatkichlari o'rtaсидаги оғилона нисбатни та'minlashга qaratilishi lozim.

Rivojlangan mamlakatlarda banklarda majburiyatlar menejmentiga e'tibor kuchayishi va kredit berishda o'zgaruvchi foiz stavkasiga (LIBOR – London inter bank offer rate) o'tish natijasida banklarning buxgalteriya balansi ancha kengaydi. Banklar majburiyatlarini samarali boshqarib foiz stavkalarini o'zgartirib banklar aro bozorlaridan mablag'larini jalb qilgan holda bank kreditlariga bo'lgan talabni qondirishga erishmoqdalar.

Naqd pullar menejmentidagi texnologik yangiliklar yangi turdag'i moliyaviy mahsulotlar: kredit kartalari, fondlarni elektron o'tkazish (EFT) vositalari, avtomatik kassir mashinalari (ATM), sotish manzilidagi mashinalari (POS) taklif etish natijasida boshqarish samaradorligini oshishiga va operatsion xarajatlarni pasaytirishga sabab bo'lmoqda.

Nazariy jihatdan banklarning globallashuvi uchta yo'nalishda amalga oshiriladi (Kanale 1997) birinchi yo'nalishi chet mamlakatlarda filial tarmoqlarini ochish. Misol uchun, SITI guruhi va BARKLEYSlarni olaylik. Ikkinchi yo'nalish – banklarni sotib olish va banklarning qo'shilishi; uchinchi banklar ishtirokida strategik alyanslar tuzish. 1984 yil Doych bank Morgan Grinfeldni sotib olgan. XST bankining GATS banki bilan qo'shilishi bunga misol bo'la oladi.

Globalizatsiya jarayoni banklar tomonidan "xavfsizlik" muammosini hal qilishga bo'lgan e'tiborini kuchaytirdi. Umuman olganda "xavfsizlik" muammosi ikkita jarayonni birlashtiradi:

1) banklar o‘zlarining bozor aktivlarini – uy sotib olish va yengil mashina qarzlarini – qimmatli qog‘ozlar bozoriga yo‘naltiradi. Chet el tajribasida buni Asset-backed securities (ABS) deb ataydi.

2) moliyaviy vositachilikka qarshi bo‘lgan jarayon, ya’ni kapital bozorlaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarz olish hisoblanadi.

Banklarning kelgusidagi iqtisodiyotdagi roli haqida turli fikrlar bayon qilingan. Jumladan, xorij adabiyotlarini sharhlab XXI asrdagi banklarning quyidagi xususiyatlarini qayd etish lozim:

1.Banklarni qayta tuzish, uning funksiyalarini bir-biridan ajratish va ayrim hollarda narxlash va alohida xizmat ko‘rsatish;

2.Kapitalni shakllantirish – ko‘pgina banklarda ortiqcha kapitalning mavjudligi bank operatsiyalarini bajarishda va faoliyatini amalga oshirishda kapitaldan mohirona qo‘llashni, kredit risklariga bardosh berishi uchun yangi ulushlarini qayta sotib olish operatsiyalarini bajarishni talab etadi;

3.Banklar o‘zaro subsidiyalash funksiyalarini yo‘qotib uning o‘rnini bozorga kirib kelgan yangi banklar egallamoqda;

4.Banklar asosiy funksiyalarini (kredit berish va qimmatli qog‘ozlar bozorida harakat qilish) kuchaytirishlari lozim. Ularning (banklarning) qiyosiy ustunliklari axborot yig‘ishda, uni sir saqlashda, risk tahlilini bajarishda, bergen qarzlarni monitoring qilish, qarz kontraktlarini tuzish va brokerlik faoliyatini olib borishidadir;

5.Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi banklarning “xavfsizlik” muammosini nisbatan ikkinchi darajaga so‘rib qo‘ysada, u yanada banklar taraqqiyotida, defoltga uchramasligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda;

6.Rivojlangan mamlakatlarda banklar daromadining katta qismi balansdan tashqaridagi biznes faoliyatidan shakllanadi.

Taraqqiyot shu tarzda davom etsa kelgusida banklarning tuzilishi o‘zgarib Luvellen (1996) ta’kidlaganidek “kontrakt banklar” maqomini oladi.

Kontrakt bankning ma’nosи shundan iboratki ular iste’molchilar bilan moliyaviy xizmatlarni taklif etish haqida bitim tuzadilar. Bitim asosida iste’molchiga moliyaviy xizmat ko‘rsatishda kontrakt bank ayrim xizmat turlarini boshqa


banklardan, bankdan tashqaridagi moliyaviy institatlardan (BTMI) va kapital bozorlaridan jalb qilishi mumkin. Kontrakt bank ko‘p manbalardan keladigan risklarni inobatga olgan holda har xil turdagি moliyaviy xizmatlarni “yagona oynadan” taklif etadi, hamda universal bank shaklida bir korxonada moliyaviy xizmatlarni ishlab chiqaradi. Birinchidan qaraganda, u “virtual bank”ga o‘xshab ketadi, ammo undan farq qiladi. Internet “virtual bank” xizmatida korxonaning anonimligi iste’molchining ishonchini yo‘qotishga olib keladi. Kontrakt banklarning xizmat ko‘rsatish va bank operatsiyalarini bajarishini quyidagicha tasvirlash mumkin.<sup>10</sup>

Moliyaviy vositachilar to‘rtta me’zon bo‘yicha farqlanadi.

- 1.Ularning majburiyatları yoki depozitlari ma’lum miqdorda o‘zgarmas belgilangan va ularning biznes portfoliosiga aloqasi yo‘q;
- 2.Ularning depozitlari qisqa muddatli bo‘lib aktivlarga nisbatan ancha qisqa davrni o‘z ichiga oladi.

3.Ular majburiyatlarining aksariyat qismini cheklar tashkil qiladi

- 4.Ularning majburiyatları yoki aktivlari vaqt bo‘yicha transformatsiya qilinmaydi. Qarz olganni qarz bergen bank orqali monitoring qilinadi.



### **1.1.2-Rasm. Kontrakt bankning tashkiliy tuzilishi**

Jahon tajribasida banklarning quyidagi tipologiyalari mavjud. Umuman olganda besh toifadagi bank operatsiyalarini kuzatish mumkin:

1. Ulgurji bank;
2. Chakana bank;
3. Universal bank;


<sup>10</sup> Kent Mathews and John Tompson. The economics of banking.Third edition.“WILY”, 2014.p.18

4. Islom banklari;

5. Xalqaro banklar.

Yana shuni ham ta'kidlash zarurki, xar bir davlatning o‘z xususiyatidan kelib chiqqan holda bank tizimini turlicha guruhlarga ajratish mumkin.

Bu xizmatlar turkumiga fondlar brokeri, aktivlar menejmenti, investitsiyalar banki kiradi. Nihoyat banklar xizmatlar spektri bo‘yicha ham toifalanishi mumkin. Faqat bir toifadagi banklar, masalan, ulgurji banklar (Tesco Finance), chakana xizmatlar banki (JPMorgan). Biroq aksariyat banklar bir necha xizmatlarni taklif etadi va ular universal banklar toifasiga kiradi.<sup>11</sup>



### **1.1.3-Rasm. Moliyaviy vositachilar qarz olgan tashkilot (sub'ektlarni)ni kuzatishlari.**

Menejment o‘z ichiga boshqaruv jarayonlarini amalga oshirishning moliyaviy, moddiy, tashkiliy, xukukiyl, ma’naviy-psixologik shart-sharoitlarini yaratish, boshkaruv vazifalarining bevosita ijro etilishi, boshqaruv jarayoni natijalari nazorat va taxlil etilishi kabi bosqichlarni qamrab oladi.


Bularga ko‘sishma ravishda tijorat banklarida mijozlarning kredit tarixi bo‘yicha axborot bazasini yaratish, bank kredit xizmatchilarini malakasini doimiy ravishda oshirib borish maqsadga muvofikdir. Zero, bank tizimining umumiyl

---

<sup>11</sup> Ўша ерда, 50 бет

barqarorligini ta'minlash uchun, avvalambor tijorat banklarining individual “himoya yostiqlari” mustahkam bo‘lishi lozim.

Dastlabki kreditni muqobillashtirish nazariyalari vertikal foiz stavkasi davlat tomonidan belgilanishiga asoslangan. Keyingi nazariyalar uni defolt riskiga asosan belgilanishini ko‘rsatadi. Bu nazariyaga binoan moliyaviy vositachilar, jumladan banklar kredit riskining oshishini foiz stavkasini oshirish hisobiga kompensatsiya qilolmasligi inobatga olingan. Bank muayyan miqdordagi qarzlarga ega bo‘lgandan keyin risk darajasi foiz stavkasi darajasidan yuqori bo‘ladi, natijada kutilayotgan foyda pasayadi. U quyidagi grafikda tasvirlangan.



### **1.1.1- shakl. Foiz stavkasi va kutilayotgan foyda aloqasi<sup>12</sup>.**

Yuqoridagi grafikda tasvirlanganidek bankning foiz stavkasi oshishiga mos ravishda uning kutilayotgan foydasi ham ortadi, chunki foiz stavkasining ortishi ikki o‘zaro qarama-qarshi jarayon: likvidlilik-foydalilik hamda risklilik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi oqilona nisbatni ta’minalashga qaratilishi lozim. ravishda bankning qarzlar daromadlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, kutilayotgan foyda qarz narxi (foiz stavkasi) oshishidan ijobjiy ta’sirda bo‘ladi. Ikkinchidan defolt riski darajasi oshishi tufayli kutilayotgan foyda pasayadi. Muayyan nuqtadan keyin ikkinchi omil birinchisini yengadi va natijada bankning kutilayotgan foyda/daromadi pasayadi. Kutilayotgan foyda darajasining pastroq o‘sishi foiz stavkasi o‘sganda ham defolt riskini oshiradi. Foiz stavkasining muayyan ( $R^*$ ) darajasidan so‘ng defolt riskining ortishi kutilayotgan foyda miqdorini kuchliroq pasaytiradi. Natijada ( $R^*$ ) foiz stakasidan so‘ng uning ortishi kutilayotgan

<sup>12</sup> Ўша ерда, 127 бет

foyda miqdorini kamaytiradi. Bu nazariya adabiyotlarda kreditni muqobillashtirishning endogen nazariyasi deb nom olgan va u ilk bor 1966 yilda Xodgman (Hodgman) tomonidan kashf etilgan. Hozirga paytda u kreditni muqobillashtirishda amaliyatda keng qo'llaniladi.

## **1.2. Tijorat banklar barqarorligining ta'minlash muammolari**

Bank operatsiyalari va boshqaruvi samaradorligini oshirish, xizmatlar turini rivojlantirish uchun har tomonlama asoslangan va xorij mamlakatlarida keng qo'llaniladigan strategiyani amaliyatda joriy qilish korxona ustunlikka erishishining asosiy yo'lidir. Bank strategiyasi bank operatsiyalari va faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan missiya, uzoqni ko'ra bilish, maqsad va vazifalarni, bozorda faoliyat olib borish chora va tadbirlarni, amalga oshirayotgan ishlarning monitoringi va natijalar nazoratini qamrab oladi.

Keyingi yillar davomida respublikamiz iqtisodiyoti barqaror rivojlanmoqda. Mamlakat iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, inflyatsiyaning tasdiqlangan parametrlar doirasida bo'lishi va milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda bank tizimi, pul-kredit siyosatining bozor instrumentlaridan keng foydalanish o'z natijasini bermoqda.

Keng ko'lamli va samarali islohotlarimiz natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotimizga 2022 yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetdi. So'nggi yillarda oliygohlarimiz 2,5 barobar ko'payib, 198 taga yetdi, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi. Avvalambor, bunga har bir oliygoh o'zi harakat qilishi lozim, o'shanda natija bo'ladi. Bu borada 41 ta oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, ularda transformatsiya ofislari ochildi. Oliygoh rektorlari, professor va o'qituvchilar bu jarayonlarda faol bo'lishlari, yangi, ilg'or metodikalarni joriy qilishlari kerak. Kelgusi yilda oliygoh talabalari uchun imtiyozli ta'lim kreditlariga resurslar 2 barobar ko'paytirilib, 1,7 trillion so'm ajratiladi. Bu yil ilm-fan va innovatsiyalarga 1,5 trillion so'm yo'naltirildi. Bu – 2017 yilga nisbatan

qariyb 6 barobar ko‘p, degani. Olimlarning ish haqi ham 4,5 barobar oshirildi. Bularning barchasi hisobidan nano va biotexnologiyalar, raqamlı geologiya kabi 18 ta yangi ilmiy yo‘nalish tashkil etildi<sup>13</sup>.

Shuningdek, Markaziy bank ochiq bozordagi operatsiyalar muomaladagi pul massasini boshqarish, bank tizimi likvidligini tartibga solish va foiz stavkalari barqarorligini ta’minlovchi asosiy instrumentlardan biri sifatida muntazam ravishda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan pul-kredit ko‘rsatkichlarining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda, to‘lov balansining ijobiy saldosi hisobiga shakllangan qo‘sishma likvidlikni sterilizatsiya qilish operatsiyalari o‘tkazilib borilmoqda.

Ma’lumki xalqaro amaliyotda banklarni boshqarishga oid bir necha yondashuv va talablar qabul qilingan bo‘lib, ular respublika tijorat banklari tomonidan keng qo‘llanilmoqda. Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi faoliyatini alohida ta’kidlash zarur. U jaxonda banklar faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi yagona standartlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan 2010 yil 26 noyabrda qabul qilingan “2011–2015 yillarda Respublika moliya–bank tizimini yanada isloq qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan, respublikamiz bank tizimiga Bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalarini joriy etish, tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash tizimini yanada takomillashtirish talab etildi.

Bazel 3 tavsiyalariga binoan banklar likvidligini baxolash tizimiga quyidagi ikkita talab kiritildi.

1.Banklarning 30 kunga bo‘lgan joriy majburiyatlarining likvid aktivlar bilan 100 foiz qoplanishi zarurligi;

2.Uzoq muddatli likvidlik me’yoriga qo‘sishma sifatida banklarning bir yilgacha bo‘lgan aktivlari barqaror passivlari bilan 100 foizgacha ta’miinlangan bo‘lishi shart qilib qo‘yildi. Moliya bozorlarida keskin raqobat kuchayoyatgan bir

---

<sup>13</sup> <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

paytda risk menejmentini, bank aktivlari bilan bog‘liq bo‘lgan risk darajasini aniq o‘lchash, zamoanaviy boshqarish usullarini qo‘llash katta ahamiyatga ega.

Tijorat banklari menejmentida muqobil bank strategiyasini ishlab chiqishda asosiy e’tibor tashqi muhitni o‘rganish, jahondagi va mamlakat ichkarisidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va texnikaviy omillardagi o‘zgarishlarni kuzatish va e’tirof etish zarur. Ikkinchi bosqichda tijorat banklarining ichki resurslari, imkoniyatlari va potensiali tahlil etilib bankning afzalliklari va zaif jihatlari aniqlanadi va keyinchalik bankning rivojlanish va raqobat strategiyasi qabul qilinadi. Shu tufayli biz O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning barqarorligini ta’minlashda xalqaro bank boshqaruv tamoyillaridan foydalanishning zamonaviy holati va uni takomillashtirish imkoniyatlarini o‘rganib, bank moliyaviy barqarorligini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning turlariga tavsiflar keltirmoqchimiz.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi moliya bozorida, shu jumladan, bank infratuzilmasining tobora kengayib va takomillashib borayotganligi, o‘z navbatida, bank xizmatlari bozorida raqobat muhitining va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining yanada yaxshilanishiga hamda aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasining oshishiga xizmat qilmokda.

Bank faoliyatida diversifikatsiyalash va bank boshqaruvi hamda uning strategiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlardan ham keng foydalanish talab etiladi.

Bugun O‘zbekistondagi ijtimoiy xayotning barcha jabhalarida o‘tkazilayotgan tub o‘zgarishlar o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarildi. Yana shuni ta’kidlab o‘tish mumkinki, bozor munosabatlari sharoitida Markaziy bank tijorat banklarining likvidlik darjasini yuqori o‘rganilgan talab darajasida bo‘lishini nazorat qiladi, ammo bizning fikrimizcha, xizmatlarning daromadliligiga ham e’tibor berish zarur.

Bundan tashqari, bank xizmatlari yuqori daromad olishni emas, balki uning mijozlar oldidagi, qolaversa jamiyat oldidagi reputatsiyasini yanada oshirish maqsadida amalga oshirilishi ham mumkin. Mazkur vazifa hozirgi kunda bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda iqtisodiy

o'sishga erishishning bir qator nazariy asoslari mavjud bo'lib, ular orasida eng asosiyalaridan biri bank tizimini rivojlantirishdir. Banklar filiallari va bo'limlari sonini ko'payishi raqobatning kuchayishidan dalolat beradi. Shu vazifalarni bajarish nuqtai nazaridan bank operatsiyalarini va xizmatlarini boshqarish funksiyalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ular quyidagilardan iborat:

- 1.Uzoq muddatli xizmatlarini boshqarish strategiyasini bozor talablarini va o'z potensialini hisobga olgan holda rejalashtirish;
- 2.Talab asosida yangi xizmatlarni joriy kilish va ularni sotish;
- 3.Bankning operatsiyalarini (aktiv va passivlarini) boshqarishni tashkil qilish va uning ustidan nazorat o'rnatish. Balansdan tashqari bo'lgan operatsiyalarni joriy etish uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish;
- 4.Bozorni va mijozlarning hatti -harakatini segmentlarga bo'lgan holda o'rganish va istiqbolini belgilashdir.

Tijorat banklari xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari bor. Ular mijozlarga tijorat bank xizmatlarini ko'rsatish, bo'sh mablag'larni daromadliligi turlicha darajada bo'lgan investitsion portfellarga ajratish va moliyalashtirish, banklarning moliyaviy vositachi sifatidagi rolini saqlab qolish va faollashtirish, kelajakda kontrakt banklar sifatida mijozlarga "bitta oynadan" xizmatlarni amalga oshirish, investitsion portfeli operativ boshqarish, qimmatli qog'ozlar bozorini avj oldirishga xizmat ko'rsatish, jahon moliyaviy bozorlariga integratsiyalashuvi, banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirish. Ayniqsa tashqi muhitning tez o'zgarishi natijasida bank riski darajasining o'sishi, foiz stavkasida yangi strategiyani joriy etishni talab etadi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda davlat aktivlarini xususiylashtirish, avvalo, chet ellik investorlarga sotish vazifalari qo'yildi va buning uchun tegishli sharoitlar yaratildi. Ushbu yo'naliishlarda amalga oshirilgan ishlar samarasini banklarda joriy etilgan Baholash tizimida qayd etilgan "depozitlar hajmining o'zgarishi", "kredit qo'yilmalari hajmining o'zgarishi", "aholi omonatlari hajmining o'zgarishi" va "uzoq muddatli kreditlar ulushi" indikatorlarida ham ko'rish mumkin.

Qisqacha qilib aytganda bank operatsiyalarini va xizmatlarini boshqarish quyidagi vazifalarni xal qilishga e'tiborni qaratadi:

1. Bank operatsiyalarini amal kilayotgan va potensial bozorlarini o'rnatish.
2. Aniq bozorlarni tanlash va buyurtmachi extiyojini qondirish
3. Amal kilayotgan operatsiyalarning rivojlantirilishi uchun uzoq va kiska muddatli maqsadlarni belgilash
4. Amaliyotga yangi operatsiyalarnig turlarini qo'llash va uning bajarilishi ustidan bank nazoratini o'rnatish. Bank operatsiyalari va ularning potensial iste'molchilar bozorini o'rganish uchun banklar sanoat aktiv va passivlarini boshqarishning an'anaviy usullaridan biri bo'lgan segmentatsiya usullaridan foydalanadilar.

Bank bozor segmentatsiyasini ikki tamoyilga ko'ra amalga oshirish mumkin.

- Bank mahsulotlari bo'yicha (kredit operatsiyalari, investitsiya, trast operatsiyalari bozorlari )
- Mijozlar bo'yicha (kuchmas mulk egalari, korporatsiya bozori, davlat xukumati bozori).

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, jahon bank tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, MDX mamlakatlari bank tizimiga ham tobora ko'prok ta'sir ko'rsatayotir. Bular birinchidan, bu o'zgarishlar tulovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobi bilan bog'liq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy xarajatlar talab kiladi, bank ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va uning tezkorligi oshadi, bu esa xarajatlar o'sishini koplaydi.

Ikkinchidan, bank ishida o'sib borayotgan raqobat banklarning qo'shilib ketishiga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltirishi mumkin. O'zbekistonning bank tizimi unda mavjud bo'lgan kichik banklar hisobiga, yakin vaqt ichida bu ta'moyilning ta'sirini boshdan kechiradi. Bu o'zgarishga respublika bank xizmati bozorida

anchagina raqobatbardosh va samarali bo‘lgan chet el banklarining paydo bo‘lishi ham yordam beradi.

Uchinchidan, bu an’anaviy bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. Jumladan, aholiga kredit kartochkalari bilan xizmat ko‘rsatish sohasida turli hildagi tijorat tuzilmalari faoliyat ko‘rsata boshlaydilar.

To‘rtinchidan, bank ishlariga bu xizmatlarning ko‘p sonli iste’molchilari ta’siri ortadi. Iste’molchi operatsiyalarining tezligi va sifati, hisob-kitoblarning kulayligi, mijozlarning extiyojlariga dikkat e’tibor karatilishiga nisbatan banklarga tobora kattik talablar qo‘ya boshlaydi. Bank tizimi xozir xal qilinishi qiyin bo‘lgan dilemmaning keskinlashuvi sharoitida turibdi. Ko‘yilmalarni jalb qilishda banklar ekspansiyasi va omonatchilarni zararlardan kafolatlash o‘rtasida asosiy muvozanatsizlik mavjud. Kafolatlar moliya institutlariga qo‘srimcha qo‘yilmalarni jalb qilish imkonini beradi. Ko‘yilmalar faoliyatining omonatchilar tomonidan boshqarilmasligi esa, banklarga bu quyimalardan foydalanishda keng imkon yaratib beradi. Bu ikki omilning o‘zaro uyg‘unligi kreditlash hajmlarining o‘sishi uchun sharoit yaratadi. Biroq bu boshqarilmaslik g‘oyasining kuchayishi bilan xavf-xatar va kompensatsiya o‘rtasidagi muvozanatsizlik ortadi. Shuning uchun ham bank tizimini rivojlantirish va boshqarishga nisbatan samarali siyosat olib borish zarur.

Yuqoridagilarga ko‘srimcha ravishda aytish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi zarur jamoatchilik muassasalari tizimi ekan, har qanday bankning butun bank tizimiga ishonchni susaytiruvchi muvaffaqiyatsizligi butun jamiyat mikyosida pul taklifining qisqarishi, to‘lov tizimining buzilishi hamda hukumatning juda yirik va kutilmagan majburiyatlarining vujudga kelishi kabi salbiy makroiqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi paytda respublikamizda pul-kredit orqali tartibga solishning ochiq bozordagi operatsiyalar usuli tobora taraqqiy etib bormoqda. Markaziy bankning ushbu operatsiyalari asosan davlatning qimmatli qog‘ozlarini sotish va sotib olish ko‘rinishida amalga oshirilmoqda. Natijada tijorat banklarida kapitallashuv darajasi

oshib, risk darajasi pasayib, iqtisodiyotning real sektoriga beriladgan kreditlar hajmi yildan yilga oshib bormoqda.

Moliyaviy zaifliklar xaritasi 2023 yilda uy xo‘jaliklari, ko‘chmas mulk bozori va bank tizimining likvidlilik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq zaifliklar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Uy xo‘jaliklari sektorida kredit faolligi sezilarli darajada ortgan. Ipoteka va chakana kreditlar bo‘yicha qarz yuki darajasining ortishi hamda ko‘chmas mulk bozorida xatarlarning to‘planib borishi moliya tizimi barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, moliya tizimi ishtirokchilarining ehtimoliy shoklarga bardoshliligini pasaytiradi. Ko‘chmas mulk bozori bilan bog‘liq xavotirlar darajasi oshmoqda. Ko‘chmas mulk bozorida uy-joylarning real narxlarida davomiy o‘sish sur’atlari, uy-joy narxlarining aholi ixtiyoridagi daromadlarga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sishi uy-joylar bozor narxlarining fundamental qiymatidan yuqori baholanishini yuzaga keltirmoqda. Ushbu holatning o‘rta muddatda doimiy davom etishi ma'lum davrdan so‘ng iqtisodiy siklning pasayishi sharoitida uyjoy narxlarining keskin tushib ketishi xatarlarini kuchaytirib, ipoteka kreditlari bo‘yicha yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Aholining ipoteka kreditlari bo‘yicha qarz yuki oshib, ajratilgan ipoteka kreditlari bo‘yicha qarzga xizmat ko‘rsatish nisbati hamda leveraj ko‘rsatkichlari o‘sish tendentsiyasini namoyon etmoqda. Aholining ipoteka krediti bo‘yicha qarz yuki darajasining doimiy yuqorilashi ushbu qarzdorlarning daromad va boshqa shoklarga nisbatan zaiflikning ortishi bo‘yicha xatarlarini yuzaga keltiradi.

Likvidlilik bo‘yicha aktivlar sifatining biroz yomonlashishi kuzatildi. Yuqori likvidli aktivlar miqdoridagi o‘zgarishlar banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar, shuningdek Markaziy bankdagi majburiy zaxiralarsiz mablag‘lar miqdoridagi kamayishlar ta’sirida yuzaga keldi. Bunda, jami bank aktivlari tarkibida yuqori likvidli aktivlar ulushining kamayishi bank majburiyatlarining o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlashda qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Xalqaro moliya bozorlaridagi o‘zgarishlar sabibli banklarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar ehtimoli oshmoqda. Tijorat banklarida chet el valyutasidagi talablar va majburiyatlar miqdori o‘rtasidagi farqning ortishi hisobiga sof ochiq valyuta

mavqeida o'sish kuzatildi. Bu esa, valyuta kurslarining keskin o'zgarishi sharoitida bevosita bank yo'qotishlari miqdorining ortishi mumkin.

Bugungi kunda "moliyaviy xizmatlar tarkibida, bevosita bank xizmatlarining ulushi 88 foizga yetib, bu ko'rsatkich ham o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2 barobardan ziyodga oshdi. Bu esa, aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlariga zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish sifati va ko'lамини kengaytirish borasida ko'rileyotgan maqsadli chora-tadbirlarning samarasidir"<sup>14</sup>.

Bank biznesi tadqiqotlari bo'yicha yetakchi tashkilot IBIS World ning ma'lumotlari bo'yicha biznesning muvaffaqiyatli bo'lishiga 250 ta asosiy omillar ta'sir qilar ekan. Jumladan tijorat banki biznesi uchun ulardan eng ahamiyatlilari bankning yuqori reputatsiyasi, qo'shma marketing va taqsimlash kanallariga a'zo bo'lish hamda oqilona super moliyaviy va qarzlar menejmenti hisoblanadi.<sup>15</sup>

Tijorat bankilarda strategik rivojlantirish borasida alohida bo'linmalar tashkil etish zarur. Bank boshqaruvida uning likvidliligi va daromadligining optimal darajada bo'lishini ta'minlash, kredit qo'yilmalari tarkibida uzoq muddatli kreditlar salmog'ini oshirish, aktivlar tuzilishini takomillashtirib borish, pul oqimlari, kreditga mijozlarning layoqatlilik darajasi, likvidliligi, asosiy moliyaviy natijalari ustidan tezkor kuzatuvni tashkil qilish uslubiyatini shakllantirish talab etiladi.

### **1.3. Tijorat banklari barqarorligini boshqarishning innovatsion yo'llari**

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bank sektoridagi tadbirkorlik ham umumnazariy zamonaviy ishlab chiqarish nazariyasi bilan chambarchas bog'liq. Uning mohiyati shundan iboratki (M.Porter, P.Samuelson), firma yoki korxonalarning iqtisodiy natijalarini asosan bozor tuzilmasi, uning iqtisodiy munosabatlari va aloqalari ifodalab beradi. Boshqacha qilib aytganda, firma yoxud korxona natijalari ichki omillardan ko'ra ko'proq tashqi omillarga bog'liq.


---

<sup>14</sup> Ўша ерда

<sup>15</sup> <http://www.ibisworld.com/industry-trends...>

Zamonaviy mikroiqtisodiy talqinlar firma nazariyasidan farqli o‘laroq, korxona, tashkilot yoki muassasaning natijaviy ko‘rsatkichlari bozor tuzilishiga, undagi ishlab chiqarish munosabatlariga bog‘liqdir. Bozor tuzilmasi tushunchasi tarmoqdagi ishlab chiqarish korxonalarining soni, katta-kichikligi, mahsulot turlari va xilma-xilligi, raqobat muhiti, bozor konsentratsiyasi darajasi, mahsulot differensiatsiyasi, diversifikatsiyasi va hokazolar bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan bank biznesi va tadbirkorligini boshqarishga yangicha yondashishda “Makkenzi” kompaniyasining “7S” modelini qo’llash katta samara beradi ( 1.3.2-rasm).



**1.3.2-rasm. Tijorat banklarini zamonaviy boshqaruв modeli va unsurlari.<sup>16</sup>**

Muallif tomonidan tadqiqot olib borish jarayonida tijorat banklarining faoliyati va ularning biznesdagi ahamiyati haqida Toshkent shahridagi 71 ta kichik korxona rahbarlari va xususiy tadbirkorlar orasida so‘rovnoma o‘tkazilgan. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra korxonalar rahbariyati barcha ishlab chiqarish resurslarini quyidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlaganliklari aniqlandi.(1.3.1-jadval.)

### 1.3.1- jadval

---

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi

## Korxona rahbarlarining bank faoliyatini baholashi<sup>17</sup>

Baho	%
Jahon standartlariga mos keladi	0,9
Jahon standartlariga muvofiq kelmaydi	48,2
Jahon standartlaridan orqada	41,4
Bank balansidan tashqaridagi operatsiyalar yoki faoliyat	4,4
Javob berishga qiynalaman	5,1

Korxona ishlab chiqarish imkoniyatlari (quvvati) mobilligini qaysi omillar ta'minlaydi?

- mehnat resurslari - so‘ralganlarning 9 foizga yaqini (rahbarlarning 9 foizga yaqini ularni zaif tomon deb hisoblaydi);
- ishlab chiqarish infratuzilmasi – binolar, yo‘llar, kommunikatsiya (rahbarlarning 72 foizga yaqini yangi texnologiyalarga o‘tish kadrlar tarkibini jiddiy qayta tayyorlashni talab qiladi, deb hisoblaydi va faqat 28 foizi ishlab turgan uskunalarda sifatli mahsulot ishlab chiqarish mumkinligini inkor qilmaydi);
- tijorat banklari xizmatlari (so‘ralganlarning 45,8 foizi mavjud pozitsiya bilan qoniqadi).

Bozor pozitsiyasini baholashda korxona rahbarlari ishlab chiqariladigan mahsulotlarini ularning to‘lov imkoniyatiga, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish tizimi va mamlakatdagi narx siyosatiga alohida e’tibor qaratishi zarurligini ta’kidlab o‘tganlar.(1.3.1-jadval).

Rahbarlarning 70 foizga yaqini mavjud boshqaruv tizimi boshqaruvchilik qarorlarini tez qabul qilishga imkon beradi, deb faraz qiladi. Bundan kelib chiqib menejmentning funksional jihatlaridan eng ustuvor sohalar ajratilgan. Ya’ni rejallashtirish, tashkil qilish, nazorat va muvofiqlashtirish.


Rahbarlar asosiy salohiyatni (maqsadlar aniq, lekin imkoniyatlar kam); menejmentning shakllantirilgan tizimini (biznes-jarayonlarining optimallashtirilishi

---

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi.

va takomillashtirilishi); har xil yo‘nalishlar bo‘yicha menejment sifatini takomillashtirishni; menejmentning etalonli tizimini (boshqaruvchilik faoliyatining hamma yo‘nalishlari bo‘yicha maksimal natijalar) tavsiya etadilar.

Banklarning biznes-jarayonlar asosida boshqarishning funksional modelini qurish sharoitida korxona darajalari o‘rtasida boshqaruv funksiyalarini berish muammosi yuzaga chiqishi mumkin. Ushbu muammolar yechimi kompaniya maqsadlari va biznes-birliklarning funksional vakolatlarini integratsiyalash jarayonida yoki funksional bo‘linmalarining o‘zaro harakati yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin (1.3.4-rasm).



### **1.3.4- rasm. Bank tuzilmalariga balansli yondashuvning sxemasi<sup>18</sup>.**

Bank tizimidagi strategiyalar ierarxiyasining umumiy xususiyatlarini beshta ko‘rsatkich asosida tasniflash mumkin: miqyosi, maqsad va vazifasi, resurslar taqsimoti, raqobat ustunligi, sinergizm.

I.Ansoff bozorlar ko‘rinishi va tovarlarning turiga ko‘ra asosiy to‘rtta strategiyani ko‘rsatadi va banklarda ham ularni qo‘llash yaxshi samara beradi: bozorga chuqurroq kirib borish; bozor chegaralarini kengaytirish; yangi tovar ishlab chiqarish va diversifikatsiyalash<sup>19</sup>. BKG<sup>20</sup> (Boston Konsalting Guruhi) ning “o‘sish-bozor ulushi” matritsasi asosida: hujum, mudofaa va chekinish strategiyalarini qo‘llash mumkin.

Hujum strategiyasi – bunda raqobat strategiyasi bo‘lib, u bozor da’vogari tomonidan sotuv bozorlarini egallash kurashida qo‘llaniladi.

<sup>18</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>19</sup> Ансофф И. Стратегическое управление / Пер.с.анг. М.: Экономика, 1989. С.186.

<sup>20</sup> Бостон консалтинг гурухи.

Front bo‘yicha hujum – bu raqobatchi korxonaning kuchsiz tomonlaridan ko‘ra kuchli tomonlaridan ustun kelish bo‘yicha faol harakatlar orqali uning pozitsiyasiga (mahsulotlar, reklama, narxlar va boshqalar bo‘yicha) hujum qilish tushuniladi. Uni amalga oshirish uchun korxona raqobatchiga nisbatan ko‘p resurslarga hamda uzoq muddatga “jang harakatlari” ni olib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Qanot hujumi – bu raqobatchilar faoliyatining kuchsiz joylariga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu joylarda ustunlikka erishish uchun asosiy kuchlar tashlanadi; u shunga asoslanganki, raqobatchi ko‘pincha o‘z resurslarini eng kuchli pozitsiyalarni saqlab qolish uchun yo‘naltiradi. Masalan, sifati bo‘yicha peshqadamlik (liderlik) pozitsiyasini saqlab turish mumkin, ayni vaqtida esa o‘z faoliyatida kuchsiz joylarga ega bo‘lishi mumkin (masalan, vositachilar bilan ishslashga uncha ahamiyat berishmaydi). Ushbu strategiya bozor da‘vogari raqobatchiga nisbatan kam resurslarga ega bo‘lganda, yaxshi natija berishi mumkin. U, ko‘pincha kutilmaganda raqobatchilarga qarshi ishlatiladi. Hujum strategiyasini qo‘llash natijasida firma bozorda o‘z ulushini oshirishga harakat qiladi. Bundan maqsad tajriba samarasini keng qo‘llash hisobiga rentabellikni oshirishdir.

Mudofa strategiyasi – bu bozor liderining strategiyasi bo‘lib, u orqali korxona bozorda raqobat kurashida qo‘lga kiritgan yutuqlarni, pozitsiyalarini, masalan, bozorda katta ulushga ega bo‘lish, mahsulot markasining obro‘sini ko‘tarish, tovar harakati kanallari ustidan nazoratni saqlab qolishga intiladi. Mudofaa strategiyasining quyidagi turlari mavjud: pozitsiyali mudofaa, qanot mudofaasi, qayta hujumga o‘tish yo‘li bilan mudofaa, mobil mudofaa va qisilib kelayotgan mudofaa.


M.Porter ixtisoslashishni tanlash bilan bog‘liq raqobatlashuv ustunliklarini strategiyaning uch turiga, ya’ni xarajat/hajm strategiyasi; differensiatsiya strategiyasi va ixtisoslashuv strategiyasiga ajratgan.

Bank tizimini tahlil qilish va uning jozibadorlik darajasini aniqlashda qo‘llaniladigan yana bir uslub, avval aytib o‘tganimizdek, bu M.Porterning “Besh raqobat kuchi” modelidir. M.Porterning<sup>21</sup> harakatlantiruvchi besh raqobat kuchi, ya’ni tarmoq ichidagi raqobatchi, doimiy raqobatchilar, ta’minotchilar, iste’molchilar va

---

<sup>21</sup> Porter M. How competitive forces shapt strategy. Comprative Economics, Vol. 5, 1980, pp. 141-159.

o‘rnbosar mahsulotlar tomonidan keluvchi xavflarni tadqiq qilish korxonaga ushbu tarmoqqa kirib borish yoki unda qolish uchun yetarli darajada jozibadorligini aniqlash hamda strategik marketing qarorlarini shakllantirish imkonini beradi.



### 1.3.5 - rasm. Bank sektorining jozibadorligini aniqlovchi asosiy kuchlar<sup>22</sup>.

M.Porter tomonidan keltirilgan besh raqobat kuchi modelining uchinchi kuchi – bu ta'minotchi, ya'ni markaziy bankdir.

Bank mijozlarining bozor hukmronligi raqobat kuchining to‘rtinchisi tarmoq iste’molchilari narxlarni tushirishni, mahsulotlar sifatini oshirish va qo‘sishimcha xizmatlar ko‘rsatishni doimiy ravishda talab etish orqali tarmoq ichidagi raqobatning kuchayishiga olib kelishlari mumkinlidir. Mijozlarning bozor hukmdorlik darajasini quyidagilar belgilaydi:

- bir nechta yirik mijozlar (korxonalar) bankning kredit hajminining katta ulushini ta’minlashi;
- ta’minotchilarni o‘zgartirish xarajatlari, mijozlarning bozor hukmronlik darajasini pasaytirishi.

Bank xizmatlari ko‘lami va xodimlarning tajribasi oshishi natijasida vaqt bo‘yicha operatsiyalarning ortishiga mutanosib ravishda xarajatlar darjasini pasayadi.

Bank tadbirkorligida kompetentlik yadrosi muhim ahamiyatga ega. Kompetentlik yadrosi deb asosiy ko‘nikma yoki qobiliyatga aytildi va u biznesni yuritish uchun chegara hamda asos, yangi biznesni rivojlantirish uchun esa yuritgich bo‘ladi. (1.3.2-jadval).

<sup>22</sup> Muallif ishlanmasi.

Banklarda strategik biznes birliklarini aniqlash yoki differensiyalash mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- narxlar, foiz stavkalari mustaqil ravishda o‘zgarishi mumkin;
- mijozlar va raqobatdosh mahsulot hamda xizmatlar turlari har xil;
- mahsulot yoki xizmatlar turli sifat darajalariga ega va ular bir-birining o‘rnini bosa olmaydi;
- bankda xizmat turini o‘zgartirish boshqa xizmatlarga kuchli zarar yetkazishi mumkin.

### 1.3.2- jadval

#### **Milliy bank Bosh boshqarmasining Toshkent shahridagi filialining strategik biznes birligi va kompetentlik yadrosini taqqoslash ma’lumoti<sup>23</sup>**

Tavsifnoma	Strategik biznes birligi (SBB)	Kompetentlik yadrosi
Bank nuqtai nazaridan	Yangi xizmatlar turini yaratish va bozor segmentini egallash	Innovatsion faoliyatni amalga oshirish
Raqobat asosi	Bugungi bozor ulushi	Bozor yetakchiligi
Korporativ tuzilma	Diskret bizneslar portfeli	Kompetentlikni diversifikatsiyalash
Strategik biznes birligi statusi	Faol harakat natijasida barcha maqsadlarga erishish	Yaratuvchi manbalar zaxirasi
Resurslarni taqsimlash	SBB orasida kapitalni taqsimlash natijasida investitsiya oqimini optimallashtiradi	Istiqlolni ta’minlash uchun kompetentlikni kuchaytirish va innovatsiya

Bank kompetentlik yadrosining strategik arxitekturasini quyidagicha tavsiflash mumkin bo‘ladi:

---

<sup>23</sup> Porter M. How competitive forces shapt strategy. Comprative Economics, Vol. 5, 1980, pp. 141-159 асосида муаллиф ишланмаси.

- qanday turdag'i kompetentlik yadrosini tuzishni ifodalovchi “yo‘l xaritasini” tanlash;
- resurslarni taqsimlashni butun bank bo‘yicha shaffof qilish;
- tijorat bankining Strategik biznes birliklari (SBB) orasida texnikaviy va faoliyatidagi aloqalarini yaxshilash orqali uning raqobatbardosh ustuvorligini ta’minlash;
- mijozlar va boshqa tashkilotlar, bo‘linmalar bilan oraliq qadamlarni tark etmagan holda muloqot qilish vositasining yaxshilanishi.

Tijorat bankining kompetentlik yadrosini yaratish uchun esa tijorat banklarida yuqori zamonaviy menejment usullarini qo‘llash talab etiladi.

Bu o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- kelajakni oldindan ko‘ra bilish;
- kerakli kompetentlikni belgilash;
- barqaror, doimiy rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash;
- kompetentlikni yaratuvchi va ta’minlovchi insonlarni belgilash;
- inson va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi, jumladan, tijorat banklari, xalqaro banklar tajribasidan kelib chiqib o‘z faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimidan keng foydalanmoqdalar.

2017 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, bank hisob varaqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 1261 mingtani, shundan «Internet-banking» va «Bank-mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar 101,5 mingtani, «Mobil-banking» va «SMS-banking» xizmatlaridan foydalanuvchilar 979,5 mingtani tashkil etib, ularning soni 2014 yilga nisbatan 2,4 barobarga ko‘paydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilning 11 oyi davomida muomaladagi bank kartalari soni joriy yilning 1 dekabr holatiga ko‘ra 6,4 million donaga oshgan va 33,5 millionga etgan yoki nisbiy jihatdan +23,8% ga oshgan.

Shunday qilib, O‘zbekistonning 31 ta amaldagi tijorat banklari muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari soni quyidagicha bo‘ldi:

1	Xalq banki	6 872 821	20,5%
2	Agrobank	3 893 321	11,6%
3	Ipoteka bank	3 100 767	9,2%
4	Milliy bank	3 029 344	9,0%
5	Ipak Yo'li banki	2 048 234	6,1%
6	O'zsanoatqurilishbanki	1 941 839	5,8%
7	Hamkorbank	1 534 726	4,6%
8	Aloqabank	1 267 477	3,8%
9	Asaka bank	1 119 762	3,3%
10	Anor bank	1 111 400	3,3%
11	Mikrokreditbank	1 108 321	3,3%
12	Ravnaq bank	847 638	2,5%
13	TBC bank	715 490	2,1%
14	Turonbank	647 104	1,9%
15	Kapitalbank	641 563	1,9%
16	Qishloq qurilish bank	598 337	1,8%
17	Orient Finance bank	572 939	1,7%
18	Invest Finance bank	572 319	1,7%
19	Trastbank	395 876	1,2%
20	Asia Alliance bank	355 627	1,1%
21	Davr bank	331 794	1,0%
22	Garant bank	317 398	0,9%
23	Universalbank	263 066	0,8%
24	Tenge bank	82 291	0,2%
25	Ziraat Bank Uzbekistan	75 262	0,2%
26	KDB Bank Uzbekistan	73 554	0,2%
27	Poytaxt bank	18 105	0,1%
28	Madad Invest bank	10 635	0,0%
29	Soderot bank Toshkent	1 515	0,0%
30	O'zagroeksportbank	1 388	0,0%
31	Bank Apelsin	0	0,0%

Shu bilan birga, o'rnatilgan to'lov terminallari soni bo'yicha O'zbekiston tijorat banklari quyidagi o'rnlarda turadi:

1	Xalq bank	49 265	11,5%
2	Agrobank	41 016	9,6%
3	Ipoteka bank	40 613	9,5%
4	Milliy bank	40 465	9,4%
5	O'zsanoatqurilishbanki	33 751	7,9%
6	Hamkorbank	31 967	7,4%
7	Mikrokreditbank	23 816	5,5%
8	Ipak Yo'li banki	23 762	5,5%
9	Qishloq qurilish bank	17 192	4,0%
10	Asaka bank	15 829	3,7%
11	Turonbank	14 470	3,4%
12	Aloqabank	13 454	3,1%
13	Kapitalbank	13 359	3,1%
14	Invest Finance bank	11 967	2,8%
15	Trastbank	11 894	2,8%
16	Orient Finance bank	9 580	2,2%

17	Garant bank	8 917	2,1%
18	Asia Alliance bank	7 822	1,8%
19	Davr bank	7 433	1,7%
20	Universalbank	6 859	1,6%
21	Tenge bank	1 147	0,3%
22	Ravnaq bank	1 077	0,3%
23	Anor bank	1 062	0,2%
24	KDB Bank Ubekistan	892	0,2%
25	Ziraat Bank Uzbekistan	693	0,2%
26	Poytaxt bank	404	0,1%
27	Madad Invest Bank	355	0,1%
28	TBC bank	33	0,0%
29	O'zagroeksportbank	33	0,0%
30	Soderot bank Toshkent	29	0,0%
31	Bank Apelsin	0	0,0%

Bundan tashqari, joriy yilning 1 dekabr holatiga o'rnatilgan bankomatlar va axborot kiosklari soni bo'yicha O'zbekistondagi tijorat banklari quyidagi ko'rinishga ega:

1	To'lov tashkilotlari	6 441	31,7%
2	Xalq bank	2 204	10,9%
3	Agrobank	2 107	10,4%
4	Kapitalbank	2 100	10,3%
5	Milliy bank	736	3,6%
6	Hamkorbank	711	3,5%
7	Ipoteka bank	600	3,0%
8	Ipak Yo'li banki	578	2,8%
9	Mikrokreditbank	537	2,6%
10	Markaiy bank	500	2,5%
11	Invest Finance bank	480	2,4%
12	O'zsanoatqurilishbanki	475	2,3%
13	Turonbank	440	2,2%
14	Qishloq qurilish bank	339	1,7%
15	Trastbank	296	1,5%
16	Asia Alliance bank	279	1,4%
17	Aloqabank	272	1,3%
18	Garant bank	247	1,2%
19	Orient Finance bank	236	1,2%
20	Asaka bank	210	1,0%
21	Universalbank	176	0,9%
22	Tenge bank	124	0,6%
23	Davr bank	75	0,4%
24	Ravnaq bank	54	0,3%
25	Poytaxt bank	37	0,2%
26	Madad Invest bank	11	0,1%
27	KDB Bank Ubekistan	9	0,0%
28	Ziraat Bank Uzbekistan	9	0,0%

29	O'zagroeksportbank	7	0,0%
30	Soderot bank Toshkent	1	0,0%
31	Anor bank	0	0,0%
32	TBC bank	0	0,0%
33	Bank Apelsin	0	0,0%

2022-yilning yanvar-noyabr oylari davomida to‘lov terminallari orqali tushgan pul mablag’lari tushumlari miqdori bo‘yicha O‘zbekiston tijorat banklari quyidagicha bo‘ldi (million so‘mda):

1	Aloqabank	35 953 180	22,7%
2	Ipoteka bank	11 763 127	7,4%
3	Milliy bank	9 703 978	6,1%
4	Xalq bank	9 594 861	6,1%
5	Kapitalbank	7 934 784	5,0%
6	Hankorbank	7 262 260	4,6%
7	O’zsanoatqurilishbanki	7 079 544	4,5%
8	Agrobank	6 706 265	4,2%
9	Trastbank	6 503 427	4,1%
10	Mikrokreditbank	6 087 204	3,8%
11	Ipak Yo’li banki	5 963 610	3,8%
12	Universalbank	5 558 621	3,5%
13	Asaka bank	5 286 240	3,3%
14	Asia Alliance bank	5 205 536	3,3%
15	Turonbank	4 023 904	2,5%
16	Orient Finance bank	4 015 840	2,5%
17	Invest Finance bank	3 992 435	2,5%
18	Qishloq qurilish bank	3 893 456	2,5%
19	Davr bank	3 846 435	2,4%
20	Garant bank	1 570 833	1,0%
21	Bank Apelsin	1 568 957	1,0%
22	TBC bank	1 396 944	0,9%
23	Ravnaq bank	1 037 650	0,7%
24	Tenge bank	755 924	0,5%
25	Soderot bank Toshkent	503 047	0,3%
26	Ziraat Bank Uzbekistan	388 170	0,2%
27	KDB Bank Ubekistan	357 301	0,2%
28	Anor bank	252 983	0,2%
29	Poytaxt bank	114 188	0,1%
30	Madad Invest bank	54 946	0,0%
31	Hi-Tech bank	36 195	0,0%
32	Turkistonbank	35 586	0,0%
33	O’zagroeksportbank	10 503	0,0%

Bank plastik kartalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida so‘nggi 5 yil davomida muomalaga

chiqarilgan bank plastik kartalari soni 2,4 barobardan ziyodga oshdi va 2017 yil 1 yanvar holatiga ularning umumiy soni 19,4 mln. donadan ortiqni tashkil etdi (1.3.3-jadval). Demak muamola uchun chiqarilgan to‘lov plastik kartochkalar soni keyingi olti yil ichida 2,3 barobarga ortishi natijasida pulning aylanish tezligi o‘sdi va xizmat ko‘rsatish san’ati yuksaldi.

### **1.3.3- jadval**

Tijorat banklarining kredit va depozitlar to`g`risida 2024-yil 1-fevral holatiga ma'lumot

№	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan	
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
	<b>Jami</b>	<b>469 600</b>	<b>149 894</b>	<b>319 706</b>	<b>242 119</b>	<b>83 590</b>	<b>158 530</b>
	<b>Davlat ulushi mavjud banklar</b>	<b>329 591</b>	<b>76 788</b>	<b>252 803</b>	<b>125 111</b>	<b>35 974</b>	<b>89 137</b>
1	O‘zmilliybank	97 672	14 161	83 510	31 544	9 615	21 930
2	O‘zsanoatqurilishbank	56 746	7 837	48 910	14 880	3 914	10 966
3	Agrobank	54 350	9 681	44 669	14 956	6 995	7 961
4	Asaka bank	38 678	7 978	30 701	15 904	4 056	11 848
5	Xalq banki	24 314	15 750	8 564	17 853	3 328	14 525
6	Biznesni rivojlantirish banki	21 529	10 619	10 910	9 072	1 659	7 413
7	Mikrokreditbank	14 260	5 232	9 028	6 286	1 640	4 646
8	Turon bank	11 815	2 526	9 289	4 888	1 572	3 316
9	Aloqa bank	10 150	2 979	7 171	9 679	3 190	6 489
10	Poytaxt bank	77	27	50	49	7	42
	<b>Boshqa banklar</b>	<b>140 009</b>	<b>73 106</b>	<b>66 903</b>	<b>117 008</b>	<b>47 616</b>	<b>69 392</b>
11	Ipoteka-bank	37 893	21 856	16 037	16 924	3 576	13 347
12	Kapital bank	26 910	19 127	7 784	30 964	16 184	14 780
13	Hamkorbank	16 009	7 021	8 987	7 981	4 372	3 609
14	Ipak yo‘li bank	12 004	2 535	9 468	7 849	2 570	5 278

15	Orient Finance bank	8 540	3 260	5 280	7 830	2 837	4 992
16	Invest Finance bank	6 429	2 892	3 537	7 394	3 716	3 678
17	Davr bank	5 080	3 644	1 435	2 775	1 065	1 710
18	Trastbank	5 068	2 535	2 533	6 742	1 493	5 249
19	Tenge bank	3 989	1 753	2 235	1 937	1 222	716
20	Tibisi bank	3 970	3 840	130	2 804	2 687	116
21	Asia Alliance bank	3 938	1 406	2 532	5 782	1 603	4 179
22	Anor bank	3 208	2 685	522	3 969	2 967	1 002
23	KDB Bank O'zbekiston	2 683	14	2 669	7 465	614	6 851
24	Ziraat Bank Uzbekistan	1 558	93	1 465	2 090	980	1 109
25	Universal bank	1 207	207	1 000	1 500	740	760
26	Garant bank	892	184	707	1 034	679	356
27	Madad Invest bank	289	18	271	41	26	16
28	Oktobank	147	20	128	1 497	273	1 224
29	Uzum bank	50	0,0	50	10	0,1	10
30	Yangi bank	47	0,0	47	4	1,3	3
31	Hayot bank	36	0,0	36	171	1,6	170
32	Apeks bank	31	2	29	184	0,7	183
33	Eron Soderot bankining ShB	20	13	7	42	1,3	41
34	AVO bank	13	0,4	12	14	0,0	14
35	Smart bank	0,2	0,2	0,0	6	6	0,1

Agar 2010 yilda tijorat banklarining kredit qo'yilmalari atigi 8,6 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa u 2022 yilga kelib 53,4 trillion so'mni tashkil etdi, yoki davralig'ida 6,3 baravarga oshdi.

Bu esa mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiyalash, yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun zamin yaratdi.

Jumladan, natijada tijorat banklarining investitsion kreditlar portfeli anchaga kengaydi. So‘ngi besh yilda bu ko‘rsatkich 3,2 mlrd.so‘mdan 12,2 mlrd.so‘mga yetdi.

Markaziy bank hisobotida ta’kidlaganidek “Tijorat banklari 2016 yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan kredit qo‘yilmalari qoldig‘i 2017 yilning 1 yanvar holatiga nisbatan qariyb 1,3 barobar ko‘payib, joriy yil boshiga kelib 53,4 trln. so‘mdan oshdi, investitsiya maqsadlariga ajratilgan investitsion kreditlari miqdori ham 2015 yilga nisbatan 1,2 marta oshib, 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra 12,2 trln. so‘mni tashkil qildi. Bu esa sanoatda yuqori texnologiyali va zamonaviy bo‘lgan eng muhim ob’ektlar hamda quvvatlarni ishga tushirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash va modernizatsiyalashga xizmat qildi.”<sup>24</sup>

### **Birinchi bob bo‘yicha qisqacha xulosalar**

1. Nazariy jihatdan bank faoliyati, barqarorligini samarali boshqarish va operatsiyalarini rivojlantirishning mohiyati va ahamiyati haqida ko‘pgina tortishuvlar mavjud. Bu qarashlarni umumlashtirish asosida dissertatsiyada zamonaviy tijorat banklarini boshqarishda uning barqarorligini ta’minalash muhimligi va bu sohada jahon tajribasini keng o‘rgangan holda moliyaviy vositachilik funksiyasini kuchaytirish bilan birga bank balansidan tashqari faoliyatlarini ham kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shuningdek kelgusida xorijda “kontrakt bank” deb ataluvchi bank biznesini O‘zbekistonda rivojlantirish muhim samara bergen bo‘lardi.

2. Bank faoliyati va barqarorligini tadbirkorlikning zamonaviy mikroiqtisodiy talqinida boshqarib, uni bozor mexanizmi bilan uzviy ravishda tahlil etilib, iqtisodiy natijalar, resurslardan samarali foydalanish maqsadi bilan yagona tizim shaklida ifodalash zarur. Boshqacha qilib aytganda bankning barqarorligi bozor tuzilishi, bozor mexanizmi va korxonaning natijalari bilan uzviy ravishda hamda dinamik ko‘rinishda boshqarilishi lozim. Bu jarayonda ishlab chiqarish funksiyalari tushunchalari, marjinal xarajat va marjinal daromad kategoriyalari keng foydalanilsa

---

<sup>24</sup> Ўша ерда

bank faoliyatigi tegishli qarorlarni muqobillashtirishga olib keladi. Chunki muqobil qarorlar qabul qilish har bir faoliyatdan olingan marjinal xarajat va marjinal daromadni taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

3.Keyingi yillarda mamlakatimizda pul-kredit mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlari, avvalam bor real sektor korxonalarida multiplikativ samara hosil qilish uchun pul kredit munosabatlarining konseptual strukturaviy asoslari yaratildi va markazlashgan va markazlashmagan moliyaviy resurslarni tizimli taqsimlash, qayta taqsimlash va boshqarish asoslari yaratildi. Ammo bu jarayonlarni tizimli, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga monand ravishda va samarali boshqarish talab etiladi.

4. Pul kredit munosabatlaridagi ijobjiy o‘zgarishlar bilan, afsuski tijorat banklarining bu sohada foydalanmagan imkoniyatlari mavjud. Tijorat banklarining pul kredit mexanizmini yanada takomillashtirish, uning iqtisodiy samarasini oshirish maqsadida kelajakda quyidagilarga e’tiborni kuchaytirish lozim:

1. Majburiy zahiralar normasini pasaytirish ( ortiqcha likvid mablag‘lar zahirasini pasaytirish), pul mablag‘lari ta’minotini kengaytirish (M2 miqdorini oshirish), tijorat banklarining o‘z aktiv va passivlarini boshqarishini yanada erkinlashtirish, fond va moliyaviy bozorlardagi biznes muhitini yaxshilash, bank balansidan tashqari faoliyatlarni kengaytirish, aktivlarni emas balki ko‘proq passivlarni boshqarishga e’tiborni kuchaytirish lozim;

2. So‘m va valyuta kartochkalari orqali bank operatsiyalarini kengaytirish. Mijoz hohishiga binoan bir raqamdan ikkinchi bankdagi raqamga hech qanaqa to‘siqsiz chet el valyutasini o‘tkazishga erishish; moliyaviy munosabatlarda korporativ boshqaruv instrumentini yanada takomillashtirish. Jumladan, davlat va real sektor korxonalari mamlakatimizning ichki aktivlarini sotib olish va sotiishda samarali usullardan foydalanishga o‘tmog‘i lozim.

Statistik ma’lumotlarga binoan mamlakatimizda tijorat banklarida sohadagi raqobatning intensivlashishi natijasida korxonalarning o‘rtacha foyda normasida pasayish tendensiyasi hukmronlik qilmoqda. Bu iqtisodiy foyda normasining oldingi davrlardagi o‘rtacha darajasi normal darajadan yuqori bo‘lsa endi bugungi kunda u

normal darajani tashkil etmoqda va uning miqdori nolga teng. Normal iqtisodiy foyda darajasi korxonalarining alternativ xarajatlarini qoplash uchun yetarli xolos.

## **II.BOB. O`ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGI**

### **HOLATI TAHLILI**

#### **2.1.Tijorat banklarida aktivlar va majburiyatlarini boshqarish usullari**

Banklar faoliyati depozitlarni mijozlardan qabul qilib ularni likvidga va talabga aylantirib uzoq va o‘rta muddatli qarzlarga tranformatsiyalash jarayonidir. Buxgalteriya balansidagi aktivlar va majburiyatlarni muvofiqlashtirishdagi risklarni pasaytirish boshqarish predmetini tashkil etadi. Balansda vujudga keladigan risklar 2 toifada bo‘ladi: defolt riski va depozitlarni talab qilish riski. Majburiyatlarni tijorat banklari daromadli aktivlarga shunday joylashtirishi zarurki natijada defolt riski minimal bo‘lgan holda yetarli miqdorda likvid mablag‘lar bo‘lsin yoki boshqacha qilib aytganda depozitlarni qaytarib olish riskini kamaytirish bank menejmentining asosiy predmetidir. Bankning maqsadi aktivlardan ko‘proq daromad olish va defolt riskini pasaytirish. Bu bir tomondan aktivlar portfelida riski yuqori qarzlar va kam daromadli aktivlar qorishmasi bo‘lishini taqozo etadi. Bankda yetarlicha likvid rezervlar bo‘lishi risk darajasini pasaytiradi.

Aktivlarni boshqarish ikki bosqichdan iborat qaror qabul qilish jarayoni deb qarash mumkin. Birinchi bosqichda kunlik mijozlar bankdan mablag‘larni qaytarib olishi mumkinligini e’tiborga olgan holda xizmatlar sonini aniqlash. Qoldiq aktivlar daromad keltiruvchi mablag‘lar singari qabul qilinadi. Ikkinci bosqichda bank daromad keltiruvchi mablag‘larni past riskli past foyda keltiruvchi schetlar va yuqari foyda keltiruvchi qarzlar turiga ajratiladi. Iqtisodiy iborani qo‘llagan holda bu qaror qabul qilishni bank zahiralar paydo qilishdagi alternativ xarajatlar bilan daromad keltiruvchi mablag‘lardan kutilayotgan foyda farqini kutilmagan bankdan mablag‘ni qaytarib olishni qoplash uchun boshqa manba (Markaziy bank) lardan mablag‘ni jalb uchun sarflanadigan xarajatlarni solishtirishi kerak.

Bank balansini quyidagicha tasvirlash mumkin<sup>25</sup>:

$$L+Z=D, \quad (1)$$

bu yerda L-qarzlar hajmi

---

<sup>25</sup> Kent Mathews and John Tompson. The economics of banking.Third edition.“WILY”, 2014.pp.104-106

Z- bank zahiralari

D- depozit mablag'lar

Ma'lum davr ichida bankda depozitlar oqimida chiqimlar va kirimlar bo'ldi.

Agar chiqimlar miqdori zahiralari miqdoridan kam bo'lsa bank likvidlik muammosiga duch kelmaydi. Aks holda bank likvidlik tanqisligiga uchraydi va unda u qo'shimcha fond (mablag'larni) banklararo bozor yoki Markaziy bankdan jalg qilishga majbur. Zahiralarning alternativ xarajatlari uchun daromad keltiruvchi aktivlar qatoridan joy olmaganligi uchun banklarning ulardan foyda olish imkoniyatidan vos kechganligi bilan ifodalanadi. Agar zahiralarning alternativ qiymatini  $A$  bilan ifodalasak u chZ ga teng bo'ldi. Soddallashtirish uchun zahiralarni yoritish xarajatlari ularning miqdoriga proporsional deb qabul qilsak  $(Z-X) < 0$  zahira tanqisligini anglatadi. Unda  $A = \int_0^t p(x - 3)f(x)dx$  (1)

Bu yerda  $r$  – zahiralari tanqisligi ehtimoli

Bank zahiralari yaratish hajmini minimallashtirish uchun ularning optimal miqdorini quyidagicha aniqlaydi:

$C = \psi Z + A$  yoki

$$C = \psi Z + \int_0^t p(x - 3)f(x)dx \quad (2)$$

Funksiyaning (2) birinchi diffirensialini harakatlar bo'yicha olsak,

$$\frac{\partial C}{\partial Z} = \psi - p \int_0^T f(x)dx = 0 \quad \text{Undan } \frac{\psi}{p} = \int_0^T f(x)dx \quad (3) \text{ hosil bo'ldi.}$$

Demak bank zahiralari optimal miqdorini belgilash uchun ularning tanqisligi  $\psi/p$  ga teng bo'lgan nuqtani topadi<sup>26</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak agar qo'shimcha likvidlik mablag'larini jalg qilishdagi marjinal xarajatlarortib borsa ( $r$ -ortsu) ch/r nisbat kamayadi, zahiralari yetarli bo'ldi. Agar daromad keltiruvchiaktivlardan olinadigan foyda ortsu (ch-ortib boradi) zahiralari miqdori kamayadi. Boshqacha ifodalasak, depozitlar va chiqimlar oqimini stoxastik jarayon deb u normal taqsimot qonuniga amal qiladi. Yuqoridagi model asosida xulosa qilish mumkinki agar zahiralari yuqori tashkilotlar tomonidan


---

<sup>26</sup>The economics of banking, p. 105

tartiblashtirilmagan zahiralar miqdori bo‘lmagan taqdirda bank ularning miqdorini daromad keltiruvchi aktivlardan tushadigan foyda (foiz stavkasi), zahiralar tanqisligini bartaraf etish xarajatlari va depozitlari chiqimini taqsimlash funksiyasi asosida belgilash mumkin.


Aktivlar menejmentidagi asosiy muammo bank qanday qilib aktivlar tuzilmasini shakllantiradi yoki boshqacha qilib aytganda yuqori riskli-yuqori daromadli va past rikli-past daromadli aktivlarni taqsimlanishidir.

Ikkinchi muammo riski yo‘q va riskli aktivlarni shakllantirishdir. Boshqacha qilib aytganda aktivlar menejmentida uchta muammoni uyg‘unlantirish, ya’ni qarzlar qaytimini va xavfsizlikni ta’minlash, risklarni pasaytirish va yetarlicha likvidlikka erishishdir.



### **2.1.1- rasm. Depozit chiqimlarining kumulyativ taqsimlanishi.**

Bu muammolarni hal qilishning bir necha yechimlari mavjud. Jumladan bank portfellarini optimallashtirish nazariyasi. Markovichning ajratish teoremasi va h.k. Riskli aktivlarning optimal kombinatsiyasi bir yechimli masala bo‘lib u chiziqli dasturlash usuli orqali hal etiladi. Bu yechimda yuqori daromad va past risk kombinatsiyasi topilgan bo‘ladi. Faraz qilaylik, ikki toifadagi aktivlar A va B hamda ularning daromad va risklilik darajalari mavjud<sup>27</sup>



<sup>27</sup> Ўша ерда

## **2.1.2 - rasm. Aktivlarning optimal kombinatsiyasi.**

Rasmda vertikal o‘qda kutilayotgan daromad va gorizontal o‘qda risklar darajasi ifodalangan. A aktivlar past riskli – past daromadli V yuqori riskli yuqori daromadli aktivlar hisoblanadi. A va V aktivlar kombinatsiyasini tanlash uchun bank menejerining riskka nisbatan munosabatini bilishimiz kerak. Nazariy jihatdan 3 toifadagi: riskni yoqtirmaydigan (a), riskni sevadigan (v), riskka neytral (s) menejerlarni ajratish mumkin.

Yuqoridagi muammoda S aktivlar ikkala aktivlar (a va v) uchun ham afzallik ko‘rinadi, chunki ular past riskda va yuqori daromad olish maqsadiga javob beradi. Optimal portfellar kombinatsiyasi nazariyaga binoan **a** va **b** aktivlarning optimal qorishmasini bu tasodifiy o‘zgaruvchilarning kovaritsaiya negizida aniqlash mumkin. Faraz qilaylik  $R_a$  va  $R_b$  aktivlarining daromadlik darajasi  $\sigma_a$  va  $\sigma_b$  ularning variatsiyasi. A va V aktivlarning biznes portfelidagi ulushlari o‘z navbatida  $\alpha$  va  $(1-\alpha)$  deb belgilansa unda umumiy daromadlar

$$R = \alpha R_A + (1 - \alpha) R_B \text{ yoki uning variatsiyasi } (R) \text{ quyidagicha}$$

$$\sigma_R^2 = \text{var}[R - E(R)] = \sigma^2 \text{var}(R_A) + (1 - \alpha)^2 \text{var}(R_B) + 2\alpha(1 - \alpha)\text{cov}(R_A, R_B) = \sigma^2 \sigma_A^2 + (1 - \alpha)\sigma_B^2 + 2\alpha(1 - \alpha)P_{A,B}\sigma_A\sigma_B \quad (4)$$

Agar  $P_{A,B} = \frac{\text{cov}(R_A, R_B)}{\sigma_A \sigma_B}$  ekanligi inobatga olsak va  $\alpha$  ni minimallashtirish shartini

kiritsak uning yechimi

$$\alpha = \frac{\sigma_B(\sigma_B - P_{A,B}\sigma_A)}{[\sigma_A^2 + \sigma_B^2 - 2P_{A,B}\sigma_A\sigma_B]} \quad (5) \text{ bo‘ladi. } \alpha \text{ ning nisbati umumiy biznes portfeliriskini}$$

minimallashtirish maqsadida topiladi. Uning tanlanishi A va B aktivlari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientiga bog‘liq, agar  $yP_{A,B} = -1$  bo‘lsa, optimal nisbat  $\alpha$ :

$$\alpha = \left( \frac{\sigma_B}{\sigma_A + \sigma_B} \right) \quad (6) \text{ ga teng bo‘ladi}^{28}.$$

1977 yilda Senali va Lindleylar (Senly and Lindley) bank aktivlari va majburiyatlarini balans bo‘limlaridagi resurslar xarajatlari sifatida aks ettirgan. Ular aktiv va majburiyatlar kombinatsiyasi uchun zarur bo‘lgan resurslarni ishlab chiqarish funksiyasi yordamida tasvirlagan. Bank balansi  $L+Z=D$  shaklida tasvirlanadi.

<sup>28</sup> Kent Mathews and John Tompson. The economics of banking. Third edition. “WILY”, 2014. pp.112-113

Zaxiralar aktivlarga nisbatan o‘zgarmas K proporsiyali, resurslar, mehnat, kapital, binolar va h.k.z.lar sarfi orqali belgilangan va ular I deb qabul qilamiz.

Ishlab chiqarish funksiyalari:

$$D = f(I), d > 0, d'' < 0 \quad (7)$$

$$L = f(I), l > 0, l'' < 0 \quad (8)$$

Orqali ifodalandi. Ishlab chiqarish funksiyalari resurslarning marjinal samaradorligi pozitiv ammo pasayish tendensiyasiga ega. Yuqoridagi ishlab chiqarish funksiyasidan moliyaviy vositachilikdan olinadigan foydani bankning operatsion xarajatlariga nisbatan funksiya deb qarashimiz mumkin.

$$\text{Jumladan, } L = (1 - k)D \quad (1)$$

Bu yerda  $k$  – zahiralar nisbati koefitsienti.

Agar bank faqat bitta resurs ( $N$ ) mehnat sarflaydi deb faraz qilsak,

$$D = f(N), f' > 0, f'' < 0 \quad (2)$$

Bankning maqsadi foydani maksimallashtirish bo‘lsa, unda

$$\pi = \varphi_L L - \varphi_D D - \omega N \quad (3),$$

bu yerda  $\omega$ -ish haqi.

Tengliklar (1) va (2) uchinchi tenglikka kiritsak

$$\pi = \varphi_L(1 - k)fN - \varphi_D f(N) - \omega N \quad (4)$$

$$\frac{\sigma\pi}{\sigma N} = \varphi_L(1 - k)f' - \varphi_D f' - \omega = 0 \quad (5)$$

Depozit xizmatlarining mehnat sarfiga nisbatan elastiklik koefitsienti  $\varepsilon_N = (f'N/D)$  (yoki mehnat resursining marjinal samaradorligi/o‘rtacha mahsulotga nisbati) ni yuqoridagi iboraga qo‘ysak moliyaviy vositachilikning sof daromadi:

$$\varphi_L - \varphi_D = K\varphi_L + \left(\frac{1}{\varepsilon_N}\right)\left(\frac{\omega N}{D}\right) \quad (6)$$

Bu yerda  $(\frac{\omega N}{D})$  depozit xizmatlarini bajarishdagi mehnat sarflarining ulushi.<sup>29</sup>

Banklarning barchasi jismoniy va yuridik shaxslarga bank xizmatlarini ko’rsatish uchun litsenziyaga ega. Ularning barchasi kredit ajratish, hisobraqam va

---

<sup>29</sup> Ўша ерда

omonat ochish, pul o'tkazmalari va boshqa bir qancha bank operatsiyalarini amalga oshiradi.

Ma'lumot uchun: 2023 yil 1 iyul holatiga banklarning jami aktivlari 576 655 mlrd. so'm, majburiyatları 490 565 mlrd. so'm, kreditlar miqdori 423 773 mlrd. so'm va depozitlar 202 894 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilayotgan aksiyalar hajmining 25 foizidan kam bo'lmagan qismi fond birjasida birlamchi joylashtirilib borilmoqda. Xususan, 2011 yil davomida tijorat banklarining 53,0 mlrd. so'mlik aksiyalari «Toshkent» respublika fond birjasining birlamchi savdolarida joylashtirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydag'i "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori talablariga muvofiq bank tizimining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, bank xizmatlari turlarini yanada kengaytirish hamda sifatini yaxshilash, zamонавији axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal rivojlantirish talab etiladi.

Mamlakatimiz banklarining barqaror rivojlanishi bank tizimiga bo'lgan aholining va tashkilotlarning ishonchini taminlamoqda va bu esa korporativ depozit va aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilishning mustahkam asosi bo'lib qolmoqda. Natijada tijorat banklarida so'nggi besh yilda jami depozitlar hajmi 3,5 marta, oxirgi bir yil ichida esa 25,2 foiz oshdi.

Xozirgi paytda banklarning bankrotlikka uchrashi nafaqat bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan bankni rivojlangan mamlakatlar banklari uchun ham tabiiy hol bo'lmoxda. 2020 yildagi boshlangan Covid-19 pandemiyasi oqibatodagi jahon moliyaviy inqirozi bir necha yirik banklarning yopilishiga sabab bo'ldi. Bu voqealar bankni tartiblashtirishning samarasi pastligidan, menejment tizimini yaxshilash zaruratidan dalolat beradi. Banklarning inqirozga uchrashida ikkita sababni ko'rsatish mumkin.  
1) Birinchisi banklarda bozor mexanizmi yaxshi ishlamaganligi depozitorlar banklar

faoliyatini to‘g‘ri va samarali boshqarolmaganligidir. Mini minilar va monopolistik raqobat sharoiti sistematik risklarni oshiradi va banklarning yopilishiga olib keladi. Ikkinchi sabab birinchidan farqli o‘laroq bozor qonunchiligiga mos bo‘lmagan tartib va qoidalarning joriy qilinishidir. Bozor mexanizmi bank riskini ifodalovchi va baxolovchi yo‘ldir.

So‘nggi yillarda respublika bank tizimidagi islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga yerishishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar” Dasturi hamda respublika moliya-bank tizimini rivojlantirishga oid boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga qaratildi, jumladan:

- bank nazorati tizimini yanada takomillashtirish, bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalarini tatbiq etish bilan bog‘lik tadbirlarni davom ettirish;
- mamlakat bank tizimi va tijorat banklari faoliyatini yetakchi xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan qo‘llaniladigan me’yor, andoza va ko‘rsatkichlar asosida baholash amaliyotini kengaytirish;
- tijorat banklarining resurs bazasini ularning kapitallashuv darajasi hamda aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh pul mablag‘larini depozitlarga jalb qilish orqali yanada oshirish;
- tijorat banklari aktivlarini, shu jumladan, ularning investitsion faolligini hamda ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha loyihalarni kreditlash hajmlarini oshirish;
- tijorat banklari balansiga olingan iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini tiklash, ular bazasida tashkil etilgan yangikorxonalarни strategik investorlarga sotish ishlarini yanada faollashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari, boshlang‘ich kapitalni shakllantirish uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish hajmini kengaytirish;

- xalqaro andozalar va tamoyillar hamda mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi real holatidan kelib chiqqan holda moliya-bank sohasining qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

Bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarini tartiblashtirish Ronald Kouz ta'kidlaganidek tartibblashtirilmagan xususiy faoliyatlar shunday oqibatlarga olib keladiki, natijada uning ijtimoiy marjinal xarajatlari oddiy xususiy marjinal xarajatlardan yuqori bo'ladi.

Chunki bu oqibatlar tashqi ta'sirlar tufayli ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Banklarning inqirozi iqtisodiyotga korxona inqiroziga qaraganda ko'proq zarar keltiradi. Chunki banklar pul va kredit siyosatida bevosita ishtirok etadilar, jumladan, ular hisob-kitob va to'lovlashda qatnashadi, ular jamg'armalarni saqlashda qo'l keladi. Ammo banklarni tartibblashtirish ayrim xarajatlar talab etadi. Jumladan, banklar bevosita tartibblashtirishga doir xarajatlarni amalga oshiradi. Bundan tashqari tartibblashtirishga dahldor bo'lgan firmalarning ma'lumot toplash va boshqarish xarajatlari.

Banklarni tartibblashtirish jarayoning zarurati va sabablari uchta. Birinchidan, iste'molchilar, bank mijozlari moliya bozorida xukmron emas va shu sababli banklarning monopolistik harakatidan azob chekishi mumkin. Ikkinchidan, bankga pul qo'yganlar bank faoliyatidan boxabar emas va ular bank faoliyatini monitoring qila olishmaydi, shu sababli mijozlarni ximoyalash zarurati bor. Uchinchidan tartibblashtirish banklar tizimini xavfsiz va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasida tartibblashtirish bir necha shakllarda, jumladan, bank sektoriga kirishni nazorat qilish, depozitlarni sug'urtalash, qarz berishni muqobilashtirish va x.k. orqali amalga oshiriladi.

Markaziy bank va boshqa tartibblashtiruvchi agentlar ikkita ko'rsatkich orqali tijorat banklarini monitoring qiladi.

- 1.Taraqqiyot koeffitsienti(gearing ratio);
- 2.Kapital –aktivlar riski koeffitsienti.

Taraqqiyot koeffitsienti tizimini bank depozitlari plyus tashqi majburiyatlarning bank kapitali va zahiralarga nisbatidir. U agar bank qarzlarini to'la

olmaslik defoltiga uchrasa depozitlar miqdorini qaytarish uchun bank yaroqligini anglatadi.

Bank balansida  $A=D+E$  taraqqiyot koeffitsienti  $d=D/E$ . Agar m defolt darajasi,  $m=1/(1+d)$ .

Agar mA aktivlar defolt natijasida yo‘qotiladigan bo‘lsa ularning qolgan qismi depozitlarni to‘la qoplaydi. Kapital/aktivlar nisbati koeffitsienti Bazel I tartiblashtirish koeffitsienti deb ataladi. 1993 yildagi qabul qilingan tartib bo‘yicha minimum kapital –aktivlar riski nisbati xalqaro banklar uchun 8 % –ni tashkil etadi. Basel 1 asosan kredit riskini inobatga oladi.

Mamlakatimizda pul mablag‘larining samarali aylanishini ta’minlash, xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish asosida ularning ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash ko‘p jihatdan bank tizimini talab darajasida rivojlantirishga bevosita bog‘liq.

Mamlakatlarning rivojlanganlik darajasiga qarab, barcha mamlakatlarning iqtisodiyoti va bank tizimi bir-biridan farq qiladi. Jumladan, yevropa davlatlari bank tizimlari juda ham sifatli hamda tez xizmat ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Boshqa davatlarda esa bank tizimidagi ba‘zi nuqsonlarni inobatga olmagan ular ham ma’lum jabhalarda yevropa banklaridan farqlanadi. 56 Ma’lumki bank tizimlari ikki hamda 3 bosqichli bo‘lishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston bank tizimi 2 bosqichli. Ushbu tizim Markaziy bank hamda tijorat banklaridan iborat. Yevropa bank tizimi esa 3 bosqichli. Yevropa Markaziy banki, hududiy banklar hamda tijorat banklardan iborat bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasibank tizimida tijorat banklari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Markaziy bankka hisobot topshirgani tufayli, markaziy bankning majburiyatları oshib boradi hamda bu jarayon birmuncha qiyinchiliklar olib keladi.

Mamlakatimizda bank tizimini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar sekin-asta o‘z samarasini bermoqda. Mamlakatimiz prezidenti tomonidan imzolangan juda ko‘p hujjatlarda bank hamda moliya tizimlarini takomillashtirishga deyarli barcha tashkilotlar jalb qilingan.



## 2.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi 2023-2024 yilda banklarning raqobatlilik darajalari to‘g‘risida

Tijoratbanklarining jami kreditlar qoldig‘i 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, 471,4 trln. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning boshidagiga nisbatan qariyb 1,2 barobar oshdi. Milliy valyutada ajratilgan kreditlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan nominal foiz stavkasi 2022-yil yakunidagi 22,3 foizdan 2023-yilda 24 foizgacha ko‘tarilgan. Bunda kreditning real foiz stavkasi sezilarli darajada, ya’ni 10 foizdan 15,2 foizgacha ko‘tarilgan<sup>30</sup>.

Shuningdek tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini kuchaytirish, investitsiya loyixalarini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini yanada kengaytirish, loyixalarni ekspertiza qilish va risklarni baxolash tizimini takomillashtirish, kreditlar bo‘yicha muammoni qarzlarning hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning kredit portfelini mutassil o‘sishi va sifatini yaxshilanishini ta’minlashga doir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Qarorni amalga oshirish jarayonida iqtisodiyotning real tarmoqlari korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jixatdan ta’minlash borasida yangi investitsion loyixalar moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlandi, tijorat banklari aktivlari sifati monitoringi yaxshilandi, bank risklarini boshqarishda chuqur omilli taxlillarni qo‘llash yo‘lga qo‘yildi,

<sup>30</sup> <https://e-itt.uz/index.php/editors/article/view/806/786>

zaxiralar yaratish, kredit portfelini diversifikatsiyalashni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan iqtisodiy mexanizm yaratishga xarakat qilindi.

Darxaqiqat, ushbu muammolarni to‘la-to‘kis xal etish ko‘p jixatdan banklar faoliyatini boshqarishda aktivlar va majburiyatlarga doir risklarni to‘g‘ri baxolash, jami aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlarning salmog‘ni oshirish asosida ichki bank resurslari xajmini ko‘paytirish, bank faoliyatini boshqarishning rivojlangan mamlakatlar tajribasida sinalgan ilmiy usullarni respublikamiz banklari amaliyotiga joriy etishni taqozo qiladi.

Taxlillarning ko‘rsatishiga, tijorat banklarini boshqarish nazariyasi, uslubiyoti va amaliyotida aktiv va majburiyatlarni, kredit portfelini, risklarni boshqarishga doir o‘rganilgan tadqiqot ishlari yetarli emas. Ayniqla, tijorat banklari menejmentida bank faoliyatini tartiblashtirish va erkinlashtirish maslasi kam o‘rganilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion taraqqiy ettirish ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, xizmat ko‘rsatish soxasini rivojlantirish hamda sifatini yaxshilashda xo‘jalik subektlarining moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qondirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Tijorat banklari aktivlariga kassadagi navd pul mablag‘lari, banklarning markaziy banki va boshqa banklardagi hisob varaqalaridagi mablag‘lar, qimmatbaxo metallar toshlar va tangalar, sotib olingan debitorlik qarzlari (faktoring operatsiyasi bo‘yicha mablag‘lar) qarzga berilgan uzoq va qisqa muddatli kreditlar, lizinglar, investitsiyalar, aktivlar bo‘yicha hisoblangan foizlar, binolar va asbob uskunalar, nomoddiy aktivlar kiradi

Bugungi kunda tijorat banklari faqatgina xo‘jalik sub’ektlarini kreditlovchi va to‘lovlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar emas, balki ularga qo‘srimcha ravishda faktoring, lizing, investitsiyaviy loyixalarni moliyalashtirish, qimmatli qog‘ozlar bozorida faollik ko‘rsatish, konsalting xizmatlarini bajarish kabi zamonaviy xizmatlarni amalga oshiradi.

Respublikamizda demokratik isloxtlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, bank tizimini isloh qilish, erkinlashtirish natijasida banklararo raqobat muxiti tobora kuchayib bormoqda. Ammo, taxlillarning

ko'rsatishicha, banklar aktivlri xajmini o'sishi bilan bir qatorda bank aktivlari tarkibida muammoli, ya'ni qaytishi dargumon bo'lgan aktivlar hajmining o'sishi, bank aktivlarining muayyan soxa yoki tarmoqga yig'ilib qolishi natijasida aktivlar riski darajasining ortishi, bankda daromad keltiruvmaydigan aktivlar hissasining me'yor darajasidan oshib ketishi kabi salbiy xolatlarning yuzaga kelish extimoli ham ortadi.

Zamonaviy bank menejmentida maqbul nazorat tizimini shakllantirish zarur. Mazkur nazorat tizimi tashqi va ichki ko'rinishlarda tashkil etiladi. Tashqi nazorat bevosita Markaziy bank tomonidan tomonidan har yili rejali tekshirishlar o'tkazish, banklar tomonidan taqdim qilinadigan hisobotlar bo'yicha belgilangan iqtisodiy me'yorlarga rioya qilinishini tizimli nazorat qilish hamda tashqi auditorlik kompaniyalari tomonidan bank tizimining barqarorligiga baho berish orqali amalga oshiriladi. Bizningcha, tijorat banklarida aktivlarni samarali boshqarishni bank passivlarini boshqarish jarayoniga e'tibor qaratmasdan amalga oshirib bo'lmaydi, iqtisodiyotda bankdan tashqari pul aylanmasini cheklash, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash maqsadida banklar yuridik va jismoniy shaxslardan foiz to'lovi majburiyatini zimmasiga olgan holda depozitlar qabul qiladilar.Ushbu depozitlarga hisoblangan foiz xarjatlarini qoplashda banklardan mazkur jalb qilingan mablag'larni samarali aktiv operatsiyalariga yo'naltirish zarurati tug'iladi.

## **2.2. O'zbekistonda tijorat banklari risklarini o'lichash va monitoring qilish usullari tahlili**

Moliyaviy barqarorlik - bu moliya tizimining, ya'ni moliya institutlarining, bozorlar va bozor infratuzilmasining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hatarlar va nomutanosibliklarga dosh berish qobiliyati, bu orqali moliyaviy vositachilik funktsiyalarining buzilishi ehtimolini kamaytiradi. Moliyaviy barqarorlikning maqsadi alohida moliya institutining barqarorligi emas, balki butun moliya tizimining barqarorligidir. Moliyaviy barqarorlik barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosidir.

Agar banklar, boshqa kredit tashkilotlari va moliya bozorlari uy xo'jaliklari va korxonalarini investitsiya qilish, o'sish va barqaror faoliyat yuritayotgan iqtisodiyotda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan mablag' bilan ta'minlay olsa, bu tizimni to'satdan tanazzulga qarshi himoyasiz holga keltirmasa, moliyaviy tizim barqaror hisoblanadi. . Aksincha, beqaror tizimda iqtisodiy zarba real iqtisodga salbiy ta'sir ko'rsatishi, kreditlashni to'xtatishi va ish bilan bandlik va iqtisodiy faollikning kutilganidan ko'ra ko'proq pasayishiga olib kelishi mumkin.

Moliyaviy beqarorlik sharoitida moliya tizimi iqtisodiyot uchun asosiy bo'lgan moliyaviy xizmatlarni taqdim eta olmaydi. Moliyaviy beqarorlik, masalan, yirik moliya instituti qiyinchiliklarga duch kelsa, paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bir muassasadagi muammolar tizimning qolgan qismiga ham tarqalishi mumkin, chunki institutlar banklararo munosabatlar orqali o'zaro chambarchas bog'langan. Moliyaviy beqarorlik, hatto alohida muassasalar sog'lom ko'rinsa ham, yuzaga kelishi mumkin. Sababi, muassasalarning umumiy xulq-atvori butun moliyaviy tizim uchun xavf tug'dirishi mumkin, ya'ni tizimli riskdir.


Moliyaviy barqarorlik va uni tahlil qilish markaziy banklar va moliya sektorini tartibga soluvchi organlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bank sektori O'zbekiston moliya tizimining eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Shu boisdan ham bank tizimining barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Markaziy bankining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Markaziy bank bank tizimidagi o'zgarishlarni monitoring qiladi va baholaydi hamda tizimli risklar to'planishini kamaytirish va bank tizimi barqarorligini oshirish choralarini ko'radi. Markaziy bank yiliga ikki marta "Moliyaviy barqarorlik to'g'risida"gi hisobotni e'lon qiladi, unda bank tizimining barqarorligi, shuningdek, makromoliyaviy zaiflik va risklar tahlil qilinadi va baholanadi. Ushbu hisobotni e'lon qilish orqali Markaziy bank aholining xabardorligini oshirish hamda Markaziy bankning ushbu sohadagi shaffofligi va hisobdorligini oshirishni maqsad qilgan<sup>31</sup>.

---


<sup>31</sup> <https://cbu.uz/ru/financial-stability/about>

So‘nggi yillarda masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish hajmi sezilarli darajada oshdi, bu esa moliyaviy xizmatlar sifatini yanada oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi.


Onlayn tranzakziyalardan foydalanuvchilar, mln.kishi




POS-terminallar orqali onlayn tranzakziyalar, mln.AQSh doll.



QR- tranzakziyalardan foydalanuvchilar, mln.kishi



QR- tranzakziyalar hajmi, mln.AQSh doll.



Covid-19 pandemiyasi raqamli infratuzilmaning rivojlanishini tezlashtirdi, bu esa masofaviy bank xizmatlariga o‘tishni rag‘batlantirdi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish tufayli moliya institutlari faoliyatidagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun tijorat bankining klassik funktsiyalarini esga olish kerak:

- 1) vaqtincha bo‘sh pul mablag’larini jalb qilish va toplash;
- 2) kreditlash vositachiligi;
- 3) hisob-kitoblar va to’lovlarini amalga oshirishda vositachilik;
- 4) kredit pullarini yaratish;
- 5) fond va valyuta bozorlarida vositachilik qilish, shuningdek maslahat va axborot xizmatlarini ko‘rsatish.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish bank funktsiyalariga katta ta’sir ko‘rsatadi, ba’zida ularni tubdan o‘zgartiradi.

Shunday qilib, vaqtincha erkin pul mablag'larini jalg qilish va to'plash ancha oson va katta hajmda amalga oshiriladi. Ko'pincha fuqarolar o'z daromadlarini bank kartasiga olishadi: ish haqi, ijtimoiy nafaqalar, kasbiy faoliyatdan olingan daromadlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan bajarilgan xizmatlar va jo'natilgan mahsulotlar uchun to'lovlar. Bundan tashqari, aksariyat fuqarolar kommunal to'lovlarni to'lash, boshqa xizmatlar va hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan tovarlarni to'lash kabi xarajatlarni to'lash uchun mo'ljallangan pul mablag'larini turli xil bank kartalarida saqlaydilar. Shunday qilib, mijoz o'z hamyonini ko'rib chiqadigan va unga kirish huquqiga ega bo'lgan bu pullar ham vaqtincha muomaladan chiqarilgan hamyonda naqd pulda emas, balki bankdagi hisobvaraqlarda.

### **2.2.1-jadval**

#### **O'zbekistonda internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, jismoniy shaxslar (hududlar kesimida), ming birlik**

<b>Hududlar</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>	<b>2017</b>	<b>2018</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>
O'zbekiston Respublikasi	8073,6	9279	10764,3	12883,3	15750,8	19241,3	22112,1	25167,9	28166,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	487,5	511,8	589,5	748,6	890,8	1032,8	1184,9	1386,5	1438,3
Andijon viloyati	604,1	712,1	821,5	967,7	1206,8	1451,6	1752,6	1918,9	2228,4
Buxoro viloyati	415,9	463	523,1	670,9	812,1	962,5	1147,6	1393,3	1449,2
Jizzax viloyati	263,4	295,3	359,8	451	542,4	636,9	756,7	1620	955,5
Qashqadaryo viloyati	475,5	556,9	677,2	848,8	1125,6	1400,8	1646,8	1650,6	2068,2
Navoiy viloyati	264	285,5	330,5	420,9	517,3	608,6	714,9	996	892,9
Namangan viloyati	508,9	603,6	729,9	936,9	1164,9	1342,3	1585,5	1745,5	1962,1
Samarqand viloyati	745,7	848,5	997,1	1199,9	1468,4	1745,5	2069,8	2088	2624,7
Surxondaryo viloyati	363,2	422	534,3	702,1	933,6	1123,7	1287,7	1312,3	1644
Sirdaryo viloyati	208,1	225	278,5	340	426,4	488,5	570	791,4	710,5
Toshkent viloyati	259,6	330,3	317,2	474,1	957	1198,1	1418,7	1811,5	1906,3
Farg'ona viloyati	723	849	1013,5	1214,2	1502,9	1882,4	2809,6	3184,6	3669,4
Xorazm viloyati	381,3	436,8	559,3	693	848,1	985,5	1149,3	1435,4	1423,9
Toshkent shahri	2373,4	2739,2	3032,8	3215,1	3354,4	4382,1	4018	3834,1	5193,2

O'zbekistonda internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni oshib bormoqda.


Raqamlashtirish butun pul muomalasini naqd pulsiz muomalaga o'tkazishga imkon beradi. Shu bilan birga, jismoniy ma'noda emas, balki bank kartasi

hisobvarag'idagi yozuv shaklida mavjud bo'lgan naqd pulsiz pul karta bilan biror narsani to'lashda to'lov vositasi ham rol o'ynaydi va bank uchun kredit manbai rolini o'ynashi mumkin.



#### **2.2.2-rasm.O`zbekistonda internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, yuridik shaxslar, ming birlik**

O'zbekistonning demografik landshafti va aholining o'rtacha daromadlarining izchil ortib borayotgani fintechning o'sishini yanada rag'batlantirmoqda.



Shuni ta'kidlash kerakki, it - texnologiyalardan foydalangan holda vaqtincha bo'sh mablag'larni jalb qilish va to'plash funksiyasi doirani ancha kengaytirdi, aholi uchun qulayroq bo'ldi va moliya institutlari uchun yanada foydali bo'ldi.

Tijorat bankining ikkinchi muhim vazifasi kredit berish vositachiligidir.

Banklar ushbu funktsiyani uzoq vaqt dan beri amalga oshirib kelmoqdalar, ammo so'nggi paytlarda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan banklarga kredit berishda eng katta o'zgarishlar yuz berdi.


Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi ham yildan-yilga oshib bormoqda.

### **2.2.2-jadval**

Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, ming so'm

	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>
O'zbekiston Respublikasi	2192,8	5410,6	12122,2	14869,8	17772,8	20015,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1498,9	3908	9436,6	11286,5	13266,1	14570,7
Andijon viloyati	1838,1	4835	10765,9	12946,1	15910,1	18257
Buxoro viloyati	2524,4	6411,6	14675,5	18133,4	21470,5	23480,3
Jizzax viloyati	1810,7	4809,6	10951,7	13244	15090,6	17326,2
Qashqadaryo viloyati	1896,4	4642,7	10199	12180,8	14610,8	16095,1
Navoiy viloyati	3881,6	8761,4	19922,5	24765	27129,1	31445,6
Namangan viloyati	1566,7	4113,2	9258,8	11353,5	13782,5	15070,6
Samarqand viloyati	2029	4631	10522,8	12919	15437,1	16886,8
Surxondaryo viloyati	1718,4	4560,8	9745	11824,1	14520,4	15811,6
Sirdaryo viloyati	2215,1	5813,9	10938,3	12794,6	14635,8	16808,3
Toshkent viloyati	2433,3	6123,7	13129,4	16260	18319,2	20730,2
Farg'ona viloyati	1723	4418,3	8853,5	11276,9	13844,4	15716,5
Xorazm viloyati	2105,3	5052,2	12270,6	15756,4	19541,5	20076,6
Toshkent shahri	4505,9	10614,4	25543,6	30511,1	37079,7	44427,9

Bank tomonidan chiqarilgan kredit karta, aslida, ma'lum miqdordagi kredit olish imkoniyatiga ega bo'lgan hisob - kitob kartasi bo'lib, uni bankka mijoz haqida etarli ma'lumot berish uchun, ya'ni uning hisobvarag'iga muntazam tushumlar miqdori to'g'risida. Shunday qilib, mijoz tomonidan kartadan vaqt-vaqt bilan olingan, foizlar olinadigan kredit pullari ro'yxatga olishni talab qilmaydigan, kreditni ko'rib chiqish va tasdiqlash muddati nolga kamaytirilgan, ya'ni mijoz uchun iloji boricha qulay bo'lgan va uni bank kreditidan foydalanishga undaydigan aholining eng arzon kreditlanishi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.



2.2.2-rasm. Aholi umumiy daromadlar tarkibida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi, %da


Hukumat 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan bank sektorini isloq qilish strategiyasini e’lon qildi, uning maqsadi banklarni chakana mijozlar va kichik va o‘rtalagi biznesga yo‘naltirishdir.<sup>32</sup>

Islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari:

- Bank tizimi samaradorligini oshirish.
- Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash.
- Bank sohasida davlat ulushining kamayishi.
- Moliyaviy xizmatlarning qulayligi va sifatini oshirish.

2020-yilda banklar kredit va depozit portfellarini diversifikatsiya qilish va davlat dasturlariga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishni boshladilar. Bu chakana mijozlarni jalb qilish uchun yangi xizmatlar, depozitlar, kreditlar va boshqa komissiya mahsulotlarini ishlab chiqishga olib keldi. Markaziy bank bank sektoriga 2024-yilgacha xususiy investitsiyalarni jalb etish majburiyatini yukladi, bu esa o‘z navbatida jismoniy shaxslar va kichik biznes ulushini oshirish zaruratinini tug‘diradi.

<sup>32</sup> <https://www.mastercard.uz/content/dam/public/mastercardcom/uz/ru/report/fintech-v-uzbekistane.pdf>



2022 yildan 2023 yilgacha sanoat bo‘yicha 25 ta startapga 7,1 million dollar sarmoya kiritildi, bu mablag‘ning 61 foizdan ortig‘i fintechdan keladi.

2013-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish dasturi O‘zbekistonda tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlash jarayonini yengillashtirishni rag‘batlantirdi. COVID-19 pandemiyasi fuqarolar hayotining ko‘plab sohalarini raqamlashtirish hisobiga raqamli bank tizimlariga ishonchni mustahkamlashga xizmat qildi. Raqamli texnologiyalarning bank sektoriga integratsiyalashuvi kredit portfelining o‘sishini optimallashtirish va risklarni kamaytirish imkonini berdi. Shuningdek, hukumat O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan tovar va xizmatlar uchun kreditlar berish orqali tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatladи.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi iqtisodiyot, sanoat va jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan. Strategiya raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini kamida 2,5 barobar oshirishga qaratilgan. Real va moliya sektorlarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasi 70 foizni tashkil etishi kerak.

“Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasining qabul qilinishi mamlakatning raqamli transformatsiyasi yo‘lidagi muhim bosqich bo‘ldi. Strategiyaning asosiy maqsadi O‘zbekistonni rivojlangan raqamli iqtisodiyotga aylantirish va 2030 yilgacha texnologiya sohalarini rivojlantirishdan foyda olishdir.

Elektron tijoratni rivojlantirish strategiyasi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan. U Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron tijorat uyushmasi va boshqa idoralar bilan birgalikda Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan Xalqaro savdo markazining Ready4Trade Markaziy Osivo lovihasi ko'magida ishlab chiqilgan.

Fintechlar ilg'or axborot tizimlarini yaratish orqali an'anaviy institutlar qoldirgan bo'shlqnini to'ldirish imkoniyatiga ega. Bu muammo bir necha tomonidan hal qilinmoqda: ZoodPay kabi kompaniyalar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri iste'mol kreditlari, Oasis Microcredit tomonidan kichik va o'rta biznes kreditlari yoki BILLZ tomonidan taqdim etilgan o'matilgan moliya kontseptsiysi. Ushbu turli yondashuvlarning kombinatsiyasi, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mamlakatda fintechning tez o'sishiga olib keladi. Ayni paytda O'zbekistonda fintech konsolidatsiya va o'sish bosqichida. Biz yangi mahalliy va xorijiy o'yinchilarning paydo bo'lishini ko'ryapmiz. Biroq, tartibga soluvchi nuqtai nazardan, ko'proq nazorat qilish istagi aniq.

O'zbekistonda 1200 ga yaqin startap mavjud bo'lib, ular asosan rivojlanishning dastlabki bosqichida va investorlarni jalb qilishda qiyalmoqda. Biroq, vechur landshafti UzVC, AloqaVentures, UZCARD Ventures va Semurg VC kabi o'yinchilarning paydo bo'lishi tufayli faol rivojlanmoqda va mamlakatda inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari sonining ko'payishi kuzatilmoxda.

Click strategiyasi asosan xizmat bank xizmatlari bilan ta'minlanmagan shaxslarga mo'ljallangan. Kuchli mintaqaviy ishtiroki bilan Click smartfon va internetga kirish imkonini bo'limgan foydalanuvchilarga mo'ljallangan.


Uzum bank esa super ilova orqali mijozlar bazasini kengaytirish strategiyasini tanlab olgan. Xolding tarkibiga "Kapitalbank", "Uzum Market" bozori, "Uzum Nasiya" to'lov xizmati va "Uzum Bank" (sobiq Apelsin Bank) raqamli bank kiradi. Loyihaning maqsadi e-tijoratga e'tibor qaratgan holda mamlakatning eng yirik ekotizimini yaratishdir. To'liq bank litsenziyasiga ega bo'lgan Uzum kengaygan xizmatlar, jumladan depozitlar va kreditlarni taklif etadi.

Payme asosan shahar aholisiga qaratilgan va qishloq joylarda kam namoyon bo'ladi. Bank xizmatlarini ko'rsatish uchun xizmat TBC Group tarkibiga kiruvchi TBC Bank litsenziyasidan foydalanadi. Payme, Click va boshqa mobil hamyonlar allaqachon butun mamlakat bo'ylab keng tarqalgan va raqamli moliyaviy texnologiyalardan foydalanishni oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Mamlakatning raqamlashtirishga e'tibori fintech kompaniyalari o'rtasida qo'shilish va sotib olishni rag'batlantiradi. Bir nechta tranzaktsiyalarni e'tiborga olish kerak:

- Uzum ekotizimiga 2023 yilda Click raqamli hamyonini sotib olish bo'yicha kelishuv;
- 2023-yilda TBC bank guruhi tomonidan Payme'ning 100% ulushini birlashtirish.


Savdogarlarning 50% dan ortig'i Click orqali to'lovlarini qabul qilishni afzal ko'radi, undan keyin Payme uchdan biridan ko'prog'i; Uzum xizmati ham katta qiziqish uyg'otmoqda.



### **2.2.3-rasm. 2023 yilda turli raqamli hamyonlardan to`lovlarini qabul qiluvchi sotuvchilar ulushi**

O‘zbekistonda fintech bozori konsolidatsiya bosqichiga kirmoqda. TBCning muhim fintech o‘yinchisi bo‘lgan Payme kompaniyasini sotib olishi va Uzum mahsulot ekotizimining O‘zbekistondagi eng yirik fintech kompaniyasi Click bilan birlashishi bozorda konsolidatsiya jarayoni boshlanganiga ajoyib misol bo‘lishi mumkin. O’ylaymanki, biz to’lov kompaniyalarini, ayniqsa bozorga kirishni xohlaydigan xorijiy o‘yinchilarni sotib olishni kutishimiz kerak.

O‘zbekistonda elektron tijorat bozori barqaror o‘sishni ko‘rsatmoqda. 2022 yilda kirish darajasi 2,2% ni tashkil etdi, bu 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada yuqori - 0,6%.



### **2.2.2-rasm. Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi (yillik), mlrd. so'm**

Bozordagi asosiy tendentsiya - bu super ilovalar sonining o’sishi. Yaqinda Click va Uzum birlashdi va 13 milliondan ortiq foydalanuvchilarni birlashtirdi va turli xizmatlarni to’lovlar, bank xizmatlari, elektron tijorat va oziq-ovqat yetkazib berish to’lovlar, bank xizmatlari, elektron tijorat

va oziq-ovqat yetkazib berish taklif qildi. TBC Bank tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan Payme o'zining 9 milliondan ortiq foydalanuvchilari bo'lgan mijozlar bazasini to'lovlardan tashqari kengaytirmoqchi. Virtual operator sifatida boshlangan Humans endilikda kartalar va to'lovlarini o'z ichiga olgan bir qator xizmatlarni taqdim etadi va super ilovalar bozoriga ham kirib bormoqda.

O'zbekistonda Kaspi ta'sirida xuddi shunday ekotizim yaratish bo'yicha faol harakatlar olib borilmoqda. Hozirda ikkita etakchi o'yinchi Zood va Uzum, garchi ularning strategiyalari biroz boshqacha. Jamiyat banklari mahsulot va xizmatlar ekotizimini qanday taklif qilishlari mumkinligini aniqlashga harakat qilmoqda, ammo bu ularning DNKida yo'q, shuning uchun ular kurashmoqda.

Mamlakatda jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi neobanklar soni sezilarli darajada o'sdi, asosiy e'tibor kichik biznes (neobanking)ga qaratilgan.

2020 yilda mahalliy Anorbank bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya oldi. Ilova imkoniyatlari:

- Kuryer orqali yetkazib berish orqali kartaga onlayn buyurtma berish
- Ariza topshirish va onlayn kreditni tasdiqlash
- Onlayn depozit hisobvarag'ini ochish
- kichik biznes uchun onlayn joriy hisobvaraq ochish.

TBS Bank Space innovatsion fintech platformasi asosida yaratilgan TBC UZ mobil ilovasi orqali chakana bank xizmatlarini taqdim etadi. Bank "O'zbekistonning eng yaxshi raqamli banki 2022" nominatsiyasi bilan taqdirlandi. Ilova imkoniyatlari:

- Kuryer orqali yetkazib berish orqali kartalarga onlayn buyurtma berish
- Onlayn ariza va kreditni tasdiqlash
- Onlayn depozit hisobvarag'ini ochish.

"Kapitalbank"ning sho'ba korxonasi bo'lgan "Apelsin" raqamli banki 2022-yilda "Uzum" ekotizimiga integratsiyalashuv jarayonini boshladi va "Uzum Bank"ga aylantirildi. Ilova imkoniyatlari:

- Kuryer orqali yetkazib berish orqali kartaga onlayn buyurtma berish
- Ariza topshirish va onlayn kreditni tasdiqlash
- Onlayn depozit hisobvarag'ini ochish.
- QR kodlari yordamida Uzum Pay orqali to'lovlar.

SmartBank raqamli bank va Agrobankning sho'ba korxonasi yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishni maqsad qilgan. 2022 yilda kompaniya bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya oldi.

Multibank - bu mikro, kichik va o'rta biznes uchun neobank. Xizmatning asosiy vazifasi biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun barcha zarur vositalarni birlashtirishdan iborat.

Ilova imkoniyatlari bu bank xizmatlari, elektron hujat aylanishi, invoyslarni berish va kontragentlarni tekshirish.

Aholi va biznes uchun investitsiyalarning muqobil manbai sifatida kriptoindustriyaning nazorat ostida rivojlanishi.

Hozirda 2 ta kriptobirja, 2 ta kriptodepozitariy, 10 ta oflayn va onlayn kriptodo'kon va 3 ta maxsus rejim ishtirokchilari mavjud.

2018-yildan boshlab hukumat kriptoindustriyani rasmiylashtirish, soliqqa tortish va valyutani tartibga solish ob'ekti bo'limgan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kriptoaktivlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish ustida ishlamoqda.

Yana bir raqobatchi – elektron tijorat kreditlash platformasi (ZoodPay), bozor (ZoodMall), yetkazib berish va logistika xizmatlari (ZoodShip) va raqamli bankni birlashtirgan ekotizimdir.

2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisi 36,4 million kishini tashkil etadi, bu BMT DESA prognozidan 35,16 million kishidan oshadi, mehnatga layoqatli aholi ulushi esa 55 foizdan 60 foizgacha bo'ladi. Mamlakatning nisbatan yosh aholisi, o'rtacha yoshi 29, fintech sektorini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

2022-yilda urbanizatsiya, turmush tarzining o'zgarishi, xarid qobiliyatining o'sishi va farovon iqtisodiyot fintech bozorining o'sishiga turtki berdi. Moliyaviy texnologiyalarning keyingi rivojlanishi farovonlikning oshishi va tengsizlikning kamayishi bilan ta'minlanadi.

Fintech bozorining o'sishiga turtki omillar	
Davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash	2000-yillarning boshlarida mamlakatda sifatli moliyaviy xizmatlarning etishmasligi
Mamlakat hukumati moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir vaqtda qulay fintech ekotizimini yaratish bilan faol shug'ullanmoqda	Uzoq vaqt davomida banklar faqat korporativ sektorga yo'naltirilgan edi
2018 yilgacha davlat tomonidan tartibga solinmaganligi, to'lovlar bozorini rivojlantirishga e'tibor qaratilganligi	aholining turli qatlamlari va KO'B sub'ektlari uchun bank xizmatlaridan foydalanishning notekisligi
nobank to'lov tizimlarini tartibga solishning yo'qligi	2022-2023 yillarda Rossiyadan ko'p sonli IT-mutaxassislarining oqimi. Fintech sektorining ushbu mutaxassislar uchun ish joyi sifatida jozibadorligi
Elektron tijorat bozorini rivojlantirish, shuningdek, yakka tartibdagи tadbirkorlar o'rtasida QR kodlarni tarqatish ommalashgani	

Biznesning raqamli mavjudligini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar uning kengroq iste'molchi bazasiga erishish va fintech sohasida samarali raqobatlash qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Mamlakatning raqamli infratuzilmasi, jumladan, internetni o'zlashtirish va keng polosali ulanish imkoniyatlari o'xshash iqtisodiyotga ega bo'lgan boshqa mamlakatlar kabi rivojlangan emas.

Aholi o‘rtasida mobil telefonlarning cheklanganligi, mobil ma’lumotlarning qimmatligi va ayrim hududlarda internet tezligining pastligi. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirishning past darajasi, ayniqsa kichik va o‘rta korxonalar o‘rtasida. AT tizimlarida yangi kibertahdidlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan zaifliklarning mavjudligi.

Aholining bank xizmatlari bilan cheklanganligi. Aholining ayrim qatlamlari va kichik biznes sub'ektlari uchun katta moliyaviy yuk. Moliya va sarmoyadan foydalanish imkoniyati cheklangan.

Startaplar noyob ma'lumotlar ko'nikmalariga ega bo'lib, ular moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda kichik va o'rta biznesni aylanma mablag'lar bilan ta'minlashda foydalanishlari mumkin. Oasis Microcredit kabi mikromoliya kompaniyalari allaqachon Billz kabi startaplar bilan kichik va o'rta biznesga kredit berish uchun hamkorlik qilmoqda va bunday holatlar soni yanada ko'payadi.

Raqamlashtirish, shuningdek, hisob-kitoblarda banklarning ishtirokini sezilarli darajada kengaytirib, "hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirishda vositachilik" funktsiyasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yuridik shaxslar o‘rtasidagi hisob - kitoblar ilgari faqat bank muassasalari orqali amalga oshirilgan, sotib olingan tovarlar va xizmatlar uchun aholi hisob-kitoblari esa naqd pul yordamida amalga oshirilgan.

### **2.3. O`zbekiston tijorat banklari barqarorligi holati tahlili**

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta’minalash va unda yangi xizmatlarni joriy qilishda menejment usullaridan foydalanishning zamonaviy holati va uni takomillashtirish imkoniyatlari juda katta. Shuning uchun ushbu paragrafda mamlakatimiz tijorat banklarida, umuman olgan bank tizmida menejment usllarini joriy etish zarurligi, uning mavjud kamchiliklarini ko‘rib chiqishga xarakat qilingan. Shuningdek bank operatsiyalarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan hamda ularning turlariga tavsiflar keltirilgan. Bank tizimini rivojlantirishda marketingning o‘rni beqiyosdir. Bank xizmatlari bank daromadlarini oshirishga, xususiy va korporativ banklar, hamda iqtisodiyotning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bank tadbirdorligining an'anaviy sohasi bo‘lib hisoblanadi.

Bank xizmati - bank operatsiyalarini o‘tkazishni optimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intelektual va professional bank faoliyatidir. Bank xizmati haqiqatdan ham bank faoliyati majmuasidir. Mijozlarning bank faoliyatiga bo‘lgan

talablarini qondirish bilan bogliq bo‘lgan xizmatlardir. Shu bilan bir qatorda biz bank xizmati tushunchasiga bank operatsiyalarini optimallashuvini ham muhim element sifatida kiritdik, chunki banklar xizmatning u yoki bu turini tanlashda ushbu operatsiyaning samaradorligi, qulayligi va sifatliligi darajasiga e’tibor berishlari va ushbu ko‘rsatkichlar uning raqobatbardoshligini ta’minlash asosi hisoblanishini his etmoqlari lozim.

Bank operatsiyasi - bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul mablag‘larini joylashishini nazarda tutuvchi va aniq iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bank va mijoz harakatlari majmui<sup>33</sup>. Bank xizmatlari bozori - bu mijozlar talabini qondirishga qaratilgan bank xizmati talabi va taklifining shakllanish sohasidir. Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan shu narsani sezish mumkinki, bank xizmatlari va operatsiyalari o‘rtasidagi farq asosan uning foyda olish va o‘z mavqeini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Yana shuni ta’kidlash kerakki, jahon xo‘jaligini globallashuvi tendensiyasi va xizmatlar sohasining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 53% dan 63% ga o‘sishi yirik transmilliy banklarining ta’siri va muomalasini o‘sishini rag‘batlantirdi.

Tijorat banklari tijorat xizmatlarining namunaviy portfeli vakillik munosabatlar, risklarni boshqarish, mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga xizmat ko‘rsatish sohalarida vakil banklar hisobidagi mablag‘lar qoldig‘i tufayli faoliyat yuritayotgan banklarni bank xizmatlari bozorida yuqori mavgeni egallahlariga va daromadini oshirishga imkon beradi.

Bank xizmatlarini (aktiv va passivlarini) boshqarish bankning faoliyat turlarini emas, balki uning maqsadi, mafkurasi va strategiyasini ta’rif - tavsif qiluvchi konsepsiyanı qabul qilish bilan boshlanishi lozim.

Endi banklarning zamonaviy operatsiyalaridan bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar bilan faoliyat olib borishini ko‘rib chiqamiz. Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini (securitization) jarayon sifatida tadqiq etsak, unda ikki toifadagi qimmatli qog‘ozlarni ajratmoq lozim. Birinchisi, qimmatli qog‘ozlar desak,

---

<sup>33</sup> Ларионова И.В. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. -М: «Консалтбанкир» 2003.

ikkinchisi qimmatli qog‘ozlarni qaytadan aktivlarga aylantirishdir. (Asset backed securitization, ABS). Qimmatli qog‘ozlar haqida iqtisodchi olimlar turlicha fikrlar bildirishgan.

Jumladan, tadqiqotchi olim Kamming (1987, Cumming), bu jarayonni qarz oluvchi va qarz beruvchini moliya bozorida “bir biriga uchrashadir” deb nomlagan<sup>34</sup>. Bu tushuncha quyidagi harakatlarni qamrab oladi: 1) firmalar, kompaniyalar tomonidan qimmatli qog‘ozlarni chiqarish; 2)qimmatli qog‘ozlarni bankdan tashqari institutlarga depozit qilish, ularning o‘zлari ham qimmatli qog‘ozlarni saqlaydi. 3)qimmatli qog‘ozlarni moliya bozorida sotish jarayonlaridir.(ABS)

Ta’kidlash joizki tijorat banklari tomonidan amalga oshiradigan bunday faoliyatni ularning vositachilik operatsiyalari deb qarash mumkin. Ushbu vazifani amalga oshirishda banklar bir nechta bosqichni o‘z ichiga oladi. Ular quyidagi alohida xizmatlar savatchasidan iboratdir:

- 1)kreditga muhtoj bo‘lgan bank mijozni topish; qarzning vujudga kelishi;
- 2)jamg‘aruvchilarga jozibador bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar fondini shakllantirish;
- 3)qarz jarayonini boshqarish va monitoring qilish; (qarz xizmatlari)
- 4) qarz beruvchining biznes portfelida qarzlarni saqlash, qarzlar omborini yaratish.

Dunyoning 27 davlati markaziy banklarini birlashtiruvchi Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi a’zolari “Bazel III” nomini olgan bank faoliyatida kapital va likvidlilikka nisbatan yangi xalqaro standartlarni ma’qullagach, bank sektorini tartibga solishda o‘zgarishlar tezlashib ketdi.

Bunga ko‘ra “Bazel III” talablari doirasidagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasi asosan banklar oldiga quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

- bank sektorining moliyaviy-iqtisodiy tanglikdan kelib chiqadigan inqirozlarga qarshi tura olish imkoniyatini yuksaltirish;
- risk-menejment va boshqaruva sifatini oshirish;

 banklarning shaffofligini (transparentligi) kuchaytirish.

### 2.3.1 - jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining pul kredit siyosati<sup>35</sup>

Ko‘rsatkichlar	Yillar					
	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Pul taklifi (M <sub>2</sub> )(mlrd so‘m.)	13978	18498	235777	29839	37005	39835
YaIM ga nisbatan (foizda)	22,4	23,5	23,5	24,4	24,2	23,2

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bank sektorini tartibga solish tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligini ko‘rsatgan holda, tijorat banklariga katta moliyaviy talofat yetkazdi. Bunga javoban, bank tizimini isloh etish, xususan, uni tartibga solishga nisbatan yangicha yondashuvlar, talablar ilgari surila boshladi. Shu talablardan kelib chiqqan holda Markaziy Bank monetar siyosatni amalaga oshirdi va banklarning samarali ishlashi uchun sharoit yaratdi.

### 2.3.2 - jadval

#### O‘zbekistondagi banklariga Moodys tomonidan qayd qiladigan

#### asosiy (13 ta bank bo‘yicha)reyting ko‘rsatkichlari

Nº	Reyting ko‘rsatkichlari
1.	Daromad/riskli o‘rtacha aktivlar
2.	Sof daromad/RO‘A
3.	Bozor fondlari – Likvid aktivlar /jami aktivlar
4.	Likvid aktivlar /jami aktivlar
5.	Xarajatlar / daromadlar
6.	Tier/ nisbat
7.	Jami moddiy aktivlar/RO‘A
8.	Muammoli qarzlar / Qarshi qarzlar
9.	Muammoli qarzlar / aksiyadorlarning kapitali+ qarzlarni qoplash zaxirasi

<sup>35</sup> [www.adb.org/statistics](http://www.adb.org/statistics)

Shuni ta'kidlash zarurki O'zbekistondagi tijorat banklaridan Moody's reytingiga banklar soni 13 ta bo'lsada ular tomonidan boshqarilayotgan aktivlarning miqdori jami bank aktivlarining 67 foizini tashkil qilgan.

### 2.3.2 - jadval

**O'zbekistonning reytingda qatnashgan banklarining operatsion tushumlari tuzulmasi**

<b>№</b>	<b>Reyting ko'rsatkichlari nomi</b>	<b>Ko'rsatkichlar (foizda)</b>
<b>1.</b>	Sof daromad	<b>39</b>
<b>2.</b>	Sof ustama va komissiyalar (Fees)	<b>36</b>
<b>3.</b>	Chet el valyutasini ayrboshlash	<b>12</b>
<b>4.</b>	Boshqa daromadlar	<b>13</b>

O'zbekiston Respublikasi banklarining 2012 yil oxiridagi mulkchilik shakli bo'yicha davlat nazoratidagi banklari –73%, chet el kapitali ishtirokidagi banklar –8 % va xususiy banklar –19% ni tashkil etgan.

### 2.3.4 - jadval

**Xalqaro reyting agentliklari tomonidan tijorat banklariga berilgan reyting baholari to'g'risida ma'lumot<sup>36</sup>**

<b>№</b>	<b>Banklar nomi</b>	<b>Reyting agentligi nomi</b>	<b>Reyting bahosi</b>
1.	O'zmilliybank	«Mudis» «Standart end Purs»	«Barqaror»
2.	Asakabank	«Mudis» «Fitch Reytings»	«Barqaror» «Barqaror»
3.	Xalqbanki	«Standart end Purs»	«Barqaror» «Barqaror»
4.	O'zsanoatqurilishbank	«Standart end Purs» «Fitch Reytings»	«Barqaror»
5.	Qishloqqurilishbank	«Mudis»	«Barqaror» «Barqaror»
6.	Agrobank	«Fitch Reytings» «Mudis»	«Barqaror» «Barqaror»
7.	Mikrokreditbank	«Fitch Reytings»	«Barqaror» «Barqaror»
8.	Ipotekabank	«Mudis» «Standart end Purs»	«Barqaror»
9.	Aloqabank	«Mudis»	«Barqaror» «Barqaror»
10.	Ipakyo'libank	«Mudis» «Fitch Reytings»	«Barqaror»
11.	Aziyaalyansbank	«Mudis»	«Barqaror» «Barqaror»
12.	Turonbank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
13.	Hamkorbank	«Mudis»	«Barqaror» «Barqaror»
14.	Kapitalbank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
15.	KDB Bank O'zbekiston	«Standart end Purs»	«Barqaror» «Barqaror»
16.	UT bank	«Mudis»	«Barqaror»

<sup>36</sup> www.cbu.uz

17.	Savdogarbank	«Mudis»	«Barqaror»
18.	Trastbank	«Fitch Reytings»	«Barqaror»
19.	Universalbank	«Fitch Reytings»	«Barqaror»
20.	Davrbank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
21.	Investfinansbank	«Mudis»	«Barqaror»
22.	Xaytekbank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
23.	Orientfinansbank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
24.	Turkistonbank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
25.	Ravnaqbank	«Standart end Purs»	«Barqaror»
26.	Eronsoderotbank	«Ekspert RA»	«Barqaror»

(Manba : Moody/ Markaziy bank ma'lumoti)

Moody tomonidan reyting qilingan (13 ta bank) banklarning soxalar bo'yicha tarkibiy tuzilmasi:

- Sanoat korxonalari 44%
- Qishloq xo'jaligiga 8%
- Transport va kommunikatsiya 13%
- Qurilish 3%
- Savdo va umumiylar 10%
- Texnik xizmat va takliflar 2%
- Gaz, suv va boshqa 2%
- Individual shaxslarga  
( ipoteka kreditlari kirmaydi) 5%
- Individual ipoteka kreditlari 9%
- Boshqa kreditlar 4%

### 2.3.5 - jadval

#### O'zbekiston banklarining global reytingi (2021 yil)

Banklar nomi	Reyting agentligi nomi	Reyting bahosi
O'zmilliyybank	«Mudis» «Standart end Purs»	«Barqaror»
Asakabank	«Mudis» «Fitch Reytings»	«Barqaror» «Barqaror»
Xalq banki	«Standart end Purs»	«Barqaror» «Barqaror»

<b>O‘zsanoatqurilishbank</b>	«Standart end Purs» «Fitch Reytings»	«Barqaror»
<b>Qishloq qurilish bank</b>	«Mudis»	«Barqaror» «Barqaror»
<b>Agrobank</b>	«Fitch Reytings» «Mudis»	«Barqaror»
<b>Mikrokreditbank</b>	«Fitch Reytings»	«Barqaror» «Barqaror»
<b>Ipotekabank</b>	«Mudis» «Standart end Purs»	«Barqaror»
<b>Aloqabank</b>	«Mudis»	«Barqaror» «Barqaror»
<b>Ipak Yo‘li banki</b>	«Mudis» «Fitch Reytings»	«Barqaror»
<b>Aziya Al'yans bank</b>	«Mudis»	«Barqaror» «Barqaror»
<b>Turonbank</b>	«Standart end Purs»	«Barqaror»
<b>Hamkorbank</b>	«Mudis»	«Barqaror»
<b>Kapital bank</b>	«Standart end Purs»	«Barqaror»
<b>KDB Bank O‘zbekiston</b>	«Standart end Purs»	«Barqaror»
<b>Ziraat bank</b>	«Mudis»	«Barqaror»
<b>Savdogarbank</b>	«Mudis»	«Barqaror»
<b>Trastbank</b>	«Fitch Reytings»	«Barqaror»
<b>Universalbank</b>	«Fitch Reytings»	«Barqaror»
<b>Davrbank</b>	«Standart end Purs»	«Barqaror»
<b>Invest Finans bank</b>	«Mudis»	«Barqaror»
<b>Xay-Tek bank</b>	«Standart end Purs»	«Barqaror»
<b>Oriyent Finans bank</b>	«Standart end Purs»	«Barqaror»
<b>Turkistonbank</b>	«Standart end Purs»	«Barqaror»

<b>Ravnaqbank</b>	«Standart end Purs»	«Barqaror»
<b>Eron Soderot bank</b>	«Ekspert RA»	«Barqaror»

Moody's xalqaro tashkilotining (agentligning) O'zbekiston Respublikasi banklarining xolatini taxli shuni ko'rsatadiki banklar barqarorlik jihatidan xalqaro talablarga javob beradi ammo xizmatlar turini diversifikatsiya qilish, ularning sifatini oshirish sohasida ancha ishlarni amalga oshirishlari lozim. Jumladan, ilg'or banklar balansdan tashqari bo'lgan ko'pgina faoliyatlarni amalga oshiradi va asosiy foyda qismini u tariqasidagi faoliyatlardan oladi.

Rivojlangan mamlakatlardagi zamonaviy banklar quyidagi balansdan tashqari operatsiyalarini bajaradi va ular quyidagi jadvalda jamlangan

### 2.3.6 - jadval

#### Yevropa banklarning balansdan tashqari faoliyatları<sup>37</sup>

<b>Mijozlar talablari</b>	Qarz majburiyatları Loyiha majburiyatları Kredit liniyalari Tijorat talabiga asosnoma Kredit olishga garovnama Kredit yo'naliishini qayta kurib chiqish Depozit kelishuviga javobnama Qayta sotib olish kelishuvlari Sug'urta imkoniyatlariga izoh berish
<b>Moliyaviy xizmatlar</b>	Qarzga tegishli xizmatlar Qarzlarni vujudga keltirish Qarz berish xizmati Qarzni boshqaga o'tkazish Asosiy vositalarni resursiz sotish Qarzda qatnashishni sotish Sindikat qarzlar bo'yicha agentlik
<b>Kafolatlar</b>	Qabul qilishlar Kreditga ishonchnoma xatini berish Asosiy vositalarni resurs sifatida sotish Kreditga tijorat xatlari Kafolotlar va qarzlar To'lovlar SVOP va xedjing transaksiyalari Oldindan chet el valyutasini almashtirish kontraktlari

<sup>37</sup> Kent Mathews and John Tompson. The economics of banking.Third edition.“WILY”, 2014.p.15

	Valyuta tushumlari Valyuta turlari Valyutalar ayirboshlash svopi Foiz stavkalari svopi Interest rate caps, collars and floors
<b>Ishonch va maslahat xizmatlari</b>	Portfolio menejmenti Investitsiyalash maslahati xizmatlari Qo'shilish va sotib olishni tashkillashtirish Soliq va moliyaviy rejalashtirish Ishonch va mulk menejmenti Nafaqa rejasi menejmenti Ishonchnomalar Omonat saqlash Ofshor moliyaviy xizmatlar
<b>Brokerlik/agentlik xizmatlari</b>	Ulushlar va aksiyalar brokerligi Mulk fondi brokerligi Umumi sug'urta brokerligi Ko'chmas mulk agentligi Turistik agentligi
<b>Investitsiya banki faoliyati</b>	Kafolat va qarzdan kechishlar Qimmatli qog'ozlar dileri/tarqatish Oltin va tovarlarni sotish
<b>Eksport –import xizmatlari</b>	Korespondent bank xizmati Savdo qilishga maslahat berish Ekportni sug'urtalash xizmati Savdo tarmog'i almashuvlari
<b>To'lov xizmatlari</b>	Ma'lumotlarni qayta ishslash Tarmoqni tashkil etish Cheklarni to'lash uyi xizmatlari Kredit/debit kartochkalari Sotish mashinalari darchalari Uy va onlayn bank ishi Naqd to'lov tizimi menejmenti

Banklar orasidagi raqobat shunga olib keldiki, rivojlangan mamlakatlar banklari xizmat va mahsulot turlarini diversifikatsiya qildilar, natijada banklar umumi daromadlarining yarmisi balansdan tashqaridagi faoliyatdan tushmoqdalar.Jumladan, 2012 yilgi ma'lumotlarga binoan Fransiya banklarining 48,5 foiz, Germaniya banklarining 22 foiz, Shvesariya banklarining 74,2 foiz,Buyuk Britaniya banklarining 42,1 foiz va AQSh banklarining 51,3 foiz daromadlari foizdan tashqari daromadlar edi.<sup>38</sup>

---

<sup>38</sup> Kent Mathews and John Tompson. The economics of banking.Third edition.“WILY”, 2014.p.16

2022-yilning yanvar-noyabr oylari davomida to‘lov terminallari orqali tushgan pul mablag’lari tushumlari miqdori bo‘yicha O‘zbekiston tijorat banklari quyidagicha bo‘ldi (million so‘mda):

**2-jadval**

**O‘zbekiston tijorat banklari 2022-yilning yanvar-noyabr oylari davomida to‘lov terminallari orqali tushgan pul mablag’lari tushumlari to`g`risida ma'lumot**

1	Aloqabank	35 953 180	22,7%
2	Ipoteqa bank	11 763 127	7,4%
3	Milliy bank	9 703 978	6,1%
4	Xalq bank	9 594 861	6,1%
5	Kapitalbank	7 934 784	5,0%
6	Hankorbank	7 262 260	4,6%
7	O’zsanoatqurilishbanki	7 079 544	4,5%
8	Agrobank	6 706 265	4,2%
9	Trastbank	6 503 427	4,1%
10	Mikrokreditbank	6 087 204	3,8%
11	Ipak Yo’li banki	5 963 610	3,8%
12	Universalbank	5 558 621	3,5%
13	Asaka bank	5 286 240	3,3%
14	Asia Alliance bank	5 205 536	3,3%
15	Turonbank	4 023 904	2,5%
16	Orient Finance bank	4 015 840	2,5%
17	Invest Finance bank	3 992 435	2,5%
18	Qishloq qurilish bank	3 893 456	2,5%
19	Davr bank	3 846 435	2,4%
20	Garant bank	1 570 833	1,0%
21	Bank Apelsin	1 568 957	1,0%
22	TBC bank	1 396 944	0,9%
23	Ravnaq bank	1 037 650	0,7%
24	Tenge bank	755 924	0,5%
25	Soderot bank Toshkent	503 047	0,3%
26	Ziraat Bank Uzbekistan	388 170	0,2%
27	KDB Bank Ubekistan	357 301	0,2%
28	Anor bank	252 983	0,2%
29	Poytaxt bank	114 188	0,1%
30	Madad Invest bank	54 946	0,0%
31	Hi-Tech bank	36 195	0,0%
32	Turkistonbank	35 586	0,0%
33	O’zagroeksportbank	10 503	0,0%

Bank plastik kartalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida so‘nggi 5 yil davomida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 2,4 barobardan ziyodga oshdi va 2017 yil 1

yanvar holatiga ularning umumiy soni 19,4 mln. donadan ortiqni tashkil etdi (3-jadval). Demak muamola uchun chiqarilgan to‘lov plastik kartochkalar soni keyingi olti yil ichida 2,3 barobarga ortishi natijasida pulning aylanish tezligi o‘sdi va xizmat ko‘rsatish san’ati yuksaldi.

### 3-jadval

#### **Tijorat banklarining kredit va depozitlar to`g`risida 2024-yil 1-fevral holatiga ma'lumot**

№	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan	
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
	<b>Jami</b>	<b>469 600</b>	<b>149 894</b>	<b>319 706</b>	<b>242 119</b>	<b>83 590</b>	<b>158 530</b>
	<b>Davlat ulushi mavjud banklar</b>	<b>329 591</b>	<b>76 788</b>	<b>252 803</b>	<b>125 111</b>	<b>35 974</b>	<b>89 137</b>
1	O‘zmilliybank	97 672	14 161	83 510	31 544	9 615	21 930
2	O‘zsanoatqurilishbank	56 746	7 837	48 910	14 880	3 914	10 966
3	Agrobank	54 350	9 681	44 669	14 956	6 995	7 961
4	Asaka bank	38 678	7 978	30 701	15 904	4 056	11 848
5	Xalq banki	24 314	15 750	8 564	17 853	3 328	14 525
6	Biznesni rivojlantirish banki	21 529	10 619	10 910	9 072	1 659	7 413
7	Mikrokreditbank	14 260	5 232	9 028	6 286	1 640	4 646
8	Turon bank	11 815	2 526	9 289	4 888	1 572	3 316
9	Aloqa bank	10 150	2 979	7 171	9 679	3 190	6 489
10	Poytaxt bank	77	27	50	49	7	42
	<b>Boshqa banklar</b>	<b>140 009</b>	<b>73 106</b>	<b>66 903</b>	<b>117 008</b>	<b>47 616</b>	<b>69 392</b>
11	Ipoteka-bank	37 893	21 856	16 037	16 924	3 576	13 347
12	Kapital bank	26 910	19 127	7 784	30 964	16 184	14 780
13	Hamkorbank	16 009	7 021	8 987	7 981	4 372	3 609
14	Ipak yo‘li bank	12 004	2 535	9 468	7 849	2 570	5 278
...	.....	....	....	....	....	....	....
35	Smart bank	0,2	0,2	0,0	6	6	0,1

Agar 2010 yilda tijorat banklarining kredit qo‘yilmalari atigi 8,6 trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa u 2022 yilga kelib 53,4 trillion so‘mni tashkil etdi, yoki davr oralig‘ida 6,3 baravarga oshdi.

Bu esa mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiyalash, yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun zamin yaratdi.

Jumladan, natijada tijorat banklarining investitsion kreditlar portfeli anchaga kengaydi. So‘ngi besh yilda bu ko‘rsatkich 3.2 mlrd.so‘mdan 12,2 mlrd.so‘mga yetdi.

Moliyaviy ta'minotni baholash bo'yicha ishlab chiqilgan modelni O'zbekiston Respublikasining beshta tijorat banki: "O'zbekiston Milliy banki" AJ (O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki, "O'zsanoatqurilishbank" ATB (O'zsanoat qurilish banki), "Kapitalbank" ATB, Xalq banki ATB, "Agrobank" ATB misolida sinab ko'rilib (4-jadval).

#### 4-jadval

#### **O'rganilayotgan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 2022-yilga mo'ljallangan iqtisodiy ko'rsatkichlari**

Bank nomi	Aktiv		Kredit		Kapital			Depozit
	summa	jamidan foizi	summa	jamidan foizi	summa	jamidan foizi	summa	jamidan foizi
O'zmilliybank AJ	89 919	20,2%	74 033	22,7%	14 769	20,8%	22 083	14,1%
O'zsanoat qurilishbank ATB	56 511	12,7%	43 148	13,2%	7 701	10,9%	12 607	8,1%
Kapitalbank ATB	50 804	11,4%	37 685	11,5%	6 505	9,2%	10 729	6,9%
Agrobank ATB	40 012	9,0%	29 046	8,9%	5 087	7,2%	15 824	10,1%
Xalq banki ATB	39 971	9,0%	32 258	9,9%	9 346	13,2%	11 839	7,6%

O'rganilayotgan O'zbekiston Respublikasi banklarining 2022-yilga mo'ljallangan barqarorligining mikro- va makromuhit omillari O'zbekiston Respublikasi ma'lumotlari asosida 7-jadval bo'yicha hisoblab chiqilgan.

#### 5-jadval

#### **«O'zmilliybank» AJ da barqarorlik darajasining o'zgarish dinamikasi<sup>11</sup>**

Ko'rsatkichlar	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
<b>Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari</b>									
Joriy likvidlilik koeffitsiyenti	0,76	1,47	1,29	1,04	0,63	0,45	0,51	0,50	0,29
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	0,47	0,41	0,35	0,29	0,22	0,18	0,19	0,09	0,18
O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	1,38	1,48	0,61	0,80	0,73	0,87	0,51	0,29	0,75
Aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti	0,877	0,86	1,05	1,01	1,01	1,03	1,02	1,06	1,03
Ishchanlik faolligi ko'rsatkichlari	1,09	1,09	1,11	1,22	1,21	1,08	1,03	1,07	1,08
Korxona mulki hajmining oshish sur'ati	0,00	0,00	0,00	0,02	0,003	0,002	0,02	0,07	0,03

<sup>11</sup> «O'zmilliybank» AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

<b>Ko`rsatkichlar</b>	<b>2015 y.</b>	<b>2016 y.</b>	<b>2017 y.</b>	<b>2018 y.</b>	<b>2019 y.</b>	<b>2020 y.</b>	<b>2021 y.</b>	<b>2022 y.</b>	<b>2023 y.</b>
Iqtisodiy xavfsizlik koeffitsiyenti	0,61	0,88	0,58	0,48	0,36	0,29	0,22	0,18	0,29
<b>Kadrlar salohiyati ko`rsatkichlari</b>									
Malakaga ega kadrlar koeffitsiyenti	1,01	1,19	1,05	1,16	1,08	1,24	1,01	0,89	1,11
Kadrlar qo`nimliligi koeffitsiyenti	0,011	0,09	0,008	0,009	0,009	0,013	0,012	0,011	0,009
Kadrlarning ichki tartib qoidalariga amal qilish koeffitsiyenti	0,09	0,08	0,18	0,19	0,16	0,09	0,08	0,07	0,10
<i>Kadrlar salohiyati koeffitsiyenti</i>	0,27	0,38	0,36	0,45	0,35	0,44	0,28	0,26	0,37
<b>Texnik-texnologik barqarorlik ko`rsatkichlari</b>									
Bankning zamonaviy IT-texnoligiyalar bilan ta`minlanganligi	0,46	0,43	0,46	0,48	0,71	0,98	0,65	0,58	0,74
Mobil Banking tizimini rivojlanishi (Milliybank ilovasi)	0,53	0,57	0,61	0,58	0,49	0,36	0,41	0,43	0,0000
Plastik kartalari xavfsizlik tizimlarini kiberxujumlarga bardoshliligi	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0022	0,0048	0,016	0,33
<i>Texnik-texnologik barqarorlik koeffitsiyenti</i>	0,33	0,34	0,36	0,35	0,40	0,45	0,35	0,34	0,40
<b>Raqobatbardoshlik ko`rsatkichlari</b>									
Jismoniy mijozlarni oshishi	0,04	0,04	0,05	0,06	0,05	0,04	0,045	0,051	0,05
Yuridik mijozlarni oshishi	0,0009	0,0005	0,0006	0,0006	0,0000	0,0013	0,041	0,024	0,013
<i>Raqobatbardoshlik ko`rsatkichi</i>	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0003	0,0004	0,0045
Bankning barqarorlik darajasi	0,36	0,52	0,56	0,51	0,46	0,49	0,56	0,71	1,07

2015-2023 yillarda «Milliy bank » AJda moliyaviy-iqtisodiy barqarorlik to`liq ta'minlanmagan bo`lsa-da, 2022 yilda barqarorlik darajasiga yaqinlashgan. Jumladan, bu ko`rsatkich 2023 yilda o`tgan yilga nisbatan 30 %ga, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash tizimini joriy etishdan oldingi yilga nisbatan esa 2 martaga oshgan. Buni asosan tijorat bankida texnik va texnologik modernizatsiya qilish chora-tadbirlar hamda bankning plastik kartalari xavfsizligini ta'minlash mexanizmini joriy qilish samaradorligi bilan izohlash mumkin (5-jadval).

Aniqlangan natija taxminan 0 bilan 1-2 ning o`rtasida bo`ladi, natija birdan qancha yuqori bo`lsa, korxonada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash tizimi samaradorligi shuncha yuqori hisoblanadi. Yig`ma ko`rsatkich hisoblangach, kimyo

sanoati korxonalarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash darajasini tahlil qilish uchun tegishli shkala ishlab chiqilgan.

### **Ikkinchi bob bo'yicha qisqacha xulosalar**

1. Banklar tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish indikatorlari, jumladan, bank xizmatlaridan foydalanish darajasi har 100 ming (kata yoshli) aholiga to'g'ri keladigan bank muassasalari soni 49,7 tani tashkil yetib (30 tadan ko'pi yuqori bahoga to'g'ri keladi), «yuqori daraja» va har mingta kata yoshli aholiga to'g'ri keladigan jismoniy shaxs-omonatchilar hisob varag'i soni 1028 birlikni tashkil yetib, bu bo'yicha ham (1000 tadan ko'pi) «yuqori daraja» baholariga muvofiq kelmoqda.

2.Tadbirkor uchun aylanma mablag'larining alternativ qiymati asosiy fondlarning zaxiralari miqdori bilan o'lchanadi. Tadbirkorlarning oborot mablag'larga bo'lgan ehtiyoji kredit resurslariga muhtojligi va ularni olishning murakkablik darajasiga bog'liq. Tadbirkorlar kredit mablag'lardan qanday foydalanganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki 60 foiz tadbirkorlar qisqa muddatli kredit olish imkoniyatidan foydalanganlar. Statistik kuzatuv ma'lumotlarini tahlil qilganda shu narsa ayon bo'ldiki, bank kreditlariga murojaat qiluvchi ba'zi tadbirkorlar garovga qo'yish uchun asosiy mulklari bo'limganligidan, ular qarz olish imkoniyatiga ega emas ekanlar. Ba'zi tadbirkorlar transport vositalari yoki o'zining uyiga ega ekanligi bilan cheklanganlar. Kuzatuvda ishtirok etgan tadbirkorlarning 19,7 foizi transport vositalarini va 77,6 foizi o'zining uyini garovga qo'yishi mumkin ekan.

3. Bugungi kunda respublikamizda pul-kredit orqali tartibga solishning ochiq bozordagi operatsiyalar usuli tobora taraqqiy etib bormoqda. Markaziy bankning ushbu operatsiyalari asosan davlatning qimmatli qog'ozlarini sotish va sotib olish ko'rinishida amalga oshirilmoqda. Bu unga pul-kredit orqali tartibga solishda ochiq bozordagi operatsiyalardan yanada faolroq foydalanish imkonini bermokda. Markaziy bankning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun tijorat banklarining yuqori likvidliligi va to'lov qobiliyatining mustahkamligi talab etiladi. Markaziy bank tijorat

banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmokda.

4. Tijorat banklari vujudga kelganidan boshlab ularning likvidligini ta'minlash va boshqarish muammosi paydo bo'ldi. Bank tizimining nolikvidligi makroiqtisodiy siyosatning barqarorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki tijorat banklari har kuni o'zaro bog'liq bir necha masalalarni yechmoqlari lozim:

- a) o'z operatsiyalarining foydaliliga erishish;
- b) likvidlik darajasini zarur darajada saqlash;
- v) to'lov qobiliyatini mustaxkamlash va boshqalar.

Ammo shuni ta'kidlash lozimki bankning daromadliligi va likvidligi o'zaro teskari mutanosibdir. Yuqori likvidlikni ta'minlash bankning yuqori daromadlikka erishish maqsadiga ziddir, chunki likvidli aktivlar nolikvid aktivlarga nisbatan foiz daromadlarini kam keltiradilar. Boshqa tomondan yuqori foydaga erishish maqsadida aktiv siyosat yurgizaetgan banklar likvid aktivlarini mumkin bo'lgan minimal darajada ushlab turish tenedensiyasiga ega bo'ladilar. Likvidlik va daromadlik o'rtaсидagi bunday o'zaro bog'liqlik bank siyosati noratsional tuzilgan sharoitda yuqori likvidlik mavjud holda uning norentabelligiga yoki xatarli darajada past bo'lgan likvidlik sharoitida bankning yuqori daromadligiga olib kelishi va bu uning bankrotligiga sabab bo'lishi mumkin.

5. Respublika Markaziy Banki tomonidan tijorat banklarining likvidligini ta'minlash va ularning to'lov qobiliyatini mustahkamlash bank omonatchilarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyati uchun iqtisodiy me'yorlar o'rnatish orqali tijorat banklarining inqirozga uchrashini oldini olish maqsadida yuqori xatarga ega bo'lgan va ularni likvidligini pasayishiga olib keladigan operatsiyalarini qonuniy ravishda chegaralaydi.

### **III.BOB. TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA`MINLASHNING MOLIYAVIY STRATEGIYALARI**

#### **3.1. Tijorat banklarining moliyaviy vositachiliginini faollashtirish yo'llari**

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonda mamlakatning birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan va uning bevosita ishtirokida Inqirozga qarshi Dastur ishlab chiqilgan bo'lib, unda iqtisodiyotning eksport salohiyati o'sishi, uning raqobatbardoshligini tubdan oshirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashga yo'naltirilgan eng muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalshtirilgan. Inqirozga qarshi Dasturni amalga oshirish doirasida yoqilg'i-energetika, kimyo, neftni qayta ishslash, metallurgiya tarmoqlarida, yengil va to'qimachilik sanoati, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida 500 dan ortiq investitsion loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash o'rinniki, "Bazel III" nomi bilan atalayotgan yangi standartlar amaldagi "Bazel II" talablarini inkor etmagani holda, uning yangi tahriri ham emas. Boshqacha aytganda, bu ikki konsultativ hujjat bir paytning o'zida, parallel ravishda muomalada bo'ladi.

Bazel qo'mitasi a'zolari "Bazel III" borasida ilk bor 2009 yilning sentyabr oyida kelishib olgan bo'lib va qo'mita tomonidan 2009 yilning dekabriga kelib aniq tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, Bazel qo'mitasining 2009 yil 8-9 dekabrdagi yig'ilishida qator tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan hujjatlar ("Bank sektori barqarorligini oshirish", "Likvidlilik riskini o'lchash, standartlar va monitoring bo'yicha xalqaro yondashuvlar") ma'qullandi. Ta'kidlash lozimki, mazkur hujjatlarda ifoda etilgan yondashuvlar Moliyaviy barqarorlik kengashi tomonidan, shuningdek, Katta yigirmatalik davlatlar guruhining Pitsburgdagi 2009 yil sentyabrdagi sammitida ham maqbul deb topilgan.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining konsultativ hujjatlaridagi yangi tavsiyalar inqiroz saboqlarini hisobga olgan holda banklarda nazorat va risklarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan.

Binobarin, bank kapitali va likvidliligin tartibga solish xususida quyidagilar tavsiya etilishi belgilandi:

- bank kapitali sifati va shaffofligini oshirish yuzasidan amaldagi standartlarni (Bazel II) qayta ko‘rib chiqish, xususan, I darajali kapitalning muhim va yetakchi shakllari sifatida oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foydaga ustuvorlik berish;
- sekyuritizatsiyalangan pozitsiyalar bo‘yicha bank kapitaliga nisbatan qo‘shimcha talablarni belgilash;
- kapital yetarliligin baholovchi qo‘shimcha ko‘rsatkich – leveej (leverage ratio) koeffitsientini (o‘z mablag‘lari va qarz mablag‘lari nisbati) kiritish. Bunda koeffitsientning o‘rtacha choraklik darajasi hisoblanadi va dastlabki bosqichda uning me’yoriy darajasi 3 foiz etib belgilangan;
- siklik salbiy ta’sirni kamaytirish maqsadida iqtisodiy o‘sish fazasida regulyativ kapitalga qo‘yilgan minimal talablardan oshadigan kapital zaxirasini shakllantirishga nisbatan qo‘shimcha talablarni joriy etish, shuningdek, ehtimoli mavjud yo‘qotishlarga nisbatan zaxiralarni shakllantirish;
- xalqaro bozorlarda faoliyat yurituvchi banklar uchun likvidlilikni boshqarish bo‘yicha qo‘shimcha talablarni, xususan, yaqin 30 kun mobaynida bankning o‘z faoliyatini davom ettirish qobiliyatini baholash imkonini beruvchi minimal likvidlilik koeffitsientini (liquidity coverage ratio), shuningdek, 1 yillik vaqt diapazonida bank likvidliligin baholash imkonini beradigan uzoq muddatli likvidlilik (longer-term structural liquidity ratio) koeffitsientini joriy etish.

Bundan tashqari, qo‘mitaning 2009 yil dekabrdagi tavsiyalariga ko‘ra, bankning boshqa moliyaviy muassasalar oddiy aksiyalariga qo‘yilmalari bank oddiy aksiyalarining 10 foizidan oshadigan bo‘lsa, qo‘yilmalarning 10 foizdan ortgan qismi hisobga olinmaydi.

Bazel qo‘mitasining yuqorida qayd etilgan hujjatlari qo‘mitaning joriy moliyaviy inqirozga nisbatan javobi bo‘lib, jahon moliya sektorini tartibga solish tizimini takomillashtirish bo‘yicha Katta yigirmatalik davlatlari tomonidan olg‘a surilgan global tashabbuslarning bir qismi hamdir.

Bazel qo‘mitasining 2010 yil iyul oyidagi yig‘ilishida bank sektorini tartibga solish bo‘yicha islohotlar dasturining asosiy elementlari kelishib olindi. Bunda Bazel qo‘mitasining “Bazel III” bo‘yicha 2009 yil dekabrda ma’qullangan versiyasi biroz yengillashtirdi. Jumladan, banklarga kapitalning 15 foizidan oshmaydigan miqdorda konsolidatsiyalashmagan moliyaviy muassasalarning oddiy aksiyalariga “sezilarli” (ya’ni ustav kapitalining 10 foizidan ko‘p) investitsiyalar qilishga, foyda solig‘ini kamaytirish imkonini beradigan aktivlarni (DTAs – deferred tax assets) shakllantirish va ipoteka kreditlariga xizmat ko‘rsatish huquqiga (Mortgage servicing rights) ega bo‘lishga ruxsat berildi. Ta’kidlanganidek, tijorat banki yuqoridagi uch vosita yalpi qiymatining bankning I darajali kapitali tarkibidagi oddiy aksiyalar qiymatining 15 foizidan oshadigan qismini hisobga olmasligi lozim.

Shuningdek, Bazel qo‘mitasi tomonidan bank faoliyatida uzoq muddatli likvidlilikni tartibga solish maqsadida sof barqaror mablag‘lar koeffitsientini (net stable funding ratio) joriy etish masalasi ham qo‘yilgan bo‘lib, bu borada yakuniy to‘xtamga kelinmagan. Shunga qaramay, sof barqaror mablag‘lar koeffitsientining yangicha variantini minimal standart sifatida 2018 yilning yanvar oyidan kiritish ko‘zda tutilgan.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, bank tizimida 2013 yildan boshlab kapitalni tartibga solishda jiddiy o‘zgarishlar yuz berishi kutilmoqda. Xususan, kapital sifatiga bo‘lgan talab keskin oshadi.

2013 yilning 1 yanvaridan boshlab, tijorat banklari riskka tortilgan aktivlarga nisbatan quyidagi minimal talablarni bajarishlari lozim:

- 3,5 foiz (Oddiy aksiyalar/ Riskka tortilgan aktivlar);
- 4,5 foiz (Birinchi darajali kapital / Riskka tortilgan aktivlar);
- 8,0 foiz (Umumiy kapital / Riskka tortilgan aktivlar).

I darajali kapitalning yetarliliqi darajasi 2015 yildan boshlab, 6 foiz etib belgilandi. Ayni paytda, yangi standartlarga o‘tish mobaynida bazaviy kapitalning me’yoriy darajasi 4,5 foizga ortadi. Bunda bazaviy kapital oddiy aksiyalar, taqsimlanmagan foyda va oddiy aksiyalarni joylashtirishdan olinadigan emission daromaddan tashkil topadi.

Bundan tashqari, sof foydadan shakllantiriladigan maxsus zaxira kapitaliga (Capital conservation buffer) minimal talabni 2016 yildan o‘tish davri so‘nggi –2019 yilgacha bosqichma-bosqich joriy etish rejalashtirilgan. Uning me’yoriy darajasi o‘tish davri tugagach, 2,5 foizdan kam bo‘lmasligi lozim (jadval- qarang). Keyinchalik esa kapital tarkibida yana bir qo‘sishimcha zaxira – kontrosiklik buferni ham joriy etish nazarda tutilgan bo‘lib, hozirda u muhokamalar ob’ektiga aylangan.(3.1.1 -jadval)

### 3.1.1 - jadval

**Bank kapitali bo‘yicha “Bazel III” talablarini joriy etish muddatlari (har bir yilning 1 yanvar holatiga)<sup>39</sup>**

Ko‘rsatkichlar nomi	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.
Oddiy aksiyalarga minimal talab (Minimum Common Equity Capital Ratio)	3,5%	4,0%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%
Maxsus zaxira kapitali (Capital Conservation Buffer)				0,625%	1,25%	1,875%	2,50%
Oddiy aksiyalarga minimal talab + Maxsus zaxira kapitali	3,5%	4,0%	4,5%	5,125%	5,75%	6,375%	7,0%
I darajali kapitalga minimal talab (Minimum Tier I Capital)	4,5%	5,5%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%
Umumiy kapitalga minimal talab (Minimum Total Capital)	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%
Umumiy kapitalga minimal talab + Maxsus zaxira kapitali	8,0%	8,0%	8,0%	8,625%	9,25%	9,875%	10,5%

Manba:

---

<sup>39</sup> www.cb.uz

Qator rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda “Bazel III” standartlarini 2013 yildan boshlab joriy etish mo‘ljallanayotgan bo‘lib, har bir davlat milliy bank tizimining yangi talablarga qanchalik javob berishi xususida qayg‘urmoqda.

Ayni paytda, bank muassasalarini bufer kapitalni shakllantirish talablarini bajarmagunga qadar bonus va dividend to‘lovlarini cheklashlari talab etalidi. Bundan tashqari, kapital yetarlilagini hisoblashda qoldirilgan soliqlar, boshqa moliya institutlariga institutlar va boshqa qo‘srimcha vositalarning kiritilishi amaliyoti astasekin bekor qilinadi.

Ta’kidlash lozimki, “Bazel-III” talablari Yevropa bank sektoriga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Yevropa banklarining 2010 yil hisobot ma’lumotlariga asoslanadigan bo‘lsak, 2019 yilgacha yangi Bazel talablarini joriy etish uchun qo‘srimcha ravishda 1,1 trln. yevro miqdoridagi I darajali kapital, 1,3 trln. yevro qisqa muddatli likvidlilik va 2,3 trln. yevro uzoq muddatli likvidlilik talab etiladi.

Yangi xalqaro talablarning joriy qilinishi oqibatida bank xizmatlarining qimmatlashishi, foydalilik ko‘rsatkichlarining pasayishi kutilmoqda. Xususan, boshqa sharoitlar o‘zgarmagan holatda, Bazel- III talablari o‘rtacha bank uchun kapital rentabelligini (ROE – return on equity) Yevropada qariyb 4 foizga, AQShda esa 3 foizga pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin<sup>40</sup>.

Bundan tashqari, yangi Bazel talablarining chakana, korporativ va investitsion bank xizmatlari segmentlariga ta’siri turlicha. Garchi chakana banklar kamroq ta’sirni boshdan kechirsalarda, ushbu sohaga ixtisoslashgan kichik kapitalga ega bo‘lgan bank muassasalarini sezilarli bosim ostida qolishi mumkin. Shuningdek, korporativ banklar asosan maxsus kredit va savdo operatsiyalarini moliyalashtirishda muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirishi mumkin.

Investitsiya banklari esa o‘z bizneslarining muhim sohalarida, xususan, fond bozoridagi operatsiyalar va sekyuritizatsiyalash bilan bog‘liq biznes sohasida kuchli bosim ostida qolishi kutilmoqda. Ayni paytda, respublikamiz bank tizimida “Bazel-III” talablarini joriy etish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning mavjudligi va

---

<sup>40</sup> Базель-3 и Европейские банки: Влияние реформ, реакция банков, проблемы реализации. EMEA Banking, McKinsey & Company, November 2010.

milliy bank tizimining yangi talablarni bajarish imkoniyati barchani qiziqtirishi tabiiydir. Mammuniyat bilan e'tirof etish joizki, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi banklari kapitalining yetarlilik darajasi 23 foizdan oshgani holda, Bazel qo'mitasining amaldagi talablaridan 3 baravar ko'pdır. 2019 yilga kelib, maxsus qo'shimcha zaxiralarga minimal talablarni hisobga olgan holda bank kapitali yetarliligi koeffitsienti 10,5 foizni tashkil etishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, respublikamizda bank kapitali bo'yicha yangi talablarni joriy etish sezilarli muammo tug'dirmasligini anglash mushkul emas.

Bundan tashqari, respublikamiz banklari kapitali tarkibida ikkinchi darajali kapital elementlarining salmog'i sezilarli darajada past. Aksincha, bank kapitalining barqaror qismi – I darajali kapitalning salmog'i esa yetarli darajada yuqori hisoblanadi. Birgina ustav kapitalining respublikamiz yalpi bank kapitali tarkibidagi salmog'i 2010 yilning 1 yanvar holatiga qariyb 35 foizni tashkil etgan. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi standartlarida kapital sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratiliyotganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu holat har jihatdan maqbul sanaladi.

Umuman olganda, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslarning tub mohiyati bank kapitali va likvidliligiga nisbatan talablarning kuchaytirilishida namoyon bo'ladi. Xususan, bank kapitaliga nisbatan yangicha talablar bank kapitali tarkibini o'zgartirish, kapital yetarliligiga nisbatan talablarni oshirish, jumladan, kapital yetarliligining yangi qo'shimcha me'yorlarini joriy etish, maxsus zaxira kapitalini shakllantirish kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi.

Fikrimizcha, yetakchi moliyaviy vositachilar hisoblangan tijorat banklari kapital bazasi sifatini yanada yaxshilash, kapitalning oqilona tarkibini shakllantirish, likvid zaxiralar miqdorini ko'paytirish bank sektori moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga, kelgusida bank inqirozlari yuzaga kelishini oldini olishga xizmat qiladi.

Banklarning bozor riskini yana bir asosiy ko'rinishi bu valyuta riski hisoblanadi. Mamlakatimizda valyuta riski jahonda yetakchi bo'lgan AQSh dollari,

yevro, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Yaponiya ienasida, yirik tashqi iqtisodiy hamkor mamlakatlar valyutalarida, xususan Rossiya rublida va boshqa valyutalarda hisoblanishi mumkin. Shuningdek, tijorat banki valyuta riskini hisoblashda chet el valyutasi kursi, ochiq valyuta pozitsiyasining uzun va qisqa shakllari, valyuta pozitsiyalarining bankning regulyativ kapitaliga nisbatlari inobatga olinadi. Boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan AQSh dollaridagi ochiq valyuta pozitsiyasining yuqoriligi bank mijozlarining valyuta hisobvaraqlarida uning miqdorini ko‘pligi bilan izohlanadi.

Ta’kidlash o‘rinliki, tijorat banklari risk-menejment tizimida xorijiy valyutadagi majburiyatlarning sezilarli darajada oshishiga yo‘l qo‘ymaslik, valyuta risklarini samarali boshqarish bank barqarorligini ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi. Respublikamiz tijorat banklari kredit portfeli tarkibi tahlili ko‘rsatishicha, milliy valyutaning devalvatsiyalanishi sharoitida xorijiy valyutadagi kreditlarning umumiyligi kredit portfelidagi salmog‘i sezilarli darajada pasaygan. Xususan, 2005-2010 yillarda xorijiy valyutadagi kreditlar salmog‘ining pasayishi 33,2 f.p.ni tashkil etgan<sup>41</sup>.

Bu investitsion loyihalarning barchasi O‘zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha ishlar doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yo‘lida bormoqda. Masalan, 2006 yilda asosiy kapitalni oshirishga 3838,3 mlrd. so‘m miqdoridagi investitsiyalardan foydalilanilgan edi. Bu mablag‘larning 10,7 foizi davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan, 60,0 foizi korxonalar va aholining mablag‘lari hisobidan, 19 foizi xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga moliyalashtirilgan.

Ishlab chiqarishning yangi sifati, avvalo, inson sarmoyasini to‘plash va samarali qo‘llash, texnologik sektorni rivojlantirish, ishlab chiqarish unumdarligining yuqori dinamikasi va aholining real daromadlari o‘sishi bilan belgilanadi. Markaziy bank hisobotida ta’kidlanganidek ““Kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish borasida qabul qilingan direktiv hujjatlar ijrosini ta’minalash borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli tadbirlar kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar

---

<sup>41</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари асосида ҳисобланди.

hajmining 2015 yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘payishiga, 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra 15,9 trln. so‘mdan oshishiga imkon berdi”<sup>42</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi, 2023 yilning 15 noyabridagi “Aholini kichik va o`rta biznesni keng jalg qilishning qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorlariga muvofiq, kichik va o`rta biznesni moliyaviy qo`llab-quvvatlash va aholida tadbirkorlik ko`nikmalarini shakllantirish bo`yicha yaxlit tizim joriy etildi.

Bank tomonidan yangicha tizimda rivojlangan davlatlar ijobiy tajribalarini amaliyatga joriy qilish maqsadida Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, KPMG xalqaro ekspertlari jalg qilingan.

2024 yil 1 yanvar holatiga bankning umumiy kapitali 3 trln. 180 mlrd. 200 mln. so`mni tashkil etgan bo`lsa, ustav kapitali 1 trln. 856 mlrd. 800 mln. so`mni, bankning aktivlari 27 trln 62 mlrd 900 mln. so`mni tashkil etdi. Depozitlar miqdori 6,7% foizga o`sib 9 trln. 418 mlrd 700 mln. so`mni tashkil etdi. Shundan qisqa muddatli 1 trln. 348 mlrd. 900 mln. so`mni, uzoq muddatli 8 trln. 69 mlrd 700 mln. so`mdan iboratdir.


Hisobot sanasiga 3 trln. 691 mlrd. 300 mln. so`m daromad olindi. Bankning sof foydasi 236 mlrd. so`mni tashkil qildi<sup>43</sup>.

Ajratilgan kreditlar tarkibida aholiga ajratilgan kreditlar ulushining o‘sib borayotganligi, o‘z navbatida, kredit ajratish jarayonlarining soddalashtirilishi va masofaviy bank xizmatlari imkoniyatlarining kengayib borishi hisobiga aholining mikroqarz, ipoteka krediti va avtokreditlar yo‘nalishlardagi kreditlar hajmining o‘sib borishi bilan izohlanadi.

---

<sup>42</sup> www.cbu.uz

<sup>43</sup> <https://rost24.uz/oz/news/1847>



### **3.1.1-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan kreditlar qoldig‘ining o‘sishi**

2023-yilda iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan kreditlar qoldig‘i hajmining o‘sishi barcha tarmoqlarda kuzatilib, sanoat sohasida (o‘sish 10,7 foiz) 140,2 trln so‘mni, qishloq xo‘jaligida (12,3 foiz) 47,3 trln so‘mni, transport va kommunikatsiya sohasida (15,7 foiz) 34,3 trln so‘mni, qurilish sohasida (18 foiz) 12,3 trln so‘mni hamda savdo va umumiy ovqatlanish sohasida (12,5 foiz) 32,5 trln so‘mni tashkil qildi.

Iqtisodiyot rivojini qo‘llab-quvvatlashda xususiy investitsiyalarning yuqori sur’atlarda o‘sishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xusan, 2023-yilda iqtisodiyotdagi barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan real hisobda 22,1 foizga o‘sib, 352,1 trln so‘mga yetdi. Bunda, markazlashmagan investitsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan 26,2 foizga o‘sib 307,3 trln so‘mni, markazlashgan investitsiyalar esa 0,7 foizga qisqarib 44,8 trln so‘mni tashkil etdi.

### 3.1.2 - jadval

#### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha o‘zgarishi, mlrd so‘mda<sup>44</sup>

Moliyalashtirish manbalari	2022-yil	2023-yil	O‘zgarish, foizda
<b>Jami investitsiyalar</b>	<b>269 857,5</b>	<b>352 064,1</b>	<b>22,1</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>41 548,1</b>	<b>44 806,8</b>	<b>-0,7</b>
Byudjet mablag‘lari	20 910,1	20 447,0	-11,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari	2 447,9	1 554,2	-42,0
Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	15 256,5	21 153,4	30,3
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>228 423,6</b>	<b>307 257,3</b>	<b>26,2</b>
Korxonalarning o‘z mablag‘lari	84 513,9	84 936,4	-2,7
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	97 095,4	166 731,4	56,2
<i>shu jumladan,</i>			
<i>to ‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>37 006,3</i>	<i>84 311,6</i>	<i>96,4</i>
Aholi mablag‘lari	25 738,1	33 321,7	8,9
Tijorat banklari kreditlari	21 076,2	22 267,8	17,9

Hisobot yilda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari tarkibida markazlashmagan investitsiyalarning ulushi 2022-yildagi 84,6 foizdan 87,3 foizgacha oshgan bo‘lsa, markazlashgan investitsiyalar ulushi esa 15,4 foizdan 12,7 foizgacha qisqargan. Markazlashmagan investitsiyalarning o‘sishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining qariyb 2,0 barobarga hamda tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘larining 17,9 foizga, aholi mablag‘larining 9 foizga oshganligi hisobiga shakllangan.

Markazlashgan investitsiyalar hajmining real o‘sishi qariyb o‘tgan yil darajasida saqlanib qolgan bo‘lsada, uning tarkibida hukumat kafolati xorijiy kreditlar 1,3 barobarga ko‘paydi. 2023-yilda global infliyatsiya jarayonlarida sekinlashish kuzatilgan bo‘lsada, xalqaro moliya bozorida resurslarning narxi yuqori

<sup>44</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари асосида ҳисобланди.

saqlanib qolayotganligi sharoitida iqtisodiyotda nomutanosibliklarning yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirilishi davlat tomonidan iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni davom ettirishni taqozo qildi. Protsiklik fiskal siyosat yuritishning inflyatsiyaga bosimlarini kamaytirish maqsadida nisbatan qat'iy monetar siyosat yuritish orqali fiskal va monetar siyosatlar o'zaro muvofiqlashtirib borildi. Xususan, davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalari xarajatlari 2022-yilga nisbatan 18 foizga o'sib, 324,0 trln so'mga yetdi. Davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalari xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha 42,3 foizni, iqtisodiyotni qo'llabquvvatlash xarajatlari 13,2 foizni hamda ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlanТИRISH dasturlari 9,1 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy nazariyaning, avvalo, iqtisodiyotning inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga bo'ysundirilgan barqaror holati sifatidagi o'rganish ob'ektiga aylandi. Intellektual iqtisodiyot qaror topishining hozirgi bosqichida uning sifati jiddiy o'zgarmoqda. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi moddiy boyliklar ishlab chiqarishga borgan sari kamroq darajada bog'liq bo'lib qolmoqda, uning taraqqiyoti bilimlarni ishlab chiqarish va qo'llash ko'lamlari bilan belgilanmoqda. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati qator ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlarni: siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, o'rtacha soliqlar va inflyatsiya, tolerant hukumat, samarali ijtimoiy va bozor institutlarini shakllantirish va rioya qilish bilan ta'minlanadi. Bunday muhitda ijtimoiy yo'naltirilgan innovatsion turdag'i iqtisodiyot sub'ektlari uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga layoqatli bo'ladi. Natijada "Tijorat banklari tomonidan ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2015 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobar ko'payib, 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 1,6 trln. so'mga yetdi. Shuningdek, o'tgan yili banklar tomonidan yoshlarni, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, ularning biznes loyihibarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga 362,1 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratilib, mazkur ko'rsatkich ham 2015 yilga nisbatan 1,3 barobardan ziyodga oshdi."<sup>45</sup>


---

<sup>45</sup> www.cbu.uz

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyov tavsiyasiga oid ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar Strategiyasida ta’kidlanganidek zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati konsepsiysi 2017-2021 yillarda milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosan tashqi talab va davlat xarajatlariga asoslangan mohiyatini aniqlash uchun ustuvor nazariy-uslubiy ahamiyatga ega.

U zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning sifat belgilarini o‘rganish bo‘yicha amaliy tadqiqotlar yo‘nalishlarini, uning sifat darajasi dinamikasini prognozlash nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda mamlakat tijorat banklari barcha turdagি faoliyatini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda o'z imkoniyatlarini oshirish choralarini ko'rmoqdalar. Shu choralarни amalga oshirish uchun tadqiqotda Davr banki uchun quyidagi xizmatlar sifatini oshirish va bank barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan funksional model taklif etildi.



**3.1.1.-rasm. Milliy bank Bosh boshqarmasining Toshkent shahri filialida xizmatlar(mahsulotlar) sifat darajasini baholashning funksional modeli.<sup>46</sup>**

---

<sup>46</sup> Muallif ishlanması

E'tirof etish lozimki, respublikamizda tijorat banklarining likvidliligi va kapitallashish darajasini oshirishga qaratilgan siyosatning 2005 yildan boshlab izchillik bilan amalga oshirilganligi global moliyaviy inqiroz ta'sirining yumshoq kechishiga zamin hozirladi.

Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish respublikamizda inqiroz yuz berishidan avval boshlandi va bu banklar o'rtasida o'zaro mustahkam ishonchning saqlanib qolinishi va likvidlilik muammolarini yuz bermasligini ta'minladi.

2008 yilda ham tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qarorlari, xususan, 2008 yil 13 avgustdagi PQ-944-sonli "O'zbekiston aksiyadorlik tijorat sanoat-qurilish bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlarito'g'risida"gi, 2008 yil 13 noyabrdagi PQ-998-sonli «Asaka» davlat-aksiyadorlik tijorat bankining investitsiyaviy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2008 yil 16 oktyabrdagi PQ-986-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq bankining kapitallashuvini yanada ko'paytirish va investitsion faolligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari qabul qilindi. Ko'rilgan chora-tadbirlarning samarasi o'laroq, respulikamizda banklarning yalpi kapitali bиргина 2008 yilda 40 foizga ortdi.

Jumladan, tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini kuchaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini yanada kengaytirish, loyihalarini ekspertiza qilish va xatarni baholash tizimini takomillashtirish, kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini olish choralarini ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash; tijorat banklari kapitali tarkibida ularning inqiroz holatlari ta'siriga barqarorligini ta'minlaydigan barqarorlashtirish zaxiralarini yaratish; kapital yetarligiga qo'yilgan talablarni takomillashtirish, ehtimoliy zararlarni qoplashga zaxiralarni shakllantirishni ko'zda tutgan Bazel qo'mitasining yangi takliflarini bank nazorati tizimiga joriy qilish shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz bank tizimining rivojlanishiga xos yana bir muhim tendensiya – bu tijorat banklarining ustav kapitaliga qo‘yiladigan talablarning tadrijiy ravishda oshirilib borilayotganligidir.

### **3.1.3 - jadval**

#### **Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida**

#### **2022-yil 1-yanvar holatiga (banklar kesimida) ma'lumot**

№	Bank nomi	Aktiv		Kredit		Kapital		Depozit	
		summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda
1	O‘zmilliybank	89 919	20,2%	74 033	22,7%	14 769	20,8%	22 083	14,1%
2	O‘zsanoatqurilishbank	56 511	12,7%	43 148	13,2%	7 701	10,9%	12 607	8,1%
3	Asaka bank	50 804	11,4%	37 685	11,5%	6 505	9,2%	10 729	6,9%
4	Ipoteka-bank	40 012	9,0%	29 046	8,9%	5 087	7,2%	15 824	10,1%
5	Agrobank	39 971	9,0%	32 258	9,9%	9 346	13,2%	11 839	7,6%
6	Xalq banki	26 921	6,1%	19 596	6,0%	5 480	7,7%	11 649	7,5%
7	Qishloq qurilish bank	20 708	4,7%	17 496	5,4%	2 696	3,8%	6 492	4,2%
8	Mikrokreditbank	13 483	3,0%	10 816	3,3%	2 321	3,3%	3 154	2,0%
9	Aloqa bank	12 638	2,8%	7 754	2,4%	1 674	2,4%	6 796	4,4%
10	Turon bank	11 010	2,5%	8 129	2,5%	1 915	2,7%	2 838	1,8%
11	Poytaxt bank	373	0,1%	80	0,02%	135	0,2%	235	0,2%
12	O`zagroeksportbank	69	0,02%	30	0,01%	67	0,1%	1	0,0%
<b>Boshqa banklar</b>		<b>82 501</b>	<b>19%</b>	<b>46 312</b>	<b>14%</b>	<b>13 222</b>	<b>19%</b>	<b>51 942</b>	<b>33%</b>

Jadval ma'lumotlari ko‘rsatishicha, respublikamiz tijorat banklari kapital bazasi tarkibida ustav kapitalining salmog‘i o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ustav kapitalining salmog‘i 22,2 foizli punktga (f.p.) oshgan va 35,7 foizni tashkil etgan. Ustav kapitalining regulyativ

kapitalning barqaror elementi ekanligi e’tiborga olinsa, bu holat har jihatdan ijobiy hisoblanadi. Ayni paytda, zaxira kapitalining salmog‘i pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Shunga qaramay, zaxira kapitalining tarkibida devalvatsiya zaxirasining yuqoriligi banklarning kapital bazasi sifatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Chunonchi, Bazel talablari bo‘yicha devalvatsiya zaxirasi I darajali kapital tarkibiga kiritilmaydi.

Nazariy jihatdan, banklarni tartibga solishning an'anaviy konsepsiyasi barqarorlikka, xususan, birinchi galda kapitalga (inqiroz sharoitida likvidlilikka ham) nisbatan prudensial talablarni ko‘zda tutib, normal iqtisodiy muhitda va tizimli bank sarosimalari sharoitida individual ravishda banklarning barqarorligini ta’minalashga qaratiladi. Zero, bank tizimining umumiylar barqarorligini ta’minalash uchun, avvalambor tijorat banklarining individual “himoya yostiqlari” mustahkam bo‘lishi lozim.

Ta’kidlash lozimki, respublikamiz bank amaliyotida aktivlarni sekyuritizatsiyalash amaliyoti mavjud emas. Boshqacha aytganda, kreditlarning ustiga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar yangi berilayotgan kreditlar uchun garov sifatida qabul qilinmaydi. Bu esa, real sektor va moliyaviy sektor o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlab qolish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilgan choralar bank tizimi barqarorligining kafolati va ishonchli himoyasini ta’minlab, xo‘jalik sub’ektlariga o‘z vaqtida va to‘liq hajmda xizmat ko‘rsatish imkoniyatini oshirdi. Bu esa, o‘z navbatida, xo‘jalik sub’ektlari va aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Mamlakatimizda inqirozga qadar bo‘lgan davrda bank sektori kapitallashuv darajasini oshirishga bank tizimi islohotlarining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaraldi va bugun barchamiz bu siyosat o‘zini to‘liq oqlaganligini guvohi bo‘lib turibmiz. Boshqa tomondan, respublikamizda amalga oshirilgan izchil islohotlar natijasida barqaror bank tizimi shakllangan bo‘lib, hozirda inqirozga javoban qabul qilinayotgan tartibga solish va nazoratga oid yangi xalqaro me’yorlar mamlakatimiz banklari uchun jiddiy muammolar tug‘dirmasligi quvonarli holdir.

Banklar faoliyatini tartibga solish va ularni nazorat qilishdan asosiy maqsad “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida” gi qonunning 50 - moddasiga

muvofiq bank tizimini barqaror tutib turish, omonatchi va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Bank plastik kartalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida so‘nggi 5 yil davomida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 2 barobardan ziyodga oshdi va 2016 yil 1 yanvar holatiga ularning umumiy soni 16,3 mln. donadan ortiqni tashkil etdi<sup>47</sup>.

Umuman olganda, bank infratuzilmasining tobora kengayib va takomillashib borayotganligi, o‘z navbatida, bank xizmatlari bozorida raqobat muhitining va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining yanada yaxshilanishiga hamda aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasining oshishiga xizmat qilmoqda.

Olib borilgan amalga ishlar natijasi va mamlakatimiz bank tizimining barqaror rivojlanib borayotganligi nufuzli xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan ham o‘z tasdig‘ini topmokda.

O‘zbekistan Respublikasining ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodietiga o‘tish jaraeni ko‘pgina muxim iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida moliya bozorlarida ham chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirilishini va unda bank risklarini boshqarishni takomillashtirish masalalariga e’tibor karatishni taqozo etmoqda.


2023-yilda iqtisodiyotning kreditlarga bo‘lgan o‘sib borayotgan talabini qondirib borishga sharoit yaratish hamda tashqi resurslar bozorida resurs narxining oshishi va uni jalg etish bo‘yicha raqobatning kuchayishi fonida bank tizimiga uzoq muddatli ichki moliyalashtirish manbalarini jalg etishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, hisobot yilida banklarning jami majburiyatları 555 trln so‘mga yetib, 2022-yilga nisbatan 16 foizga yoki 78 trln so‘mga oshdi. Majburiyatlar o‘sishining 48 foizi jalg qilingan kredit mablag‘lari, 32 foizi depozitlar, 7 foizi mahalliy banklararo kredit va depozitlar, 4 foizi subordinar qarzlar hamda 9 foizi boshqa majburiyatlar hisobiga shakllandi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga majburiyatlar tarkibida depozitlar 44 foizni, jalg qilingan kreditlar 40 foizni, boshqa banklardan jalg qilingan mablag‘lar 8 foizni, chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar 2 foizni, subordinar qarzlar, hisoblangan foiz

---

<sup>47</sup> Банк ахборотномаси:// 2016 йил. № 4.-4 бет.

to‘lovlari, Markaziy bankka to‘lanadigan mablag‘lar va boshqa majburiyatlar 6 foizni tashkil qildi. Tijorat banklari tomonidan 2023-yil davomida jalb qilingan depozitlar tarkibidagi aholi omonatlari qoldig‘i 37 foizga oshib, 86 trln so‘mga, jumladan, milliy valyutada jalb etilgan omonatlar qoldig‘i 45 foizga yoki 18 trln so‘mga oshib, jami aholi omonatlaridagi ulushi esa 2022-yildagi 63 foizdan 66 foizga yetdi. Shuningdek, jami depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlar ulushi 43 foizdan 35 foizgacha pasaygan bo‘lsa, 1 yilgacha (qisqa muddatli) bo‘lgan depozitlar ulushi 26 foizdan 29 foizgacha, 1 yildan yuqori (uzoq muddatli) depozitlar ulushi 31 foizdan 35 foizgacha oshdi. 2023-yilda tijorat banklari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri (Hukumat kafolatisiz) jalb etilgan xorijiy kreditlar hajmi 4,3 mlrd dollarni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 2,1 barobarga o‘sdi. Bunda, bir yilgacha bo‘lgan qisqa muddatli xorijiy kreditlarning ulushi 34 foizni yoki 1,5 mlrd dollarni tashkil etdi.



### **3.1.6 – rasm. 2023-yilda toifalar kesimida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushti<sup>48</sup>**

So‘nggi yillarda bir tomonidan, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi hamda iqtisodiyotda davlat ulushining qisqarib borishi, ikkinchi tomonidan, muqobil moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi sharoitida xususiy sektorning investitsiya loyihamalarini moliyalashtirish uchun bank kreditlariga bo‘lgan talabi yuqoriligicha qolmoqda. Ushbu yuqori talabni qondirish va tadbirkorlik faoliyatini

<sup>48</sup> <https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf>

qo'llab-quvvatlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan 2023-yilda 581 mingdan ortiq loyihalarga jami 160 trln so'm miqdorida yoki 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga ko'p kredit mablag'lari yo'naltirildi.

Hisobot yilida kichik va o'rta tadbirkorlikni, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 573 mingdan ortiq loyihalarga jami 73 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Tadbirkorlarning loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha 2023-yilda tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalari hisobidan hududlarda 16 mingga yaqin loyihalar uchun 3,2 mlrd dollarlik kreditlar ajratilgan, jumladan, to'g'ridanto'g'ri (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablag'lar hisobidan 2,7 mlrd dollar (jami xorijiy kredit liniyalarining 86 foizi) miqdorida kreditlar yo'naltirildi. Bunda, 1,2 mlrd dollar miqdoridagi mablag'lar kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish uchun ajratildi. Hisobot yilida sohalar kesimida xorijiy kredit liniyalari mablag'larining yo'naltirilishi qishloq xo'jaligiga hamda xizmat ko'rsatish sohalariga o'tgan yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, sanoatga 1,5 barobarga, qurilis hga 2,7 barobarga, savdo va umumiyligi ovqatlanish 1,6 barobarga va transport sohasiga 3,3 barobarga oshdi. Global iqtisodiy noaniqliklar va jahon bozorida asosiy xomashyo mahsulotlari narxlarining keskin tebranishlari sharoitida ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashga erishish uchun ushbu sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, 2024-yil 1-yanvar holatiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihalarga jami ajratilgan kreditlar qoldig'i 23,8 trln so'mni tashkil qildi. Ushbu kreditlarning 12,3 trln so'mi issiqxonasi (52 foiz), 4,2 trln so'mi chorvachilik (18 foiz), 2,4 trln so'mi muzlatgichli omborxonasi (10 foiz), 2,0 trln so'mi parrandachilik (8 foiz), 1,3 trln so'mi bog'dorchilik (5 foiz), 591 mlrd so'mi baliqchilik (2 foiz), 557 mlrd so'mi sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish (2 foiz) va 372 mlrd so'mi go'sht va sutni qayta ishslash loyihalarini (2 foiz) moliyalashtirishga yo'naltirilgan. 2023-yilda tijorat banklari tomonidan savdo va xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining qariyb 39 mingdan ortiq

loyihalarini moliyalashtirish uchun 53,7 trln so‘m miqdorida kredit mablag‘lari yo‘naltirildi.

Ushbu mablag‘larning 23 trln so‘mi xizmatlar sohasidagi loyihalarga, 16,9 trln so‘mi savdo faoliyatiga va 13,8 trln so‘mi xizmatlar sohasidagi tadbirkorlarning aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun ajratilgan. Turizm faoliyatini qo‘llab-quvatlash uchun tijorat banklari tomonidan 3 548 ta tadbirkorlik subyektlariga 3,5 trln so‘mdan ortiq kreditlar berildi. Ushbu ajratilgan kreditlarning 1,3 trln so‘mi – mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirish, 896,7 mlrd so‘mi – restoranlar faoliyati, 449,3 mlrd so‘mi – yo‘lovchi tashish xizmatlariga, 112,8 mlrd so‘mi – sport va sog‘lomlashtirish turizmi hamda 43,1 mlrd so‘mi – turistik agentlik va oromgohlar faoliyati uchun yo‘naltirilgan.

Barcha xo‘jalik sub’ektlari kabi tijorat banklari tizimida ham korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o‘zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish ko‘plab jiddiy e’tiborni qaratishni talab qiladi. Bu o‘z navbatida tijorat banklari faoliyatidagi sodir bo‘ladigan risklarni samarali boshqarishni ta’minalash yo‘nalishlari bankning ishonchlilagini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, bank risklarini boshqarish orqali ularning likvidlilagini ta’minalash yo‘nalishiga alohida e’tibor qaratilib, uning yetarliligi ustidan doimiy nazorat o‘rnataladi. Chunki, aksiyadorlarning manfaatlari bank qiymatining uzok muddatli va barqaror o‘sishi bilan uzviy bog‘liq.

Shu sababli moliyaviy beqarorlik sharoitida tijorat banklari faoliyatini samarali boshqarish va ularni rivojlantirish, ularni baholash va samarali boshqarishni ta’minalash strategiyasi nafaqat milliy bank tizimi balki xalqaro miqyosda ham birlamchi masala bo‘lib qolmoqda.

Ammo bank menejmenti boshkaruv ob’ektlariga bevosita ta’sir ko‘rsatish jarayonlari bilan cheklana olmaydi. Shu ma’noda menejment o‘z ichiga boshqaruv jarayonlarini amalga oshirishning moliyaviy, moddiy, tashkiliy, xukukiyl, ma’naviy-psixologik shart-sharoitlarini yaratish, boshkaruv vazifalarining bevosita ijro etilishi, boshkaruv jarayoni natijalari nazorat va tahlil etilishi kabi bosqichlarni oladi.

Bularga qo'shimcha ravishda tijorat banklarida mijozlarning kredit tarixi bo'yicha axborot bazasini yaratish, bank kredit xizmatchilarini malakasini doimiy ravishda oshirib borish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga tijorat banklari barqarorligini ushslash va ularni samarali boshqarib turish uchun fikrimizcha, bank mijozlarini ham malakasini ularning iqtisodiy bilim saviyalarini oshirish, yangi ochilayotgan korxona rahbarlarini kasb malakaviy darajalarini tekshirish va nazorat qilish tizimini yaratish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki bank barqarorligi va likvidligi bevosita bank mijozining moliyaviy barqarorligiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi va Markaziy banki iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida qo'llanilaetgan pul-kredit vositalari orkali tartibga solish usullari va tajribalarini o'rganish hamda ularni mamlakatimizda faol qo'llash borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirmokdalar.

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy bank tizimi xalqaro bank amaliyoti an'analariga mos ravishda shakllantirilgan. Mamlakat milliy bank tizimi vositasida pul kapitalining tarmoqlararo taqsimoti amalga oshiriladi. Unda tijorat banklarining paydo bo'lishi bilan birga turli mulkchilik shaklida tashkil etilganligi o'ziga xos xususiyatga ega.

2016 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikada 26 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 7 tasi xususiy va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Bugungi kunda respublika hududlarida tijorat banklarining 854 ta filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Bank muassasalarini aholi zich joylashgan manzillar hamda ishlab chiqarish hududlariga yaqinlashtirish maqsadida tijorat banklarining 4295 ta mini-banki va maxsus kassalari tashkil etilgan bo'lib, shularning 2221 tasi qishloq joylardagi aholi va fermer xo'jaliklariga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda<sup>49</sup>.

---

<sup>49</sup> . www.cb.uz

Avvalo pul-kredit siyosatining asosiy maqsalaridan biri-bu iqtisodiyotga to‘la bandlik va inflyatsianing yo‘qligini tavsiflovchi umumiy ishlab ishlab chiqarish darajasiga erishishda yordam ko‘rsatishdan iborat.

Uning mohiyati ishlab chiqarishning yalpi hajmini, bandlik va baholar darajasini barqarorlashtirish maqsadida pul taklifini o‘zgartirishdan iborat. Yanada soddarоq qilib aytganda pul-kredit siyosati ishlab chiqarish darjasи pasayaetgan paytda xarajatlarni rag‘batlantirish maqsadida pul taklifini kengaytirish, inflyatsiya sharoitida esa aksincha xarajatlarni cheklash maqsadida pul taklifini kisqartirishga qaratilgan.

Keyingi yillarda, xususan, 2015 yilda ham Markaziy bank pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanishda asosiy e’tibor bank tizimida ortiqcha likvidlikni shakllantiruvchi va inflyatsion bosimning oshishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan omillarga qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining sof tashki aktivlarini ko‘payishi hisobiga shakllangan qo‘srimcha likvidlikning inflyatsion bosimga ta’siri oldini olish maqsadida Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘tkazib borilgan sterilizatsiya operatsiyalarining o‘rtacha oylik hajmi 2015 yilda 2014 yilga nisbatan 1,1 martaga oshdi. Bu esa pul massasining belgilangan prognoz ko‘rsatkichidan ortiqcha o‘sishining oldini olishga va shu orqali ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minalashga xizmat qildi.

Bularga qo‘srimcha sifatida shuni aytish lozimki, pul-kredit siyosati orqali muvofiqlashtirishning ajralmas qismi sifatida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish zaruriyati quyidagilardan iborat:

- banklarning likvidlilagini ta’minalash orqali ular inqirozini oldini olish;
- pul va boshqa moliya resurslari ustidan monopol nazoratga yo‘l qo‘ymaslik hamda kam sonli kredit muassasalarning qo‘lida kapitalning to‘planib qolishini cheklash.

Xo‘jalik tizimining xolatiga boqliq ravishda pul-kredit siyosatining ikki tipi ajratiladi va ularning xar birga o‘ziga xos instrumentlar hamda boshqarishning iqtisodiy va ma’muriy usullarining muayan birikmasi xosdir.

Bank tizimi likvidligini tartibga solish va moliya bozori barqarorligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank ochiq bozordagi operatsiyalarni amalga oshirib boradi. Xususan, bank tizimida ortiqcha likvidlik yuzaga kelgan hollarda, tijorat banklarining bo'sh pul mablaglarini Markaziy bankning maxsus depozitlariga jalb qilish va davlat qimmatli kogozlariga joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalar amalga oshiriladi. Majburiy rezervlar normasi bank tizimining moliyaviy barqarorligi va likvidlik darajasidan kelib chikqan holda belgilanadi, zaruriyat tug'ilganda, o'zgartiriladi.

Vazirlar Maxkamasining 2005 yil 16 apreldagi "Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroridan kelib chiqqan holda va aholi qulidagi bo'sh pul mablag'larni bankka jalb qilishni rag'bantlashtirish maqsadida Markaziy bank tomonidan 2005 yil iyul oyidan boshlab Majburiy zaxirani tashkil etish to'g'risidagi yo'riknomaga o'zgartirishlar kiritildi. Va shunga asosan axoli omonatlari bo'yicha majburiy zaxira fondi tashkil qilinmasligi belgilandi.

Bizning fikrimizcha ushbu usulning ma'muriy jihatini kamaytirish maqsadida milliy iqtisodiyotning hozirgi holatini hisobga olgan holda tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning tahlili majburiy rezervlar mexanizmini qo'llanilishi borasida quyidagi takliflarni berishga asos bo'lib xizmat qiladi: Bizningcha ayrim taraqqiy etgan mamlakatlardagi singari Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga ularning majburiy rezerv fondidagi mablag'lari uchun muayyan foiz to'lovlarini to'lansa ularning moddiy manfaatlari hisobga olingan, qolaversa ularni yanada faolroq ish yuritishga rag'batlantirilgan bo'lar edi.

Shunday qilib Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi shubhasiz kredit tizimida bozor munosabatlarining rivojlanishiga hamda uning taraqqiy etgan mamlakatlar darajasiga yetishiga ko'maklashadi. Milliy valyutaning barqarorlashuvi, iqtisodiy o'sishga erishish, yangi tijorat tuzilmalarining vujudga kelishi, iktisodiyotda tovar-pul tengligini ta'minlash uchun ishonchli asos yaratadi. Iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solish hamda tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning samaradorligini oshirish bo'yicha qayd etib o'tilgan takliflarning amalda qo'llanilishi bizning fikrimizcha tijorat banklari

likvidligi va to‘lov qobiliyatining oshishiga, bank tizimining yanada rivojlanishiga, milliy pulimiz qadrining oshishiga va pirovardida mamlakatimizning iktisodiy jihatdan barkamollashuviga olib keladi.

### **3.2. O‘zbekiston tijorat banklari barqarorligini ta`minlashning moliyaviy strategiyalari**

Milliy banklarning jahon moliyaviy tizimlariga integratsiyalashuv jarayoni ko‘p omilli va tez o‘zgaruvchi xarakterga egaligi uni tadqiq etishda miqdor va sifat tahlilini qo‘llash zarurati tug‘iladi. Ayniqsa bank tizimining barqarorligi va likvidligini xarqaro standardlarga yetkazish katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda qabul qilingan “2011-2015 yillarda respublika bank –moliya tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlarga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” gi Qarori respublikamizdagi bank tizimini yangi bosqichga olib chiqishdagi harakatlardan biridir.

O‘zbekiston davlati depozitlarga qo‘yilgan harxil fondlarga soliq yukini kamaytirish yoki umuman yengillik berishi tufayli depozitlarga to‘lanadigan foiz stavkalari qarzlarnikidan yuqori belgilanmoqda. Bank sektorining ushbu xususiyati bizning modelimizda inobatga olingan va depozitlar xarajat singari o‘zgaruvchi deb qabul qilingan. O‘zbekiston bank tizimining samaradorligini tahlil qilishda biz uchta xarajatlar va uchta natijaviy ko‘rsatkichlar olindi.

Xarajat A: Operatsion xarajatlar

Xarajat B: Doimiy kapital

Xarajat C: Umumiy depozitlar

Daromad: Jami kreditlar summasi

Natija 2: Umumiy daromad

Natija 3: Boshqa foizlarsiz daromad (komission daromadlarni chegirib tashlagandan so‘ng)

Banklar tomonidan qilinadigan xarajatlarni ko‘rsatish maqsadida ularning operatsion xarajatlari va doimiy kapital miqdori olindi. Natijalarni tanlashda

banklarning diversifikatsiyalashuvi va har xil turdagи xizmatlarni amalga oshirishi nazarda tutildi.

### 3.3.1 - jadval

#### Tijorat banklarining samaradorlik ko‘rsatkichlari

Xarajatlar		Natijalar			
Doimiy kapital		Jami kreditlar			
Operatsion xarajatlar		sof daromad			
Jami depozitlar		Boshqa foizsiz daromadlar (Dividendlar Forex operatsiyalaridan)			
Xarajatlarni hisobga olgan ekonometrik modelidagi samaradorlik					
No.	Banklar nomi	2021	2022	2023	O‘rtacha miqdor
1.	Qishloq qurilish bank	0,58	0,64	0,83	0,71
2.	Aloqabank	0,86	0,72	0,65	0,70
3.	Mikrokredit bank	0,87	1,00	1,00	0,96
4.	Agrobank	0,96	0,87	0,81	0,84
5.	Ipak yo‘li bank	0,82	0,74	0,76	0,77
6.	Ipotekabank	0,87	0,78	0,82	0,84
7.	Kapitalbank	0,9	0,75	0,73	0,75
8.	Hamkorbank	0,67	0,91	0,93	0,91
9.	O‘zmilliy bank	0,82	0,95	0,96	0,96
10.	Soderat(Eron)	0,88	0,91	0,98	0,97
11.	Trastbank	0,75	0,71	0,77	0,75
12.	Turkiston	0,90	0,93	0,98	0,97
13.	Turonbank	0,78	0,74	0,87	0,81
14.	Universalbank	0,88	0,90	0,92	0,94
15.	UT bank	0,77	0,68	0,88	0,78
16.	O‘zKDB	0,99	0,98	0,97	0,98
17.	O‘zsanoat qurilish bank	1,00	0,94	0,74	0,88
18.	Asaka bank	0,98	0,97	0,95	0,96
19.	Ravnaqbank	0,87	0,64	0,75	0,75
20.	Savdogar	0,83	1,00	0,87	0,90
21.	Davr bank	0,74	0,77	0,81	0,79
21	O‘rtacha miqdor	0,87	0,83	0,82	0,85

Manba: [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) ma’lumotlarini model yordamida qayta ishslash natijasida muallif tomonida tuzilgan

Shu bilan birgalikda umumiy kreditlar summasidan mumkin bo‘lgan qarzlarni qaytarishdagi yo‘qotishlar ajralib tashlandi.Bu esa banklardagi risk darajasini o‘lchashni ko‘rsatadi.

Banklar faoliyati haqidagi axborot “Bank axborotnomasi” gazetasidan olindi. Keyinchalik modelni yechish uchun ikki toifadagi komp'yuter dasturlaridan DeaFrontier va DEAOS (online) dan foydalandik.

Tadqiqotdan olingan natijalar. Biz xarajatlarni tahlil etishga asoslangan CCR modelini qo'llaganimizda ko'lam samarasini hisobga olmaymiz va faqat bank samaradorligining ballari 6 -jadvalda keltirilgan.

Bali 1 dan kam bo'lgan banklar daromadlarini oshirish imkoniyatiga ega. Masalan ABN-AMRO bankning bali 0,81 va u daromadini 19% (1-0,81) oshirishi mumkin degan xulosani anglatadi. 2013 yillik ma'lumotlarga binoan 20 ta bankdan 6 tasi yuqori samarador degan xulosani qilish mumkin. Samarqand bankning samaradorligi juda past ekanligini (bali 0,55) ta'kidlash mumkin. Oldingi paragraflarda ta'kidlaganimizdek banklarning samaradorligini aniqlashda ikki xil model qo'llaganmiz. MKU modelini qisman o'zgartirish natijasida biz BCC modelni yaratamiz va u banklarning ko'lamini inobatga oladi. Bu model natijasida baholangan samarani texnik samara deb ataymiz. CCR modelda ko'lam va texnik samara birgalikda hisoblanadi. Umuman olganda natijalar ikkala modelda ham bir biriga yaqin bo'lsalarda ularning nisbiy samaradorligida farqlarni kuzatish mumkin. Ikkala model natjalari bo'yicha aytish mumkinki uchta bank (ABN AMRO, Ipotekabank va O'zsanoatqurilishbank)texnik jihatdan samarador ammo ko'lam samarasidan to'la foydalanishmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ularning ko'لامи bajarayotgan ish miqdori va xarajatlariga mos kelmaydi. Biz tahlil etgan 23 ta bankdan 17 tasi ko'lamga olinadigan samara pasayish tendensiyasiga ega, 6 tasida samara o'sish tendensiyasiga mos.

### **3.3.2 - jadval**

#### **O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining samaradorlik darajasi**

Nº.	Banklar nomi	Samaradorlik koef.	Ko'lamga qaytim
1	Qishloq qurilish bank	0,83	pasayish
2	Aloqabank	0,70	pasayish
3	Mikrokredit bank	1,00	pasayish
4	Agrobank	1,00	pasayish
5	Ipak yo'li bank	0,70	pasayish


6	Ipotekabank	1,00	pasayish
7	Kapitalbank	0,65	pasayish
8	Hamkorbank	1,00	pasayish
9	O‘zmilliy bank	1,00	pasayish
10	Soderat(Eron)	1,00	pasayish
11	Trastbank	0,59	ortmoqda
12	Turkiston	1,00	ortmoqda
13	Turonbank	0,87	pasayish
14	Universalbank	0,95	pasayish
15	UT bank	0,91	ortmoqda
16	O‘zKDB	1,00	pasayish
17	O‘zsanoat qurilish bank	1,00	pasayish
18	Asaka bank	0,87	ortmoqda
19	Ravnaqbank	0,58	pasayish
20	Savdogar	0,82	pasayish
21	Davr bank	0.82	ortmoqda

Manba: muallif ishlanmasi<sup>50</sup>

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, 2013 -2015 yillarda xususiy banklar uchun o‘rtacha samaradorlik koeffitsienti (0.92 ga teng) hissadorlik banklariga qaraganda 5 foiz past bo‘lgan holda chet el banklarida u hissadorlik banklariga qaraganda 6 foizga kam bo‘lgan. Ammo natijada ehtimollik koeffitsientlari uncha aniq emas. Shu tufayli banklarning nisbiy samaradorligini yuqoridagi model orqali baholash qiyin. Model natijalariga binoan shuni aytish joizki banklarning samaradorligi ularning ko‘lamiga bog‘liq ekan. Ayniqsa o‘rtacha va yirik banklarning samaradorlik koeffitsientlari orasidag farq katta. Demak yirik banklarning samaradorligi kichik va o‘rtacha banklarnikiga qaraganda ancha yuqori va samaradorlik va ko‘lam o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud. Bu bank sohasida boshqa o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ham mos keladi.

---

<sup>50</sup> On line даги DEA (Data Envelop Analysis) дастури бўйича ҳисобланган.



### **3.3.1-rasm. Tijorat bankining moliyaviy strategiyasi<sup>51</sup>**

<sup>51</sup> Muallif ishlanmasi

«Tijorat banklari tomonidan jalg qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo‘yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to‘g‘risida»gi Nizom qabul qilinib, tijorat banklari tomonidan jalg qilinadigan depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarining o‘zgarish dinamikasini doimiy ravishda monitoring qilib borish orqali foiz stavkalari asossiz o‘sishining oldi olindi. Tijorat banklarining korporativ boshqaruviga talablar kuchaytirilib, bank Kengashlari va Boshqaruvlarining vakolat va majburiyatlari qayta ko‘rib chiqildi, kasbga oid etika hamda oshkoralik va axborotni oshkor qilish borasida me’yoriy talablar o‘rnatildi.<sup>52</sup>

2017 yilning 1 yanvar holatiga respublikamiz hududlarida jami 76 ta nobank kredit tashkilotlari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularning 29 tasini mikrokredit tashkilotlari va 46 tasini lombardlar tashkil qiladi.

Keyingi yillardagi monetar siyosat va bank tizimini barqaror boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Ushbu yuqori talabni qondirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan 2023-yilda 581 mingdan ortiq loyihalarga jami 160 trln so‘m miqdorida yoki 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga ko‘p kredit mablag‘lari yo‘naltirildi.


### 3.3.3-jadval

**"O‘zmilliybank" AJ tomonidan 2019-2023 yillar davomida  
kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar to‘g‘risida  
MA`LUMOT**

<b>Yil</b>	<b>Lami ajratilgan kreditlar</b>	<b>Olingan foizli daromadlar</b>	<b>Muammoli qarzdorlik</b>	<b>Ehtimoliy yuqotishlar zahirasi</b>
2019	5 473	263	24	48,6
2020	4 036	246	18	23,5
2021	5 290	239	65	44,0
2022	5 416	305	27	160,9
2023	5 974	285	25	161,5

<sup>52</sup> www.cb.uz

Tijorat bankining barqarorligini ta'minlash strategiyasi uzoq muddatli davrda uning moliyaviy manfaatlarini tahdidlardan himoya qilish asosida ishlab chiqilgan. Tijorat bankinig moliyaviy manfaatlarning aniqlangan tizimi asosida tijorat bankining moliyaviy strategiyasining bunday ustun yo'nalishlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bunday holda, ushbu moliyaviy manfaatlarning har birini himoya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi va aniq strategik qarorlar tizimi bilan ta'minlanadi.



#### 8-rasm. O'zbekistonda tijorat banklari rivojlanishining 2030-yilgacha prognoz qiymatlari, (mlrd.so 'm)<sup>53</sup>

Shuningdek, tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarining rivojlanishini 2030-yilgacha prognoz ssenariylari ishlab chiqildi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, tijorat banki barqarorligini ta'minlashning moliyaviy strategiyasi tizimida quyidagicha bo'lishi taklif etiladi (8-rasm).

Dissertatsiyada muallif tomonidan mamlakatimiz tijorat banklari barqarorligini ta'minlash bo'yicha umumiy strategiyaning ustun yo'nalishlarini hisobga olgan holda ular rivojlanishining 2030-yilgacha prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston tijorat banklaridagi depozitlar 2030-yilgacha prognoziga ko'ra, 438473 mlrd.so'mga yetishi kutilmoqda.

Banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar qoldig'i 2030-yilda 2022-yilga nisbatan qariyb 2 barobarga oshib, 509245 mlrd.so'mga yetib borishi kutilmoqda.

<sup>53</sup> O'zbekiston Respublikasi Markazi banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

### 3.3.4-jadval

#### O‘zbekiston tijorat banklaridagi depozitlar 2030-yilgacha prognozi, (mlrd.so ‘m)<sup>54</sup>

Yillar	Ko‘rsatkichlar
2023-yil	224 854
2024-yil	255 371
2025-yil	285 888
2026-yil	316 405
2027-yil	346 922
2028-yil	377 439
2029-yil	407 956
2030-yil	438 473

Muallifning fikricha, amaliyotda, birinchi galda, puxta o‘ylangan tartib-taomil va ijrochilarining amaliy tajribasiga asoslangan xatarlarni tahlil qilishning sifatli usullaridan foydalanish kerak. Shu bilan birga, xatarlarni baholashning miqdoriy usullari har xil turdagи xatarlarning xavf darajasini taqqoslash yoki natijalarni tasvirlash uchun juda foydali ekanligini inkor etmaslik kerak.

### 3.3.5-jadval

#### Banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar qoldig‘i dinamikasi, (mlrd.so ‘m)<sup>55</sup>

Yillar	Ko‘rsatkichlar
2023-yil	254 477
2024-yil	290 873
2025-yil	327 268
2026-yil	363 664
2027-yil	400 059
2028-yil	436 454
2029-yil	472 850
2030-yil	509 245

Xatarlarni to‘g‘ri baholashning muhim sharti zarur ma’lumotlarning mavjudligi. Zamonaviy bank amaliyotida, yuqorida aytib o‘tilganidek, ushbu maqsadlar uchun zarur bo‘lgan statistik ma’lumotlarning yetishmasligi kuzatiladi. Zarur ma’lumotlarning yetishmasligi ma’lum darajada ekspert baholash va uni baholashning soddalashtirilgan usullariga asoslangan xavfni baholash usullaridan foydalanish bilan qoplanishi mumkin.

<sup>54</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>55</sup> Muallif ishlanmasi.

Ushbu yondashuvlarda ko‘rib chiqilayotgan xatarlar ularning oqibatlarini og‘irligiga qarab tasniflanadi, masalan, bank xatarlarini tizimli tavsiflashda taklif qilingan tavsifga muvofiq.

### **Uchinchi bob bo‘yicha qisqacha xulosalar**

**1.** Bank faoliyatini boshqarish va operatsiyalarini rivojlantirish mamlakatimizni innovatsion taraqqiyotiga olib keladi. Chunki bank biznesning barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda investitsion faoliyatning mohiyati va omillari katta ahamiyatga ega. Biznesni to‘xtovsiz moliyalashtirish zarurati raqobat intensivligining oshishi, sohada o‘rtacha foyda normasining pasayish tendensiyasining oldini olish, yangi mahsulotlarni yaratish, yangi asbob-uskunalarini joriy etish, yangi menejment usullarini boshqaruvga kiritish sababli vujudga keladi.

Banklarning faolligi va barqarorligini baholash uslubini yaratishda innovatsiyalarning yo‘nalishi, samaradorligi va taraqqiy etish omillari hisobga olinishi lozim.

**2.** Metodologiya va metodik munosabatda barqarorlikni samarali boshqaruv mexanizmiga ta’sir qiluvchi omillarni ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega. O‘tish davrigacha qo‘llangan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash bo‘yicha uslubiy holat sezilarli darajada eskirib qoldi. Bizning fikrimizcha, boshqaruv samaradorligini oshirishda ko‘proq bozor mexanizmidan foydalangan holda markaziy bank tomonidan belgilangan me’yorlarni saqlash kerak.

**3.** Bank faoliyati va operatsiyalarini rivojlantirishning innovatsion yo‘nalishi muammosini hal etishda iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish bilan birgalikda tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish, davlat organlarining mamlakat innovatsion salohiyatini mustahkamlashdagi ishtiroki masalalariga muhim o‘rin beriladi. Bunda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning muhim maqsadlari quyidagilar hisoblanadi: moddiy ishlab chiqarish sohasida ilg‘or o‘zgarishlarni ta’minlash; milliy mahsulotning jahon bozorlaridagi raqobatga bardoshligini oshirish, ekologik xavfsizlikni yaxshilash, mamlakat xavfsizligi va

mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, aholining turmush darajasini muttasil oshirib borish.

4. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini rivojlantirish, uni modernizatsiyalash, jumladan kichik biznes sohasida rekonstruksiyalash, ilmiy tashkilotlar va ilmtalab ishlab chiqarish korxonalarini yuqori texnologik ishlanmalarni joriy etish va islohotlar davrida sodir bo‘lgan fanning ishlab chiqarishdan uzilib qolishi oqibatlarini bartaraf etish maqsadida birlashtirishga ko‘maklashish, innovatsion faoliyat va amaliy ilmiy tadqiqotlarni bevosita va bilvosita qo‘llab-quvvatlash juda zarur.

5. O‘zbekiston Respublikasi bank sektorining 60 foiz banklari yuqori samara bilan ishlashi aniqlandi, lekin xorijiy mamlakatlardagi banklarni ushbu usul bo‘yicha tahlil qilganda samara bilan ishlayotgan banklarning soni(Alirezaee et al. 1998) ancha kam bo‘ladi. Ammo tahlilga binoan aksariyat banklar ko‘lamga pasayish jarayonida faoliyat ko‘rsatayotganligi tufayli raqobat kuchayganda ular katta muammoga to‘g‘ri kelishi yoki faoliyatini cheklashi yoki boshqa banklar tomonidan qo‘shib olinish xavfi bor.

Respublika Markaziy banking hisobotiga ko‘ra “Bank tiziminining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash borasida olib borilayotgan aniq maqsadli chora-tadbirlar so‘nggi besh yilda jami kapitalni 2,5 marta, oxirgi bir yilda esa 20 foiz oshirish imkonini berdi. Bank tiziminining kapitali yetarliligi darajasi xalqaro standartlardan uch baravar yuqoridir. Bank tiziminining joriy likvidlik darajasi 64,4 foizni tashkil etib, bu ko‘rsatkich ham xalqaro standartlardan ikki baravar ortiqdir.Bugungi kunda mamlakatimizning barcha banklari o‘zlarining barqarorligi va o‘sish sur’atlarini isbotlovchi «Standard & Poor’s», «Moody’s» va «Fitch Ratings» xalqaro reyting agentliklarining ijobjiy baholariga egalar.”

6. Matematik modellar natijalarini chuqur tahlil qilish natijasida bank boshqaruvchilari uchun kerakli bo‘lgan foydali axborotga ega bo‘lish mumkin. Jumladan Davr bank ma’muriyati operatsion xarajatlarni kamaytirishi va xizmatlar turini diversifikatsiyalashi zarur. Tadqiqot natijasiga ko‘ra bankning mulk egachiligi uning nisbiy samarasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmaydi. Shu bilan bir qatorda o‘rtacha

banklar kichik banklarga qaraganda ancha samaralidir. Demak, chet el banklarining kirib kelishi bank sektorining faoliyatiga katta ta'sirini o'tkazmaydi. Yirik banklarning samarador bo'lishiga sabab ularda menejment tizimi resurslarni yaxshi boshqarish oqibatidir.

7.Tahlillarning ko'rsatishicha, banklarning barqarorligi va samaradorligini tadqiq etishda va rivojlanishini baholashda ssenariy uslubidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ssenariy usuli yordamida tijorat banking mintaqaviy tarkibini ishlab chiqishda, bashoratlarning muqobilligi, ularda bozor munosabatlari qonuniyatlarini, iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida respublikada tijorat banklarini rivojlantirishning asosiy omillarini, mavjud imkoniyatlarini tahlil qilish negizida ularni takomillashtirishning nafaqat resurslar imkoniyatlari bo'yicha, balki amalga oshirish bosqichlari bilan ham farqlanuvchi optimistik va pessimistik variantlari aniqlandi.

## XULOSA

1. Bank tizimini barqaror rivojlantirish yo‘lida uning kapitallashuv va likvidlilik darajasini oshirish, kreditlash mexanizmini takomillashtirish, har toifadagi risk darajasini pasaytirishdan iborat. Bu muammo O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan banklar, jumladan, tijorat banklari uchun ham tegishlidir. Rivojlangan mamlakatlar tijorat banklarining faoliyati chuqur o‘rganilib kelgusida “kontrakt banklar” ravnaqi, bank xizmatlarining yangi turlarini yaratish va ularni diversifikatsiyalash imkonlari aniqlandi. Jumladan, Yevropa mamlakatlari banklarining ijobjiy tajribasini qo‘llagan holda respublikamiz tijorat banklarida mijozlar talablarini qondirish uchun “qayta sotib olish kelishuvlari”, ”kredit yo‘nalishini qayta ko‘rib chiqish”, “bank garantiyalari” singari yangi xizmat turlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Shuningdek banklarning moliyaviy xizmatlar turiga “qarzda qatnashishni sotish”, sindikat qarzlar bo‘yicha agentlik”, ”brokerlik/agentlik” hamda “to‘lov xizmatlarini” joriy qilinsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratilar edi.

2. Mamlakatimiz bank xizmatlari bozorida faoliyat olib borayotgan tijorat banklarida innovatsion boshqaruv texnologiyalarini qo‘llash, menejmentni rivojlantirish asosida tijorat banking boshqaruv tizimini taqomillashtirish uchun menejmentning yangi samarali konsepsiyalari jumlasiga kiruvchi “seven yes”, “biznes g‘ildiragi” singari tamoyillarni boshqaruvga kiritish, har bir banklarning missiyasi, kelajagi, maqsadi, vazifalari, strategiyasi va taktikasini aniq belgilash va u axborotni mijozlarga yetkazish lozim.

3. Banklar tomonidan iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan birgalikda ularning zamonaviy boshqaruv tizimining davr talablariga mos ravishda olib borilishi hamda jahon standartlari talablariga to‘liq javob bera olishi kabi amaliy ishlar davom ettirilmog‘i lozim. Banklarga aholining bo‘sh mablag‘larini jalb qilish, samarali loyihalarni investitsiyalash, bank aktivlarini boshqarish, bank operatsiyalarini takomillashtirishga oid faoliyatlarida:

– tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini xalqaro andoza va me’yorlar, jumladan, bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalari (Bazel III) asosida takomillashtirish;

- banklarning kapitallashuv darajasi va likvidligini yanada oshirish, depozit bazasini kengaytirish va diversifikatsiyalash, aktivlar, jumladan, kredit portfeli sifatini yanada yaxshilash orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash;

- tijorat banklarining balans doirasidagi operatsiyalari bilan bir qatorda balansdan tashqari bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirish, biznes faoliyatini diversifikatsiyalash;

– banklarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini yanada kuchaytirish, ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirib borish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha operatsiyalarni yanada faollashtirish va biznes riskini pasaytirish;

– jahon banklari tajribasi asosida ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini differensiyatsiyalash va diversifikatsiyalash va xizmatlar sifatini yanada yaxshilash, xususan, bank infratuzilmasini rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llagan holda masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatish ko‘lamlarini yanada kengaytirish. Jumladan, bank xizmatida innovatsion texnologik vositalar: Cash Back, Personel manager, Coobrending singari dasturlardan keng foydalanish; rivojlangan mamlakatlar tajribasini, jumladan, banklarning biznes portfelini optimallashtirish, ichki reytingini tuzish, bank operatsiyalari samaradorligini baholashda iqtisodiy matematik usullardan keng foydalanish, axborot kommunikatsiyalarini joriy etish, komp’yuter dasturlaridan foydalanish;

– mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan yetakchi xalqaro reyting agentliklari yuqori reyting baholarining olinishi uchun moliya-bank tizimi faoliyatining qonunchilik bazasini xalqaro andoza va tamoyillar asosida yanada takomillashtirish tavsiya etiladi.

4. Aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning banklardagi depozitlari hajmining o‘sishini rag‘batlantirishga qaratilgan kengko‘lamli ishlar, jumladan, doimiy ravishda jozibador omonat turlarini taklif qilish, uzoq muddatli bank depozit sertifikatlarini va obligatsiyalarini muomalaga chiqarish hamda bu borada joriy etilgan imtiyozlar va qulay shart-sharoitlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish o‘zining ijobiy natijalarini berayotganini inobatga olgan holda bu sohada innovatsiyalarni kuchaytirish lozim.

5. Istiqbolda kontrakt banklar vujudga kelishi uchun qonuniy baza va normativlarni jahon andozasi darajasida takomillashtirish kerak. Bugungi kunda moliya banklaridagi raqobat muhiti tijorat banklaridan aktivlarni boshqarishda faqatgina aktiv va passiv operatsiyalarini boshqarish usullarini takomillashtirish emas, balki texnik va ijtimoiy omillarni ta’kidlash kerak. Har bir bank boshqaruvda o‘zining missiyasi, uzoqni ko‘ra bilishi, maqsadi, vazifalari, strategiya va taktikasini ilmiy asosda shakllantirmog‘i va bu sohada xorijiy banklar tajribasini qo‘llashi zarur.

6. Tijorat banklarining kreditlash faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishni kuchaytirish borasida:

- banklarning aholi bilan muloqotini kengaytirish, kreditga bo‘lgan talabni o‘rganish uchun marketing tadqiqotlarini mahalla va tumanlan kesimida muloqat tarzida olib borish, korxona va tashkilotlar bilan aloqadorligini kuchaytirish kerak;
- kredit tashkilotlarida likvidlik bilan bog‘liq tavakkalchillikni boshqarish tizimi holatini baholash va boshqarishdagi yondashuvlarni, kredit operatsiyalari va shartnomalarni amalga oshirish chog‘ida kredit tashkilotlari tomonidan qo‘llaniladigan alfa, betta risklarni o‘lchash orqali tavakkalchilik boshqaruvini takomillashtirish;
- tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning uz vaqtida va to‘liq qaytarilishi yuzasidan ularning ma’suliyatini oshirish hamda nazorat ishlarini kuchaytirish, shu bilan birga tavakkalchilikni boshqarishda sug‘urta mexanizmlaridan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish zarur.

7. Nazariy jihatdan bank faoliyati barqarorligini ta’minlash va operatsiyalarini rivojlantirishning mohiyati va ahamiyati haqida ko‘pgina tortishuvlar mavjud. Bu

qarashlarni umumlashtirish asosida dissertatsiyada zamonaviy tijorat banklarini jahon tajribasini o‘rgangan holda moliyaviy vositachilik funksiyasini kuchaytirish bilan birga bank balansidan tashqari faoliyatlarini ham kengaytirish maqsadga muvofiq. Shuningdek kelgusida kontrakt bank degan bank biznesini O‘zbekistonda rivojlantirish muhim samara bergen bo‘ldi.

8. Bank faoliyatini tadbirkorlikning zamonaviy mikroiqtisodiy talqinida ishlab chiqarishni bozor mexanizmi bilan uzviy ravishda tahlil etilib, iqtisodiy natijalar, resurslardan samarali foydalanish maqsadi bilan yagona tizim shaklida qaralmog‘i lozim. Boshqacha qilib aytganda bank tadbirkorligi bozor tuzilishi, bozor mexanizmi va korxonaning natijalari bilan uzviy ravishda hamda dinamik ko‘rinishda boshqarilishi lozim. Bu jarayonda ishlab chiqarish funksiyalari tushunchalari, marjinal xarajat va marjinal daromad kategoriyalari keng foydalanilsa bank faoliyatigi tegishli qarorlarni muqobillashtirishga olib keladi.

9. Tijorat banklarining barqarorligini ta’minlash va pul kredit mexanizmini yanada takomillashtirish, uning iqtisodiy samarasini oshirish maqsadida kelajakda quyidagilarga e’tiborni kuchaytirish lozim:

-tijorat banklaridagi majburiy zahiralar normasini pasaytirish (ortiqcha likvid mablag‘lar zahirasini pasaytirish), pul mablag‘lari ta’minotini kengaytirish (M2 miqdorini oshirish), tijorat banklarida o‘z aktivlarini boshqarishga ko‘ra passivlarni boshqarishga e’tiborni kuaytirish, balansdan tashqari xizmat turlarini taklif etish va faoliyat turlarni diversifikatsiyalash va passivlarini boshqarishini yanada erkinlashtirish, fond va moliyaviy bozorlardagi biznes muhitini yaxshilash; so‘m va valyuta kartochkalari orqali bank operatsiyalarini kengaytirish, mijoz hohishiga binoan bir schetdan ikkinchi bankdagi schetga hech qanaqa to‘siksiz chet el valyutasini o‘tkazishga erishish kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va huquqiy-me’yoriy hujjatlari.**

#### **O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” gi Qonuni. 1995 yil 21 dekabr. O‘zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – 7-29-b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 1996 yil 25 aprel. O‘zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – 30-46-b.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida” gi (yangi tahriri) Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. I – 3. – Toshkent, 2004. – 23-47-b.

4. O‘zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to‘plami.– T.: O‘zbekiston, 2011. –448 b.

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PQ-1438-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 56-sonli 2005 yil 15 aprel Qarori. Norma huquqiy-me’yoriy hujjatlari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3831-sonli 2006 yil 19 dekabr Farmoni. Norma huquqiy-me’yoriy hujjatlari.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida

ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 670-sonli 2007 yil 12 iyul Qarori. Norma huquqiy-me’yoriy hujjatlari.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklarining investitsiya loyihibalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori. 2009 yil 28 iyul PQ-1166сон.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2010 yil 6 aprel PQ-1317.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 y. PK-1438-son "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2010 y. PK-1317-son "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

9. Vazirlar Maxkamasining 2005 yil 16 apreldagi "Bank tizimini isloh qilishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori

### **1.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar:**

1. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 4 dekabrdagi 422-son qaroriga ILOVA «Banklarning kreditlari bo‘yicha qarzdorlik o‘z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish» Tartibi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 apreldagi 197-sonli «Qarz oluvchilarining kredit tarixi to‘g‘risidagi axborotni hisobga olish tizimini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2011 yil 7 mayda 14/2 – sonli qaror bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrdagi tasdiqlangan 420-sonli “Tijorat banklari kapitalining yetarlilikiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 9 noyabrdagi tasdiqlangan 242 – sonli «Aktivlar sifatini tahlili tartibi va mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarga qarshi rezervlarni ishlatish to‘g‘risida»gi Nizom.

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 2 noyabrdagi tasdiqlangan 422-son «Bir qarzdor yoki o‘zaro daxldor bo‘lgan qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to‘g‘risida» Nizom.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 1998 yil 2 noyabrdagi tasdiqlangan 421-sonli “Tijorat banklari likvidliligini boshqarishga bo‘lgan talablar to‘g‘risida”gi Nizom.

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2000 yil 24 iyunda qabul qilingan 472-sonli “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom.

9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2000 yil 22 fevraldagagi 429-son qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklari kredit siyosatiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2005 yil 28 mayda tasdiqlangan 610-sonli “Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish qoidalarining yangi tahririni tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 9 dekabrdagi 242-sonli «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi Tartib.

12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2011 yil 10 sentyabrdagi 26/1-sonli “Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibiga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qaror.

## **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma’ruzalari**

1. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 516 b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 56 b.
4. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirdorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir.// Xalq so‘zi. 16.01.2016.

### **Kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to‘plamlari.**

1. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. -T: Moliya, 2002. -304 b.
2. Bazel-3 i Yevropeyskie banki: Vliyanie reform, reaksiya bankov, problemy realizatsii. EMEA Banking, McKinsey & Company, November 2010.
3. Bankovskoe delo: Uchebnik / Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. G.G.Korobova. –M.: Ekonomist’, 2004. -751 s.
4. Bankovskoe delo: uchebnik dlya studentov vuzov, obuchayushchixya po ekon. spes. / Pod red. Ye.F.Jukova. –M.: YuNITI-DANA: Yedinstvo, 2006. – 575 s.
5. Beloglazova G.N. Bankovskoe delo. Uchebnik / Pod red. G.N.Beloglazovoy, L.P.Kroliveskoy. – 2-ye izd. – SPb.: Piter, 2009. – 400 s.
6. Beloglazova G.N. Bankovskoe delo. Organizatsiya deyatelnosti kommerseskogo banka. Uchebnik / Pod red. G.N.Beloglazovoy, L.P.Kroliveskoy. – M.: Vysshhee obrazovanie, 2009. – 422 s.
7. Belyakov A.V. Bankovskie riski: problemy ucheta, upravleniya i regulirovaniya (2-ye izd). Upravlencheskaya metodicheskaya razrabotka. - "BDS-press", 2004.- 256s.
8. Butikov I.L. “Rynok sennых bumag Uzbekistana: problemy formirovaniya i razvitiya”. T.: “Konsauditinform-nashr”, 2008

9. Van Gryuning X., Brayovich Bratanovich S. Analiz bankovskix riskov. Sistema otsenki korporativnogo upravleniya i upravlenie finansovym riskom / per. s angl. M.: Ves mir, 2003.
10. Vaxabov A.V. Ukreplenie bankovskoy sistemy Uzbekistana kak prioritetnoe napravlenie povysheniya effektivnosti antikrizisnoy programmy Uzbekistana // Effektivnost antikrizinix programm i prioritety postkrizisnogo razvitiya: (na primere Uzbekistana). – Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya – Tashkent: Uzbekistan, 2010. – Chast III. – B. 84-90.
11. Vaxabov A.V., Jumaev N.X., Xoshimov E.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari. – T.: “AKADEMNASHR”, 2009. – 144 b.
11. Vaxobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. – Toshkent: Sharq, 2003. – 400 b.
12. G'ozibekov D.G. “Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari”. T.: “Moliya”, 2003.
13. Jumaev N., Burxanov U. Molianing dolzarb muammolari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 70-b.
14. Jumaev N.X. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: mohiyati, sabab-oqibatlari va O'zbekistonga ta'siri. Toshkent: JIDU, 2009 y. - 56 b.
15. Jumaev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. –T.: Fan va texnologiya, 2007.– 232 b.
16. Jumaev N.X., Abdurahmonov O.Q. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – T.: Akademneashr, 2010. – 160 b.
17. Jumaev N.X., Kudaybergenov J.Sh. Valyutnyy kurs i puti ix regulirovaniya. –T.: «Iqtisod-Moliya», 2006. -132 c.
18. Jumaev N.X., Maxsumov E.M. Valyuta operatsiyalarini boshqarish mexanizmi. –T.: «Iqtisod-Moliya», 2006. -128 b.
19. Yo'ldoshev M.I. Bank huquqi. Darslik / M.I.Yuldashev. – Toshkent: Moliya, 2007. – 332 b.

20. Kent Mathews and John Tompson. The economics of banking.Third edition.“WILY”, 2014
21. Karimov N.G‘. “Iqtisodiy integrallashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmalarini joriy etish masalalari”. T.: Fan va texnologiya, 2007.
22. Lavrushin O.I. Bankovskie riski : uchebnoe posobie / kol. avtorov; pod red. d-ra ekon. nauk, prof. O.I. Lavrushina i d-ra ekon. nauk, prof. N.I. Valensevoy. - 2-ye izd., ster. - M.: KNORUS, 2008. - 232 s.
23. Lavrushin O.I. Bankovskiy menedjment : uchebnik/ Pod red. O.I. Lavrushina. -2-ye izd., pererab. i dop.. -M.: KnoRus, 2009. -560 s.
24. Lavrushin O.I. Bankovskoe delo. Ekspress kurs: Ucheb. posobie. / Pod red. O.I.Lavrushina – 3-ye izd., pererab. i dop. – M.: Knorus, 2009. – 352 s.
25. Lavrushin O.I. Osnovy bankovskogo menedjmenta: Uchebnoe posobie /Pod. red. O. Lavrushina. - M.: Infra. 1995. – S. 74.
26. Mirzaev F.I. Banklararo raqobat: mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Monografiya. – Toshkent: Moliya, 2008. – 276 b.
27. Mullajonov F.M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. – T.: O‘zbekiston, 2011. – 368 b.
28. Omonov A.A. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. Monografiya. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2008 yil. 248 b.
29. Sinki Dj. Finansoviy menedjment v kommercheskom banke i v industrii finansovyx uslug. Per. s angl. / Dj.Sinki. – Moskva: Alpina Biznes Buks, 2007. – 1018 s.
30. Timoti U. Kox. Upravlenie bankom: per. s angl. V 5-ti tomakh (knigax), 6-ti chastyax. Ufa: Spektr. Chast I, 2003. – 112 s.
31. Xoshimov E.A. O‘zbekistonda valyuta bozorini erkinlashtirish: muammolar va yechimlar. – T.: Akademnashr, 2010. – 168 b.
32. Ekonomika Uzbekistana informatsionno-analiticheskiy byulleten za 2012 god. Sentr ekonomiceskix issledovaniy. Tashkent, Uzbekistan. 2013 god.

33. Ekonomika Uzbekistana informatsionno-analiticheskiy byulleten za 2015 god. Sentr ekonomiceskix issledovaniy. Tashkent, Uzbekistan. 2016 god

34. «Moody's defines default as any missed or delayed payment, or distressed exchange diminishing the obligation or having the apparent purpose of helping the issuer avoid default» (Felsenheimer J., Gisdakis P., Zaiser M. "Active Credit Portfolio Management", Wiley-VCH, 2006. – c. 126).

35. BIS Quarterly Review, Statistical Annex. – December 2010. – P. A24, A27.

36. Block F. M. Capital Stocks: Explaining Economic Stages. Amsterdam, 2004. - S. 164.

37. Bureau of Economic Analysis, U.S. International Transactions Accounts Data, Release Date: March 16, 2011.

38. IMF, Financial Stability Report (Bank of England).

39. IMF, World Economic Outlook, April 2011. – P. 181.

40. Sh.Hefferman. Modern banking. London: John Wiley & Sons Ltd, 2005. – 716 p.

### **Jurnal va gazetalardagi maqolalarga havolalar**

1. Vaxabov A.V., Bobakulov T.I. Bankovskaya sistema Uzbekistana i yee rol v realizatsii antikrizisnoy programmy // Sentralnaya Aziya i Kavkaz. – Shvesiya: SA&CC Press, 2009. – № 4-5(64-65). – C. 103-118.

2. Jumaev N.X., Xoshimov E.A. Milliy valyuta tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari // Bozor, pul va kredit, 2007. -№6. – B. 5-8.

3. Zubchenko L. Nadzor i kontrol za deyatelnostyu fransuzskix bankov // Biznes i banki, 1998. – №35. – S. 7.

4. Xoshimov E.A. Valyuta bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2008. - № 1. – B. 127-133.

5. Xoshimov E.A. Global moliyaviy inqirozning milliy valyuta bozoriga ta'siri va uni bartaraf etish yo'llari // Xalqaro iqtisodiy munosabatlar, 2009.- №2.– B.10-14.

6. Xoshimov E.A. Globallashuv sharoitida monetar siyosat va valyuta kursi rejimi // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2006. - № 4. – B. 83-88.

7. Xoshimov E.A. O‘zbekistonda valyuta bozori: rivojlanish yo‘nalishlari // Birja – ekspert. – Toshkent, 2008. - № 7-8. - B.13-18.
8. Jumaev N.H., Hoshimov E.A. Foreign exchange regime of Uzbekistan: problems and solutions // Selected Papers. - Shah Alam, Malaysia: Universiti Teknologi MARA, 2007. – pp. 44-46.
9. Markowitz H.M. Portfolio Selection / Journal of Finance, №7, 1952.
10. Financial Times, 12.03.2009; New York Times, 20.03.2009.
- 11.**DeYoung, Robert, “X-Efficiency and Management Quality in Commercial Banks,”Office of the Comptroller of the Currency, E&PA Working Paper 94-1, January 1994.

### **Internet veb sahifalari**

1. <http://imf.org>
2. <http://worlbankgroup.org>
3. <http://bis.org>
4. <http://ecb.int>
5. <http://federalreserve.gov>
6. <http://bankofengland.co.uk>
7. <http://cbr.ru>
8. <http://boj.or.jp/en/>
9. <http://banque-france.fr>
10. <http://cbu.uz>
11. <http://ifsl.org.uk>
12. <http://press-service.uz>
13. <http://stat.uz>
14. <http://fintimes.km.ru/tsennyе-bumagi/frs>
15. <http://mab.micex.ru/papers>
16. <http://globalfindata.com>
17. <http://cia.gov/library/publications/the-world-factbook>
18. <http://g20.org/Documents>
- 19.** <http://gold.org>